

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

METROLOGIYA VA STANDARTLASHTIRISH

Amaliy mashg‘ulotlar uchun

USLUBIY QO‘LLANMA



Toshkent 2019

Masharipov SH.M., Ergashev F.A. Metrologiya va standartlashtirish. Uslubiy qo‘llanma – T.: ToshDTU, 2019.

Uslubiy qo‘llanmada metrologik faoliyatning qonuniy asoslari, o‘lchash asboblari metrologik tekshiruvdan o‘tkazish tartibi (gaz sarfini o‘lchash asbobi misolida), standart talablari asosida o‘lchash vositalarini qiyoslashdan o‘tkazish (elektr energiyasini hisoblash asboblari qiyoslashdan o‘tkazish tartibi misolida), standartlashtirishning qonuniy asoslari, standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartiblari, sertifikatlashtirishning huquqiy asoslari va tartiblari, mahsulotlarni shtrix kodlash, texnik reglamentlar va xalqaro standartlarni joriy qilish masalalari yoritilgan.

Uslubiy qo‘llanma 5311000 – “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish” va 36 soat amaliy mashg‘ulotlar, rejalashtirilgan turdosh bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, amaliy mashg‘ulot bo‘yicha o‘quv jarayonida foydalanish tavsiya qilinadi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Ilmiy-uslubiy Kengashi qaroriga ko‘ra chop etildi.

Taqrizchilar:

Egamberdiyev B.E. - ToshDTU "Elektronika va avtomatika" fakulteti professori, fizika-matematika fanlari doktori;

To‘rayev Sh.A. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Ilmiy tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, t.f.n., dotsent.

1 – AMALIY MASHG‘ULOT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “METROLOGIYA” TO‘G‘RISIDAGI QONUNI VA UNDAGI TUSHUNCHALAR TAHLILI (2 soat)

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. O‘lcham birliklari, ularni qayta hosil qilish va qo‘llash.
3. O‘zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari.
4. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati
5. Xulosa.

Tayanch so‘zlar: metrologiya, o‘lchash vositasi, davlat etaloni, davlat metrologik nazorati, metrologik xizmat, metrologik ta‘minot va boshqalar.

Zamonaviy pedagogik texnologik elementlaridan, masalan interaktiv metodini qo‘llab dars o‘tiladi.

Darsda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proyektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta‘minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to‘la sharoit yaratiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

Qonun 5ta bo‘lim, 21 moddadan iborat bo‘lib, 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatiladi:

«**metrologiya**» — o‘lchovlar, ularning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan;

«**yagona o‘lchov birligi**» — o‘lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma‘lum bo‘lgan o‘lchov holati;

«**o‘lchov vositasi**» — o‘lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo‘lgan texnika vositasi;

«**birlik etaloni**» — o‘lcham birligini boshqa o‘lchov vositalariga o‘tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchov vositasi;

«**davlat etaloni**» — vakolat berilgan milliy organing qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘lchov birligining o‘lchami sifatida e‘tirof etilgan etalon;

«**metrologik xizmati**» — davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari tarmogʻi hamda ularning oʻlchovlari yagona birlikda boʻlishini taʼminlashga qaratilgan faoliyati;

«**davlat metrologik nazorati**» — metrologik qoidalarga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologik xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat;

«**oʻlchov vositalarini tekshiruvdan oʻtkazish**» — oʻlchov vositalarining belgilab qoʻyilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologik xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui;

«**oʻlchov vositalarini kalibrlash**» — metrologik jihatlarining haqiqiy qiymatlarini va oʻlchov birliklarining qoʻllashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi (markazi) bajaradigan operatsiyalar majmui;

«**oʻlchov vositalarini metrologik attestatsiya qilish**» — yagona namunalarda ishlab chiqariladigan (yoki Oʻzbekiston hududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) oʻlchov vositalarining xossalarini sinchiklab tadqiq etish asosida ular qoʻllanish uchun haqqoniy ekanligining metrologik xizmati tomonidan eʼtirof etilishi;

«**metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish**» — metrologik xizmatlar, markazlar, laboratoriyalarning belgilangan akkreditatsiya qilish sohasida oʻlchovlarning yagona birligini taʼminlash boʻyicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligining rasmiy jihatdan tasdiqlanishi;

«**yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlarini, oʻlchov vositalarini kalibrlash boʻyicha kalibrlash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditatsiya qilish**» — yuridik shaxslar metrologik xizmatlarining, kalibrlash laboratoriyalarining (markazlarining) belgilangan sohada oʻlchov vositalarini kalibrlash boʻyicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligining rasmiy jihatdan tasdiqlanishi;

«**oʻlchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish**» — oʻlchovlarni bajarish uslubiyotining unga qoʻyilgan metrologik talablariga mosligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot oʻtkazish;

«**oʻlchovlarning bajarilish uslubiyoti**» — operatsiyalar va qoidalar majmui boʻlib, ularning bajarilishi xatolari maʼlum boʻlgan oʻlchov natijalari olishni taʼminlaydi.

«**sinov vositalarini metrologik attestatsiya qilish**» — sinov vositalarining normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash;

«**sinov vositasi**» — sinovlar oʻtkazish uchun moʻljallangan, normalangan texnik tavsiflari boʻlgan texnik qurilma, modda va (yoki) material.

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya boʻyicha milliy organ — Oʻzbekiston standartlashtirish, metrologik va sertifikatlashtirish agentligi («Oʻzstandart» agentligi) amalga oshiradi.

«Oʻzstandart» agentligi vakolatiga:

metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, metrologiyaga oid faoliyatni mintaqalararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirish;

milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llab-quvvatlash hamda ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash qoidalarini belgilash;

o'lchov vositalari, usullari va natijalariga qo'yiladigan umumiy metrologik talablarni aniqlash;

davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

metrologiya masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni qabul qilish, shu jumladan davlatning boshqa boshqaruv organlari bilan hamkorlikda qabul qilish;

metrologiya sohasida ilmiy va muhandis-texnik kadrlar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasining metrologiya sohasidagi xalqaro shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

metrologiya masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish;

O'zbekiston Respublikasining o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash tizimi faoliyat olib borishi va rivojlanishini hamda uning xalqaro o'lchov tizimi va boshqa mamlakatlarning o'lchovlar tizimlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

iste'molchilar huquqlarini, fuqarolarning sog'lig'i va xavfsizligini, atrof - muhitni hamda davlat manfaatlarini noto'g'ri o'lchov natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish kiradi.

2. O'LCHAM BIRLIKLARI, ULARNI QAYTA HOSIL QILISH VA QO'LLASH

O'lcham birliklari;

O'zbekiston Respublikasida xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) ning o'lcham birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi. O'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalari «O'zstandart» agentligining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lchamlarni qo'llashga ruxsat berishi mumkin.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida kontrakt shartlariga muvofiq o'lchamlarning o'zga birliklari ham ishlatilishi mumkin.

O'lchamlar birliklarining etalonlari;

O'lchamlarning birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta tayyorlanadi.

Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llash tartibini «O'zstandart» agentligi belgilaydi.

O'lchov vositalari va sinov vositalari

Foydalanishda bo'lgan o'lchov vositalari va sinov vositalari o'lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo'yilgan aniqlikda bo'lishini ta'minlashi va qo'llash shartlariga mos kelishi lozim.

Texnika vositalarini o'lchov vositalari va sinov vositalari jumlasiga kiritish mezonlarini «O'zstandart» agentligi belgilaydi.

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari;

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari o'lchov natijalarining xatoliklarini baholashini o'z ichiga olishi va o'lchov o'tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo'yilgan aniqlikni ta'minlashi lozim. O'lchovlar belgilangan tartibda attestatsiya qilingan o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlariga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim.

O'lchovlarning bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiya qilish tartibini «O'zstandart» agentligi belgilaydi.

3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING METROLOGIK XIZMATLARI

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlaridan tarkib topadi.

«O'zstandart» agentligi boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi.

Davlat metrologiya xizmati organlari davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo'lgan hollarda o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish va metrologiya nazoratini amalga oshirish uchun tuziladi.

Yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining huquq va burchlari davlat metrologiya xizmati organlari bilan kelishib olingan nizomlar bilan belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Metrologiya bo'yicha asosiy tushunchalarga izoh bering.
2. O'lchash vositasi nima?
3. Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati obyektlari va sohalarini sanang.

2 - AMALIY MASHG'ULOT

GAZNI HISOBGA OLISH ASBOBLARINI TEKSHIRUV DAN O'TKAZISH TARTIBINI TAHLIL QILISH (2 soat)

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Gazni hisobga olish asboblari tekshiruvdan o'tkazish uchun yechib olish.

3. Gazni hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazish uchun topshirish, tekshiruvdan o'tkazish va ta'mirlash.
4. Tekshiruvdan o'tkazilgan gazni hisobga olish asbobini o'rnatish.
5. Xulosa.

Tayanch so'zlar: gazni hisobga olish asbobi, davriy tekshiruv, navbatdan tashqari tekshiruv, ekspert tekshiruvi, dalolatnoma, sertifikat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proyektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

O'zbekiston Respublikasida gazni hisobga olish asboblarining tekshiruv tartibi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft' mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasining qo'shma qarori "GAZNI HISOBGA Olish ASBOBLARINI TEKSHIRUVDAN O'TKAZISH TARTIBI TO'G'IRISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA", O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 30-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2604 bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi O'lchov vositalari davlat reyestriga kiritilgan gazni hisobga olish asboblari davlat metrologiya tekshiruvidan o'tkaziladi.

Iste'molchilar tomonidan foydalanilayotgan gazni hisobga olish asboblari:

davriy tekshiruvdan — gazni hisobga olish asboblarini tekshiruvdan o'tkazishning amal qilish muddati tugaganda;

navbatdan tashqari tekshiruvdan — gazni hisobga olish asboblarining tekshiruvdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi plombasi shikastlanganda yoki qayta sozlash ishlarini o'tkazish zarurati vujudga kelganda;

ekspert tekshiruvdan — gazni hisobga olish asboblarining sozligi yoki ularning qo'llashga yaroqliligi, metrologik tavsiflari bo'yicha munozarali savollar tug'ilganda o'tkaziladi.

Gazni hisobga olish asboblari quyidagi oraliqda davriy tekshiruvdan o'tkaziladi:

jismoniy shaxslar — 8 yilda 1 marta;

yuridik shaxslar — 4 yilda 1 marta.

Foydalanilmagan gazni hisobga olish asboblarining davriy tekshiruvdan o'tkazish muddatlari o'tib ketgan taqdirda, ulardan belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilgandan so'ng foydalanish mumkin.

Gazni hisobga olish asboblari tekshiruvdan o'tkazish davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. GAZNI HISOBGA OLISH ASBOBLARINI TEKSHIRUV DAN O'TKAZISH UCHUN YECHIB OLISH

Tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasi gazni hisobga olish asbobini davriy tekshiruvdan o'tkazishning amal qilish muddati tugashidan o'ttiz kun oldin iste'molchining gazni hisobga olish asbobini davriy tekshiruvdan o'tkazish zarurligi haqida yozma ravishda ogohlantiradi. Tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasi rahbari gazni hisobga olish asbobini davriy tekshiruvdan o'tkazish zarurligi haqida iste'molchilarning o'z vaqtida ogohlantirilishi uchun mas'uldir.

Iste'molchi gazning hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazish uchun uni yechishini so'rab tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasiga ariza bilan murojaat qiladi.

Gazni hisobga olish asbobini ekspert tekshiruvdan o'tkazish uchun surishtiruv, tergov, prokuratura organlari yoxud sudning qarori yoki ajrimiga asosan yechib olinishi mumkin.

Gazni hisobga olish asboblari tekshiruvdan o'tkazish uchun yechib olish tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasining mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasining mutaxassisi ariza berilgandan so'ng, besh ish kuni ichida gazni hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazish uchun iste'molchi ishtirokida yechib oladi.

Gazning hisobga olish asbobini yechib olish vaqtida tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasining mutaxassisi iste'molchi ishtirokida gazni hisobga olish asbobining o'rnatilgan plombalari butligini tekshiradi.

Gazni hisobga olish asbobining o'rnatilgan plombalari but bo'lgan taqdirda, gazni hisobga olish asbobi yechib olinadi va ikki nusxada Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda gazni hisobga olish asbobining yechib olinganligi to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Mazkur dalolatnomaning bir nusxasi gazning hisobga olish asbobi bilan birga iste'molchiga beriladi.

Gazni hisobga olish asbobi tekshiruvdan o'tkazish uchun yechib olingandan so'ng, tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasining mutaxassisi iste'molchining xohishiga ko'ra uni gaz tarmog'iga gazni hisobga olish asbobisiz ulaydi yoki vaqtincha tarmoqdan uzib qo'yadi. Iste'molchining gaz tarmog'iga ulanganligi yoki ulanmaganligi gazni hisobga olish asbobining yechib olinganligi to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatiladi.

Iste'molchi gazni hisobga olish asbobisiz gaz tarmog'iga ulangan taqdirda, foydalanilgan gaz uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda to'lov amalga oshiriladi.

3. GAZNI HISOBGA OLISH ASBOBINI TEKSHIRUVDAN O'TKAZISH UCHUN TOPSHIRISH, TEKSHIRUVDAN O'TKAZISH VA TA'MIRLASH

Iste'molchi gazni hisobga olish asbobini va gazni hisobga olish asbobining yechib olinganligi to'g'risidagi dalolatnoma nusxasini tekshiruvdan o'tkazish uchun davlat metrologiya xizmati organiga topshiradi.

Davlat metrologiya xizmati organi mas'ul xodimi gazni hisobga olish asbobi topshirilganligini tegishli jurnalga qayd qilishi lozim.

Gazni hisobga olish asbobidagi tekshiruvdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ishlab chiqaruvchining tovar belgisi, tipi, markasi, raqami va gazni hisobga olish asbobining ko'rsatkichi) ko'rish imkoni bo'lmagan taqdirda, davlat metrologiya xizmati organi gazni hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazish uchun qabul qilishni rad etadi.

Gazni hisobga olish asbobi tekshiruvdan o'tkazish uchun qabul qilinganda, manfaatdor shaxs va davlat metrologiya xizmati organi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Gazni hisobga olish asbobi davlat metrologiya xizmati organi tomonidan uch kun ichida tekshiruvdan o'tkaziladi.

Gazni hisobga olish asbobini ekspert tekshiruvdan o'tkazishda manfaatdor shaxslar yoki ularning vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Gazni hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazish natijasi ijobiy bo'lgan taqdirda, gazni hisobga olish asbobi foydalanishga yaroqli deb topiladi va davlat metrologiya xizmati organi tomonidan iste'molchiga gazni hisobga olish asbobining tekshiruvdan o'tkazilganligi haqida sertifikat beriladi.

Gazni hisobga olish asbobi uning hisoblash mexanizmi va sozlash elementiga o'zgartirish kiritishning oldini olish maqsadida davlat metrologiya xizmati organi tomonidan plombalanadi.

Gazni hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazish natijasi salbiy bo'lgan taqdirda, gazni hisobga olish asbobi foydalanishga yaroqsiz deb topiladi va shu kunning o'zida bu haqda davlat metrologiya xizmati organi mas'ul xodimi tomonidan iste'molchiga xabar beriladi.

Gazni hisobga olish asbobi yaroqsiz deb topilgan taqdirda, iste'molchi uni ta'mirlash uchun ta'mirlash tashkilotlariga topshirishi yoki O'zbekiston Respublikasi O'lchov vositalari davlat reestriga kiritilgan va tekshiruvdan o'tkazilgan boshqa gazni hisobga olish asbobidan foydalanishi mumkin.

Gazni hisobga olish asbobini ta'mirlash tashkiloti tomonidan texnik tekshirishdan o'tkazish natijalari bo'yicha ikki nusxada dalolatnoma tuziladi va uning bir nusxasi iste'molchiga beriladi.

Davlat metrologiya xizmati organining mas'ul xodimi ta'mirlangan gazni hisobga olish asboblari ta'mirlash tashkilotining o'zida tekshiruvdan o'tkazish uskunasiidan foydalangan holda tekshiruvdan o'tkazishi mumkin.

Gazni hisobga olish asbobini tekshiruvdan o'tkazishning natijasi ijobiy bo'lgan taqdirda, shu kunning o'zida davlat metrologiya xizmati organining mas'ul

xodimi gazni hisobga olish asbobining tekshiruvdan o'tkazilganligi haqida sertifikat rasmiylashtirib, gazni hisobga olish asbobini plombalaydi.

4. TEKSHIRUVDAN O'TKAZILGAN GAZNI HISOBGA OLIH ASBOBINI O'RNATISH

Iste'molchi tekshiruvdan o'tkazilgan gazni hisobga olish asbobini o'rnatish uchun tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasiga ariza bilan murojaat qiladi.

Tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasi ariza qabul qilingandan so'ng ikki kun ichida gazni hisobga olish asbobini o'rnatib berishi lozim. Tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasining mutaxassisi gazni hisobga olish asbobini o'rnatishdan oldin uning tekshiruvdan o'tkazilganligi haqidagi sertifikatning mavjudligi va plombalarining butligini tekshiradi.

Iste'molchi tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasining mutaxassisiga gazni hisobga olish asbobining tekshiruvdan o'tkazilganligi haqidagi sertifikat nusxasini taqdim qilishi lozim.

Tegishli hududdagi gaz ta'minoti korxonasi mutaxassisi gazni hisobga olish asbobini o'rnatgandan so'ng, iste'molchini gaz tarmog'iga ulash shtuserlarini plombalaydi va ikki nusxada Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda dalolatnoma tuzadi hamda dalolatnomaning bir nusxasini iste'molchiga beradi.

Gazni hisobga olish asbobi o'rnatilgandan so'ng, gazni hisobga olish asbobi ro'yxatga olinadi va foydalanilgan gazni hisobga olish asbobining ko'rsatkichiga muvofiq hisoblanadi.

5. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari:

1. Gazni hisobga olish asboblari nima maqsadda tekshiriladi?
2. Gazni hisobga olish asboblarini tekshirishning qanday turlari bor?
3. Asboblarni tekshirish xuquqi qaysi idoralarga berilgan?
4. Asboblarni tekshirish uchun yechib olishdan o'rnatishgacha bo'lgan jarayonni tushuntiring.

3 - AMALIY MASHG'ULOT

MAISHIY ISTE'MOLCHILARNING ELEKTR ENERGIYASINI HISOBGA OLIISH ASBOBLARINI QIYOSLASHDAN O'TKAZISH TARTIBINI O'RGANISH (2 soat)

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Hisobga olish asboblari davriy qiyoslashdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish.
3. Hisobga olish asboblari davriy qiyoslashdan o'tkazish uchun yechib olish.
4. Hisobga olish asboblari davriy qiyoslashdan o'tkazish uchun davlat metrologiya xizmati organiga topshirish.
5. Hisobga olish asboblari davriy qiyoslashdan o'tkazish va ta'mirlash.
6. Qiyoslashdan o'tkazilgan hisobga olish asbobini joyiga o'rnatish.
7. Xulosa.

Tayanch so'zlar: elektr energiyasini hisobga olish asboblari, maishiy iste'molchi, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi, elektr ta'minoti korxonasi, qiyoslashdan o'tkazish ishlari.

Zamonaviy pedagogik texnologik elementlaridan, masalan interaktiv metodni qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

Respublikada maishiy iste'molchilarning elektr energiyasini hisobga olish asboblari qiyoslashdan o'tkazish tartibi elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi va O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining qo'shma qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 1-dekabrda 2736-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan xujjatga muvofiq olib boriladi.

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maishiy iste'molchi (iste'molchi) — hududiy elektr tarmoqlari korxonasi (bosh ishonchnoma asosida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi nomidan shartnoma tuzuvchi elektr ta'minoti korxonasi) bilan elektr ta'minoti shartnomasini tuzgan va elektrenergiyasidan maishiy ehtiyojlar uchun foydalanadigan jismoniy shaxs;

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi — viloyat, shahar, iqtisodiy zona (sanoat zonasi) doirasida elektr ta'minoti shartnomasi asosida iste'molchilarga elektrenergiyasini taqsimlash va sotish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs;

elektr ta'minoti korxonasi — hududiy elektr tarmoqlari korxonasining tuman, shahar, iqtisodiy zona (sanoat zonasi) doirasida elektrenergiyasini taqsimlash va sotishni amalga oshiruvchi bo'linmasi;

qiyoslashdan o'tkazish ishlari — elektr ta'minoti korxonasi tomonidan iste'molchining hisobga olish asbobini yechib olish (demontaj qilish), uni qiyoslashdan o'tkazish, qiyoslashdan o'tgan hisobga olish asbobini iste'molchiga etkazib berish, hisobga olish asbobini joyiga o'rnatish (montaj qilish) bo'yicha bajariladigan ishlar (xizmatlar) majmui.

Iste'molchilar tomonidan foydalanilayotgan O'zbekiston Respublikasi O'lchov vositalari davlat reestriga kiritilgan hisobga olish asboblari belgilangan tartibda qiyoslashdan o'tkazilishi shart.

Iste'molchilar tomonidan foydalanilayotgan hisobga olish asboblari:

davriy qiyoslashdan — hisobga olish asboblarini qiyoslashlararo interval muddati tugaganda;

navbatdan tashqari qiyoslashdan — hisobga olish asboblarining qiyoslashdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi plombasi shikastlanganda yoki qayta sozlash ishlarini o'tkazish zarurati vujudga kelganda;

ekspert qiyoslashdan — hisobga olish asboblarining sozligi yoki ularning qo'llashga yaroqliligi, metrologik tavsiflari bo'yicha munozarali savollar tug'ilganda o'tkaziladi.

Hisobga olish asboblarining qiyoslashlararo interval muddati to'rt yilni tashkil qiladi.

Elektr ta'minoti korxonasi o'zining ma'lumotlar bazasi orqali har bir hisobga olish asbobining qiyoslashlararo interval muddati o'tishini kuzatib boradi va davriy qiyoslashdan o'tkazishning o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Hisobga olish asbobini navbatdan tashqari qiyoslashdan o'tkazish elektr ta'minoti korxonasi tashabbusi bilan o'tkazilganda, qiyoslashdan o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan amalga oshiriladi, Nizomning 34-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Hisobga olish asbobi ekspert tekshiruvidan surishtiruv, tergov, prokuratura organlari yoxud sudning qaroriga (ajrimiga) asosan o'tkazilishi mumkin.

2. HISOBGA OLIISH ASBOBLARINI DAVRIY QIYOSLASHDAN O'TKAZISH ISHLARINI TASHKIL QILISH

Hisobga olish asboblarini davriy qiyoslashdan o'tkazish ishlari elektr ta'minoti korxonasi tomonidan tashkil etiladi. Bunda kelgusi yil uchun hisobga olish asboblarini qiyoslashdan o'tkazish ishlari bo'yicha reja-jadval ishlab chiqiladi va har yili 20 dekabrga qadar hududiy elektr tarmoqlari korxonasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Hisobga olish asbobining qiyoslashlararo interval muddati tugashidan kamida bir oy oldin elektr ta'minoti korxonasi tomonidan iste'molchiga imzo qo'ydirgan holda xabarnoma taqdim etiladi. Xabarnoma ikki nusxada tuziladi. Uning bir nusxasi iste'molchiga beriladi, iste'molchi tomonidan imzolangan ikkinchi nusxasi esa, elektr ta'minoti korxonasida qoldiriladi.

Xabarnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

hisobga olish asbobining qiyoslashlararo interval muddati tugaydigan vaqt;

hisobga olish asbobini qiyoslashdan o'tkazish uchun belgilangan tarif bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summa;

hisobga olish asbobini yechib olish uchun elektr ta'minoti korxonasi xodimi boradigan kun;

xabarnoma borayotgan elektr ta'minoti korxonasining rekvizitlari;

boshqa zarur ma'lumotlar.

Xabarnomaga qiyoslashdan o'tkazish uchun belgilangan tarif bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summa ko'rsatilgan to'lov hujjati ilova qilinadi.

Xabarnomani keltirgan shaxs iste'molchini yashash joyida topmasa, xabarnoma u bilan birga ishaydigan katta yoshdagi oila a'zolarining biriga yoki u bilan bir xonadonda istiqomat qiluvchi voyaga yetgan shaxsga, ular ham bo'lmasa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga topshiriladi. Bunday hollarda xabarnomani qabul qilib olgan shaxs uning ikkinchi nusxasida o'zining familiyasi, ismi va otasining ismini, shuningdek xabarnoma yuborilgan iste'molchining kimekanligini (eri yoki xotini, otasi, onasi, o'g'li, qizi va hokazo) ko'rsatishi shart.

Xabarnomani qabul qilib olgan shaxs uni imkoniyat bo'lishi bilan darhol iste'molchiga topshirishi shart.

Iste'molchi vaqtincha biror joyga ketgan bo'lsa, xabarnomani keltirgan shaxs uning ikkinchi nusxasiga iste'molchi qayerga ketganligi va qachon kelishi kutilayotganligi to'g'risida yozib qo'yadi. Bu ma'lumotlar tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Qiyoslashdan o'tkazish uchun to'lov iste'molchi tomonidan qiyoslashdan o'tkazish ishlari boshlangunga qadar amalga oshirilishi lozim.

Kam ta'minlangan iste'molchilar, ularning kam ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjatga asosan, hisobga olish asbobini qiyoslashdan o'tkazish uchun to'lanishi lozim bo'lgan summani 6 oy ichida to'lashi mumkin. Bunda qiyoslashdan o'tkazish uchun to'lov elektr ta'minoti korxonasi va iste'molchi o'rtasida qiyoslashdan o'tkazish ishlarini bajarish bo'yicha tuzilgan shartnomaga asosan qiyoslashdan o'tkazish elektr ta'minoti korxonasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Iste'molchining hisobga olish asbobini yechib olish (demontaj qilish), qiyoslashdan o'tgan hisobga olish asbobini iste'molchiga yetkazib berish, hisobga olish asbobini joyiga o'rnatish (montaj qilish) elektr ta'minoti korxonasining shtatdagi elektr otexnik xodimi (bundan buyon matnda vakolatli xodim deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Qiyoslashdan o'tkazish ishlari hisobga olish asbobi yechib olingandan so'ng 15 kun ichida yakunlanishi lozim.

3. HISOBGA OLIISH ASBOBLARINI DAVRIY QIYOSLASHDAN O‘TKAZISH UCHUN YECHIB OLIISH

Iste'molchi tomonidan qiyoslashdan o'tkazish uchun to'lov amalga oshirilgandan so'ng, uch ish kuni ichida hisobga olish asbobini echib olish uchun elektr ta'minoti korxonasi tomonidan vakolatli xodim yuboriladi.

Vakolatli xodim soat 8.00 dan 20.00 gacha iste'molchining hisobga olish asbobini yechib olish va o'rnatish uchun kelish huquqiga ega. Bunda vakolatli xodim o'z xizmat guvohnomasini iste'molchiga ko'rsatishi lozim.

Hisobga olish asbobini yechib olishda vakolatli xodim iste'molchi ishtirokida hisobga olish asbobi va o'rnatilgan plombalarning butligini tekshirib, hisobga olish asbobi yechib olinganligi haqida uch nusxada dalolatnoma tuzadi. Bunda dalolatnomaning bir nusxasi iste'molchiga beriladi, ikkinchi nusxasi elektr ta'minoti korxonasida qoladi, uchinchi nusxasi esa, davlat metrologiya xizmati organiga taqdim etiladi.

Dalolatnomaning barcha nusxalari vakolatli xodim va iste'molchi tomonidan imzolanadi. Dalolatnomada hisobga olish asbobining turi, zavod raqami, ishlab chiqaruvchining tovar belgisi va uning yechib olingan vaqtdagi ko'rsatkichlari hamda boshqa zarur ma'lumotlar qayd etiladi.

Iste'molchi vakolatli xodim o'z vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlar yaratishi shart.

Elektr ta'minoti korxonasida qiyoslashdan o'tkazilgan hisobga olish asboblarining almashtirish fondi mavjud bo'lganda, iste'molchining hisobga olish asbobi yechib olingandan so'ng, uning o'rniga almashtirish fondidan belgilangan tartibda qiyoslashdan o'tkazilgan hisobga olish asbobi o'rnatiladi hamda belgilangan tartibda sertifikat rasmiylashtirib beriladi.

Elektr ta'minoti korxonasining almashtirish fondi mavjud bo'lmaganda, hisobga olish asbobi yechib olinganidan so'ng, vakolatli xodim qiyoslashdan o'tkazish ishlari davom etadigan davrga iste'molchining elektr qurilmalarini elektr tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri, hisobga olish asbobisiz ulab qo'yadi.

Iste'molchi hisobga olish asbobisiz elektr tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ulangan taqdirda, foydalanilgan elektr energiyasi uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda to'lov amalga oshiriladi.

4. HISOBGA OLIISH ASBOBLARINI DAVRIY QIYOSLASHDAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT METROLOGIYA XIZMATI ORGANIGA TOPSHIRISH

Vakolatli xodim hisobga olish asbobini, u yechib olingandan so'ng uch ish kuni ichida davlat metrologiya xizmati organiga uning yechib olinganligi haqidagi dalolatnoma bilan birgalikda taqdim etadi.

Hisobga olish asbobida ishlab chiqaruvchining tovar belgisi, hisobga olish asbobining turi va zavod raqami aniq bo'lmasa yoki u shikastlangan holatda bo'lsa,

davlat metrologiya xizmati organi uni qiyoslashdan o'tkazish uchun qabul qilishni rad etishga haqli.

Hisobga olish asbobini qabul qilib olgan davlat metrologiya xizmati organi xodimi uning qabul qilganligini tegishli jurnalda qayd etadi.

Hisobga olish asbobini qiyoslashdan o'tkazish uchun qabul qilish rad etilgan taqdirda, bu haqda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi va davlat metrologiya xizmati organi xodimi hamda vakolatli xodim tomonidan imzolanadi. Bunda dalolatnomaning bir nusxasi vakolatli xodimga beriladi, ikkinchisi esa, davlat metrologiya xizmati organida qoladi.

Hisobga olish asbobi qiyoslashdan o'tkazish uchun qabul qilinganda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi bilan davlat metrologiya xizmati organi o'rtasida hisobga olish asboblari qiyoslashdan o'tkazish bo'yicha shartnoma tuziladi.

5. HISOBGA OLIISH ASBOBLARINI DAVRIY QIYOSLASHDAN O'TKAZISH VA TA'MIRLASH

Davlat metrologiya xizmati organi tomonidan hisobga olish asbobi uch ish kuni ichida qiyoslashdan o'tkaziladi.

Qiyoslashdan o'tkazish natijalariga ko'ra hisobga olish asbobi ishlatishga yaroqli deb topilgan taqdirda, davlat metrologiya xizmati organi xodimi hisobga olish asbobi qiyoslashdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi sertifikat rasmiylashtiradi hamda vakolatli xodimga topshiradi.

Hisobga olish asbobining hisoblash mexanizmi va rostlash elementlariga ruxsatsiz aralashuvlarning oldini olish maqsadida hisobga olish asbobining kojuxlari mahkamlangan joy davlat metrologiya xizmati organi tomonidan plombalanadi.

Qiyoslashdan o'tkazish natijalariga ko'ra hisobga olish asbobi keyinchalik foydalanishga yaroqsiz deb topilgan taqdirda, davlat metrologiya xizmati organi xodimi vakolatli xodimga hisobga olish asbobi foydalanishga yaroqsizligi haqida xabarnoma beradi. Xabarnomada hisobga olish asbobining yaroqsiz holga kelish sabablari, shuningdek hisobga olish asbobini ta'mirlash mumkinligi yoki uni ta'mirlash imkoni mavjud emasligi ko'rsatiladi.

Davlat metrologiya xizmati organi xodimi tomonidan berilgan xabarnomaga asosan hisobga olish asbobini ta'mirlash mumkin bo'lsa, vakolatli xodim iste'molchini bu haqda xabardor qiladi va uni shartnoma asosida ta'mirlash tashkilotiga topshiradi.

Hisobga olish asbobi ta'mirlangandan so'ng, u ta'mirlanganligi haqida ikki nusxada dalolatnoma tuziladi va uning bir nusxasi vakolatli xodimga beriladi, ikkinchi nusxasi esa, ta'mirlash tashkilotida qoldiriladi.

Hisobga olish asbobi ta'mirlangandan so'ng, u vakolatli xodim tomonidan qiyoslashdan o'tkazish uchun davlat metrologiya xizmati organiga topshirilishi shart.

Hisobga olish asbobini qayta qiyoslashdan o'tkazish natijasi ijobiy bo'lgan taqdirda, davlat metrologiya xizmati organi xodimi shu kunning o'zida hisobga olish asbobining qiyoslashdan o'tkazilganligi haqida sertifikat rasmiylashtirib, hisobga olish asbobining kojuxlari mahkamlangan joyini plombalaydi.

Hisobga olish asbobi qayta qiyoslashdan o'tkazilganda ham foydalanishga yaroqsiz deb topilgan hollarda, elektr ta'minoti korxonasi tomonidan iste'molchiga belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi O'lchov vositalarining davlat reyestriga kiritilgan va elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi bilan birga ishlay oladigan boshqa hisobga olish asbobi o'rnatib beriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 22 avgustdagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan elektr energiyasidan foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan elektr energiyasini hisobga olish asbobini buzish holatlari iste'molchining aybi bilan sodir etilganda, hisobga olish asbobini almashtirish, qiyoslashdan o'tkazish, ta'mirlash, o'rnatish xarajatlari va ko'rsatilgan xizmatlar haqi iste'molchi tomonidan to'lanadi.

Hisobga olish asbobini ekspert qiyoslashdan o'tkazishda manfaatdor shaxslar yoki ularning vakillari bevosita ishtirok etishlari mumkin.

6. QIYOSLASHDAN O'TKAZILGAN HISOBGA OLIH ASBOBINI JOYIGA O'RNATISH

Vakolatli xodim qiyoslashdan o'tkazilgan hisobga olish asbobini o'rnatib, uning klemmnik qopqog'ini (sxemasini) plombalaydi va iste'molchiga hisobga olish asbobining qiyoslashdan o'tganligi haqidagi sertifikatning asl nusxasini beradi.

Hisobga olish asbobi o'rnatilgandan so'ng, bu haqda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada hisobga olish asbobining turi, zavod raqami, ishlab chiqaruvchining tovar belgisi va uning o'rnatilgan vaqtdagi ko'rsatkichlari hamda boshqa zarur ma'lumotlar qayd etiladi.

Dalolatnoma vakolatli xodim hamda iste'molchi tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaning bir nusxasi iste'molchiga beriladi, ikkinchi nusxasi esa, elektr ta'minoti korxonasida saqlanadi.

7. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. Maishiy iste'molchilarning elektr energiyasini hisobga olish asboblarini qiyoslashdan o'tkazishdan maqsad nima?
2. Hisobga olish asboblarini davriy qiyoslashdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish tartibini izohlang.
3. Hisobga olish asboblarini davriy qiyoslashdan o'tkazish uchun yechib olish tartibini tushuntiring.
4. Hisobga olish asboblarini davriy qiyoslashdan o'tkazish uchun davlat metrologiya xizmati organiga topshirish qoidalarini bilasizmi?
5. Hisobga olish asboblarini davriy qiyoslashdan o'tkazish va ta'mirlash tartibini bilasizmi?
6. Qiyoslashdan o'tkazilgan hisobga olish asbobini joyiga o'rnatish xuquqi berilgan sub'ektni bilasizmi?

4 - AMALIY MASHG'ULOT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASHGA RUXSAT BERILGAN XALQARO BIRLIKLAR TIZIMI (SI) NING NOMI VA BELGILANISHI QOIDALARI (2soat)

Reja:

1. Asosiy qoidalar.
2. O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan xalqaro birliklar tizimini nomi va belgilanish qoidalar.

Tayanch so'zlar: o'lcham birliklari, asosiy o'lcham birliklari, hosila o'lchamlar birliklari,

1. ASOSIY QOIDALAR

“Metrologiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirishni davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 10-yanvar №21 sonli qarorni qabul qildi.

“Metrologiya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasida Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) ning o'lcham birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yilishi;

O'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalarini “O'zstandart” agentligining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lchamlarni qo'llashga yo'l qo'yilishi mumkinligi;

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida kontrakt shartlariga muvofiq o'lchamlarning boshqa birliklari ham ishlatilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilingan.

Asosiy o'lcham birliklari					
T/r	Asosiy o'lchamlar		Asosiy o'lchamlar birliklari		
	nomi	o'lcham ligi	nomi	belgilanishi	ta'rifi
1.	Uzunlik	L	metr	m	metr—yorug'lik 1/299792458 sekund vaqt oralig'ida vakuumda bosib o'tiladigan masofa.
2.	Massa	M	kilo gramm	kg	kilogramm—massa birligi bo'lib xalqaro kilogram prototipining massasiga teng.
3.	Vaqt	T	sekund	s	sekund—seziy-133 atomi asosiy holatining ikki o'ta nozik sathlari orasidagi bir-biriga o'tishiga muvofiq keladigan nurlanishning 9192631770 davri.
4.	Elektr toki (elektr toki kuchi)	I	amper	A	amper—vakuumda bir-biridan 1 metr oraliqda joylashgan, cheksiz uzun, o'ta kichik dumaloq ko'ndalang kesimli ikki parallel to'g'ri chiziqli o'tkazgichlardan tok o'tganda o'tkazgichning har 1 metr uzunligida $2 \cdot 10^{-7}$ nyutonga teng o'zaro ta'sir kuchini hosil qiladigan o'zgarmas tok kuchi.
5.	Termodinamik harorat*	Θ	kelvin	K	kelvin—termodinamik harorat birligi bo'lib, u suvning uchlanma nuqtasi termodinamik haroratining 1/273,16 qismiga teng.
6.	Modda miqdori	N	mol	mol	mol—massasi 0,012 kilogramm bo'lgan uglerod-12 da qancha atom bo'lsa, o'z tarkibiga shuncha elementlarini olgan tizimning modda miqdori.
7.	Yorug'lik kuchi	J	kandela	sd	kandela—berilgan yo'nalishda $540 \cdot 10^{12}$ gers chastotali monoxramatik nurlanishni tarqatuvchi va shu yo'nalishda energetik yorug'lik kuchi 1/683 vatt taqsim steradian.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda, ilmiy-texnik va boshqa nashrlarda, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishda, o'quv, o'quv-metodik va turli ma'lumotlar beradigan yordamchi adabiyotlarda ushbu qaror bilan tasdiqlangan o'lcham birliklari, ularning nomi va belgilanishi qo'llaniladi;

O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lcham birliklari faqat o'lchamning son qiymatini Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) ning o'lcham birliklarida ifodalash imkoni bo'lmagan yoki maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda qo'llanadi.

2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASHGA RUXSAT BERILGAN XALQARO BIRLIKLAR TIZIMINI NOMI VA BELGILANISH QOIDALARI

Hosila o'lchamlar birliklari

T/ r	Hosila o'lchamlar		Hosila o'lchamlar birliklari		
	nomi	o'lchamli ligi	nomi	Belgila nishi	SI o'lcham birliklari orqali ifodalanishi
1.	Maydon	L2	Metr kvadrat	m2	m2
2.	Hajm (sig'im)	L3	Metr kub	m3	m3
3.	Tezlik	LT-1	Metr taqsim sekund	m/s	m/s
4.	Tezlanish	LT-2	Metr taqsim sekund kvadrat	m/s2	m/s2
5.	To'liq son	L-1	Metrning darajasi minus birinchi	m-1	m-1
6.	Solishtirma sig'im	L3M-1	Metr kub taqsim kilogramm	m3/kg	m3/kg
7.	Zichlik	L-3M	Kilogramm taqsim metr kub	kg/m3	kg/m3
8.	Elektr toki zichligi	L-2I	Amper taqsim metr kvadrat	A/m2	A/m2
9.	Magnit maydon kuchlanganligi	L-1I	Amper taqsim metr	A/m	A/m
10.	Komponentning molyar konsentratsiyasi	L-3N	Mol taqsim metr kub	mol/m3	mol/m3
11.	Yorqinlik	L-2J	Kandela	cd/m2	cd/m2

Hosila o'lchamlar birliklari

T/r	Hosila o'lchamlar		Hosila o'lchamlar birliklari		
	nomi	o'lchamli ligi	nomi	Belgila nishi	SI o'lcham birliklari orqali ifodalanishi
			taqsim metr kvadrat		
12.	Yassi burchak	1	radian	rad	$m \cdot m^{-1} = 1$
13.	Fazoviy burchak	1	steradian	sr	$m^2 \cdot m^{-2} = 1$
14.	Kuch	LMT-2	nyuton	N	$m \cdot kg \cdot s^{-2}$
15.	Bosim	L-1MT-2	paskal	Pa	$m^{-1} \cdot kg \cdot s^{-2}$
16.	Kuch momenti	L2MT-2	nyuton-metr	N·m	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2}$
17.	Tekslikdagi kuchlanish	MT-2	nyutontaqsi mmetr	N/m	$kg \cdot s^{-2}$
18.	Dinamik qovushqoqlik	L-1MT-1	paskal-sekunda	Pa·s	$m^{-1} \cdot kg \cdot s^{-1}$
19.	Chastota	T-1	gers	Nz	s-1
20.	Energiya, ish (issiqlik soni)	L2MT-2	joul	J	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2}$
21.	Quvvat	L2MT-3	vatt	W	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3}$
22.	Elektr zaryadi (elektr soni)	TI	kulon	S	s·A
23.	Elektr kuchlanishi (elektrik potentsiallar kuchlanishi, elektr potentsiallar farqi, elektr yurituvchi kuch)	L2MT-3I-1	volt	V	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^{-1}$
24.	Elektr sig'imi	L-2M-1T4I2	farad	F	$m^{-2} \cdot kg^{-1} \cdot s^4 \cdot A^2$
25.	Elektr qarshiligi	L2MT-3I-2	om	Ω	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^{-2}$
26.	Elektr o'tkazuvchanligi	L-2M-1T3I2	simens	S	$m^{-2} \cdot kg^{-1} \cdot s^3 \cdot A^2$
27.	Magnit induksiya oqimi (magnit oqimi)	L2MT-2I-1	veber	Wb	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-1}$
28.	Magnit maydon zichligi (magnit induksiya)	MT-2I-1	tesla	T	$kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-1}$
29.	Elektr siljish	L-2TI	Kulon taqsim metr kvadrat	C/m2	$m^{-2} \cdot s \cdot A$
30.	Elektr zaryad zichligi oralig'i	L-3TI	Kulon taqsim Metr kub	C/m3	$m^{-3} \cdot s \cdot A$
31.	Induktivlik (o'zaro induktivlik)	L2MT-2I-2	genri	N	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-2}$

Hosila o'lchamlar birliklari

T/r	Hosila o'lchamlar		Hosila o'lchamlar birliklari		
	nomi	o'lchamli ligi	nomi	Belgilanishi	SI o'lcham birliklari orqali ifodalanishi
32.	Elektr maydoni kuchlanganligi	LMT-3I-1	Volt taqsim metr	V/m	$m \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot A^{-1}$
33.	Dielektrik o'tkazuvchanlik	L-3M-1T4I2	Farad taqsim metr	F/m	$m^{-3} \cdot kg^{-1} \cdot s^4 \cdot A^2$
34.	Magnit o'tkazuvchanlik	LMT-2I-2	Genri taqsim metr	N/m	$m \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot A^{-2}$
35.	Solishtirma energiya	L2T-2	Joul taqsim kilogramm	J/kg	$m^2 \cdot s^{-2}$
36.	Issiqlik sig'imi tizimlari (entropiya)	L2MT-2Θ-1	Joul taqsim kelvin	J/K	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot K^{-1}$
37.	Solishtirma issiqlik sig'imi, (solishtirma entropiya)	L2T-2Θ-1	Joul taqsim kilogramm-kelvin	J/(kg·K)	$m^2 \cdot s^{-2} \cdot K^{-1}$
38.	Energiya oqimining tekislik zichligi	MT-3	Vatt taqsim metr kvadrat	W/m ²	$kg \cdot s^{-3}$
39.	Issiqlik o'tkazuvchanlik	LMT-3Θ-1	Vatt taqsim metr-kelvin	W/(m·K)	$m \cdot kg \cdot s^{-3} \cdot K^{-1}$
40.	Foton nurlanishining ekspozitsion dozasi (gamma-varentgen nurlanishining ekspozitsion dozasi)	M-1TI	Kulon taqsim kilogramm	C/kg	$kg^{-1} \cdot s \cdot A$
41.	Termodinamik harorat	Θ	Selsiy gradusi	°C	K
42.	Ichki molyar energiya	L2MT-2N-1	Joul taqsim mol	J/mol	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot mol^{-1}$
43.	Katalizator faolligi	NT-1	katal	kat	$mol \cdot s^{-1}$
44.	Molyar issiqlik sig'imi (entropiya)	L2MT-2Θ-1N-1	Joul taqsim mol-kelvin	J/(mol·K)	$m^2 \cdot kg \cdot s^{-2} \cdot K^{-1} \cdot mol^{-1}$
45.	Yorug'lik oqimi	J	lyumen	lm	$cd \cdot sr$
46.	Yoritilganlik	L-2J	lyuks	lx	$m^{-2} \cdot cd \cdot sr$
47.	Radioaktiv manbadagi nuklidlarning aktivligi (radio nuklidning aktivligi)	T-1	bekkerel	Bq	s^{-1}
48.	Ionlovchi nurlanishning yutilgan dozasi	L2T-2	grey	Gy	$m^2 \cdot s^{-2}$
49.	Ionlovchi nurlanishning ekvivalent (effektiv) dozasi	L2T-2	zivert	Sv	$m^2 \cdot s^{-2}$
50.	Dozaning yutilish quvvati	L2T-3	Grey taqsim sekund	Gy/s	$m^2 \cdot s^{-3}$
51.	Burchak tezligi	T-1	Radian taqsim	rad/s	s^{-1}

Hosila o'lchamlar birliklari

T/r	Hosila o'lchamlar		Hosila o'lchamlar birliklari		
	nomi	o'lchamli ligi	nomi	Belgilanishi	SI o'lcham birliklari orqali ifodalanishi
			sekund		
52.	Burchak tezlanishi	T-2	Radian taqsim sekund kvadrat	rad/s ²	s ⁻²
53.	Nurlanish kuchi	L2MT-3	Vatt taqsim steradian	W/sr	m ² ·kg·s ⁻³ ·sr ⁻¹
54.	Energetik yorug'lik	MT-3	Vatt taqsim steradian-metr kvadrat	W/(sr·m ²)	kg·s ⁻³ ·sr ⁻¹

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-yanvardagi 21-son qaroriga

2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lcham birliklari, ularning nomi va belgilanishi

I. Tizimdan tashqari o'lcham birliklari				
T/r	Kattalik nomi	Kattalik birligi		
		nomlanishi	Belgilanishi	SI kattalik birliklari bilan nisbati
1.	Uzunlik	parsek	pc	3,0857·10 ¹⁶ m (taxminan)
		yorug'lik yili	ly	9,4605·10 ¹⁵ m (taxminan)
		Astronomik birlik	ua	1,49598·10 ¹¹ m (taxminan)
		mikron	μ	1·10 ⁻⁶ m
		angstrem	Å	1·10 ⁻¹⁰ m
		iks-birlik	X	1,00206·10 ⁻¹³ m (taxminan)
2.	Maydon	gektar	ha	1·10 ⁴ m ²
		ar	a	100 m ²
		barn	b	1·10 ⁻²⁸ m ²
3.	Massa	tonna	t	1·10 ³ kg
		sentner	q	100 kg
		Metrik karat	car	2·10 ⁻⁴ kg

I. Tizimdan tashqari o'lcham birliklari				
T/r	Kattalik nomi	Kattalik birligi		
		nomlanishi	Belgilanishi	SI kattalik birliklari bilan nisbati
		Massaning atom birligi	u	$1,6605402 \cdot 10^{-27} \text{kg}$ (taxminan)
4.	Kuch (og'irlik)	tonna-kuch	tf	9806,65 N (aniq)
		kilogramm-kuch	kgf	9,80665 N (aniq)
		kilopond	kp	9,80665 N (aniq)
		gramm-kuch	gf	$9,80665 \cdot 10^{-3} \text{ N}$ (aniq)
		pond	p	$9,80665 \cdot 10^{-3} \text{ N}$ (aniq)
		dina	dyn	$1 \cdot 10^{-5} \text{ N}$
5.	Bosim	bar	bar	$1 \cdot 10^5 \text{ Pa}$
		Kilogram kuch taqsim sanitimetr kvadrat	kgf/cm ²	98066,5 Pa (aniq)
		Kilopond taqsim sanitimetr kvadrat	kp/cm ²	98066,5 Pa (aniq)
		Millimetr simob ustuni	mm Ng	133,322 Pa
		torr	Torr	133,322Pa
		Millimetr suv ustuni	mmN ₂ O	9,80665Pa (aniq)
6.	Hajm (sig'im)	litr	l	$1 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3$
7.	Vaqt	Ming yillik	-	$3,1536 \cdot 10^{10} \text{ s}$
		asr	-	$3,1536 \cdot 10^9 \text{ s}$
		yil	-	$2,592 \cdot 10^6 \text{ s}$
		oy	-	$6,048 \cdot 10^5 \text{ s}$
		hafta	-	$6,048 \cdot 10^5 \text{ s}$
		sutka	d	86400 s
		soat	h	3600 s
		minut	min	60 s
8.	Yassi burchak	Grad (gon)	gon	$\frac{(\pi/200)}{\text{rad}} = 1,57080 \dots \cdot 10^{-2} \text{ rad}$
		gradus	$\dots^\circ$	$\frac{(\pi/180)}{\text{rad}} = 1,745329 \dots \cdot 10^{-2} \text{ rad}$
		minut	$\dots'$	$\frac{(\pi/10800)}{\text{rad}} = 2,908882 \dots \cdot 10^{-4} \text{ rad}$
		sekund	$\dots''$	$\frac{(\pi/648000)}{\text{rad}} = 4,848137 \dots \cdot 10^{-6} \text{ rad}$

I. Tizimdan tashqari o'lcham birliklari				
T/r	Kattalik nomi	Kattalik birligi		
		nomlanishi	Belgilanishi	SI kattalik birliklari bilan nisbati
9.	Fazoviy burchak	Gradus kvadrat	°	$3,0462 \dots 10^{-4}$ sr
10.	Chiziqli zichlik	teks	tex	$1 \cdot 10^{-6}$ kg/m (aniq)
11.	Aylanish chastotasi	Sekundiga aylanishlar soni minutdagi aylanishlar soni	r/s r/min	1 s^{-1} $1/60 \text{ s}^{-1} = 0,016(6) \text{ s}^{-1}$
12.	Optik kuch	dioptriya	dptr	$1 \cdot \text{m}^{-1}$
13.	Energiya	kilovatt-soat	kW·h	$3,6 \cdot 10^6$ J
		Elektron volt	eV	$1,60218 \cdot 10^{-19}$ J (taxminan)
14.	To'liq quvvat	volt-amper	V·A	-
15.	Reaktiv quvvat	var	var	-
16.	Elektr zaryadi, elektr miqdori	amper-soat	A·h	$3,6 \cdot 10^3$ C
17.	Kuchlanish (mexanikaviy)	Kilogramm kuch taqsim millimeter kvadrat	kgf/mm ²	$9,80665 \cdot 10^6$ Pa (aniq)
		Kilopond taqsim millimetr kvadrat	kp/mm ²	$9,80665 \cdot 10^6$ Pa (aniq)
18.	Ish, energiya	erg	erg	$1 \cdot 10^{-7}$ J
19.	Quvvat	Ot kuchi (metrik)	h.f.	735,49875 W (aniq)
20.	Dinamik zichlik	puaz	P	0,1 Pa·s
21.	Kinematik zichlik	stoks	St	$1 \cdot 10^{-4}$ m ² /s
22.	Solishtirma elektr qarshiligi	Om millimeter kvadrat taqsim metr	$\Omega \cdot \text{mm}^2/\text{m}$	$1 \cdot 10^{-6} \Omega \cdot \text{m}$
23.	Magnit oqimi	maksvell	Mx	$1 \cdot 10^{-8}$ Wb
24.	Magnit induktivligi	gauss	Gs	$1 \cdot 10^{-4}$ T
25.	Magnit yurituvchi kuch (magnit potentsiallar farqi)	gilbert	Gb	$(10/4\pi)$ $A = 0,7957747$ A
		Amper o'ram	At	1A
26.	Magnit maydonining kuchlanganligi	ersted	Oe	$(103/4\pi)$ $A/\text{m} = 79,5775$ A/m
27.	Issiqlik miqdori, termodinamik potensial (ichki energiya, entalpiya, izoxor-izotermik)	Kaloriya (xalqaro)	cal	4,1868 J (aniq)
		Termokimyoviy kaloriya	calth	4,1840 J (taxminan)
		15-gradusli kaloriya	cal15	4,1855 J (taxminan)
28.	Ionlovchi nurlanishning yutilgan dozasi	rad	rad,rd	0,01 Gy
29.	Ionlovchi nurlanishning ekvivalent (effektivlik) dozasi	ber	rem	0,01 Sv
30.	Fotonnurlanishining ekspozitsion	rentgen	R	$2,58 \cdot 10^{-4}$ C/kg

I. Tizimdan tashqari o'lcham birliklari				
T/r	Kattalik nomi	Kattalik birligi		
		nomlanishi	Belgilanishi	SI kattalik birliklari bilan nisbati
	dozasi (gamma-varentgen nurlanishining ekspozitsion dozasi)			(aniq)
31.	Radioaktiv manbadagi nuklidning aktivligi (radionuklid aktivligi)	kyuri	Ci	$3,70 \cdot 10^{10}$ Bq (aniq)
32.	Burilish burchagi	aylanish	r	$2\pi \text{rad} = 6,28 \text{ rad}$
33.	Ravshanlik	nit	nt	1cd/m^2

Ayrim nisbiy va logarifmik o'lchamlar va ularning birliklari				
T/r	O'lchamlar nomi	O'lchamlar birliklari		
		nomi	belgilanishi	qiymati
1.	Nisbiy kattalik*: foydali ish koeffitsiyenti; Nisbiy cho'zilishi; Nisbiy zichlik; deformatsiya; nisbiy dielektrik va magnit o'tkazuvchanligi (moyilligi); komponentning massaviy (molyar) ulushi va boshqalar.	birlik foiz promille milliondan bir ulush milliarddan bir ulush	1 % ‰ ppm ppb	1 $1 \cdot 10^{-2}$ $1 \cdot 10^{-3}$ $1 \cdot 10^{-6}$ $1 \cdot 10^{-9}$
2.	Logarifmik kattalik**: Tovush bosimining darajasi; kuchayish; Kamayish va boshqalar	bel detsibel	B dB	$1B = \lg(P_2/P_1)$ $P_2 = 10P_1$ bo'lganda, $1B = 2\lg(F_2/F_1)$ $F_2 = \sqrt{10} F_1$ bo'lganda, Bu yerda P_2, P_1 – nomdosh energetik kattaliklar (quvvat, energiya, energiya zichligi va boshqalar); F_2, F_1 – nomdosh “kuch” kattaliklar (kuchlanish, tok, maydon kuchlanganligi va boshqalar) $0,1B$
3.	Logarifmik kattalik** tovush balandligi darajasi	fon	phon	1 phon tovush bosimining darajasi 1d B bo'lgan 1000 Nz chastotali tovush balandligi bilan bir xil bo'lgan tovushning balandlik darajasi

Ayrim nisbiy va logarifmik o'lchamlar va ularning birliklari				
T/r	O'lchamlar nomi	O'lchamlar birliklari		
		nomi	belgilanishi	qiymati
4.	Logarifmik kattalik** chastota oralig'i	oktava dekada	oct dek	$1 \text{ oct} = \log_2(f_2/f_1)$ $f_2/f_1 = 2$ bo'lganda; $1 \text{ dek} = \lg(f_2/f_1)$ $f_2/f_1 = 10$ bo'lganda, bu yerda f_2, f_1 — chastotalar
5.	Natural logarifmik kattalik**: kuchlanish, tok kuchi, maydon kuchlanganligi va boshqalar kamayishi	neper	Np	$1 \text{ Np} = \ln(F_2/F_1)$ $F_2/F_1 = e = 2,718 \dots$ bo'lganda. bu yerda F_1, F_2 — kuchlanish, tokkuchi, maydon kuchlanganligi kabi bir nomdagi kattaliklar, e — natural logarifmlar asosi. $1 \text{ Np} = 0,8686 \dots$ $B = 8,686 \dots \text{ dB}$

Nazorat savollar

1. O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan xalqaro birliklar tizimidagi asosiy birliklarning nomlanishini va belgilanishini keltiring?
2. O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan xalqaro birliklar tizimidagi asosiy birliklar: metr, sekund, kilogrammlarga ta'rif bering?
3. O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat berilgan xalqaro birliklar tizimidagi asosiy birliklar: amper, kelvin, mol, kandelalarga ta'rif bering?

5– AMALIY MASHG'ULOT

O'LCHAM BIRLIKLARINI YOZISH VA QO'LLASH QOIDALARI (2 soat)

Reja:

1. Qo'llash doirasi.
2. Atamalar va ta'riflar.
3. O'lcham birliklarini qo'llash qoidalarini.
4. O'lcham birliklari va ularning belgilarini yozish qoidalarini.

Tayanch soʻzlar: oʻlcham, oʻlcham birligi, kogerent hosila birlik, xalqaro oʻlchamlar tizimi, karrali oʻlcham birligi, asosiy oʻlcham, hosila oʻlcham, hosila oʻlchamlar birligi, oʻlcham birliklari tizimi.

1. QOʻLLASH DOIRASI

Mazkur qoidalar Oʻzbekiston Respublikasida qoʻllashga ruxsat etilgan oʻlcham birliklarini yozish va qoʻllash tartibini belgilaydi.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda ushbu qoida talablari ixtiyoriy hisoblanadi.

2. ATAMALAR VA TAʼRIFLAR

Mazkur qoidalarda quyidagi atamalar va taʼriflar qoʻllanadi:

oʻlcham — obyekt, jism yoki moddaning sifat jihatidan ajratilishi va miqdor jihatidan aniqlanishi mumkin boʻlgan xossasi;

oʻlcham birligi — oʻlchamning, shu oʻlcham birligi deb qabul qilingan va u bilan bir xil boʻlgan oʻlchamlarni miqdor jihatdan ifodalash uchun qoʻllanadigan qayd etilgan qiymati;

kogerent hosila birlik — ushbu oʻlchamlar tizimi uchun va asosiy birliklarning tanlangan toʻplami uchun asosiy birliklarning birga teng proporsionallik koeffitsiyenti bilan darajalarining koʻpaytmasi hisoblangan hosila birlik;

xalqaro oʻlchamlar tizimi — Xalqaro oʻlchamlar tizimiga (keyingi oʻrinlarda SI deb ataladi) asoslangan, oʻlchov va tarozilar bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan va tavsiya etilgan, nomlar va belgilar, shuningdek, old qoʻshimchalar toʻplami va ularning nomlari hamda belgilarini, ularni qoʻllash qoidalarini oʻz ichiga olgan tizim;

karrali oʻlcham birligi — ushbu oʻlcham birligini birdan katta boʻlgan butun songa koʻpaytirish yoʻli bilan olinadigan oʻlcham birligi;

asosiy oʻlcham — ushbu oʻlchamlar tizimi uchun, tizim oʻlchamlaridan hech biri boshqa oʻlchamlar orqali ifodalanishi mumkin boʻlmagan tarzda shartli ravishda tanlangan oʻlchamlardan biri;

asosiy oʻlcham birligi — kelishuvga koʻra asosiy oʻlcham uchun qabul qilingan oʻlcham birligi;

hosila oʻlcham — oʻlchamlar tizimida shu tizimning asosiy oʻlchamlari orqali aniqlangan oʻlcham;

hosila oʻlchamlar birligi — hosila oʻlcham uchun qabul qilingan oʻlcham birligi;

oʻlchamlar tizimi — oʻlchamlarning, shu oʻlchamlarni bogʻlovchi bir-biriga zid boʻlmagan tenglamalar majmui bilan birgalikdagi majmui;

oʻlcham birliklari tizimi — asosiy va hosila oʻlcham birliklarining, ushbu oʻlcham tizimi uchun belgilangan qoidalariga muvofiq aniqlangan karrali va ulushli birliklari bilan birgalikdagi majmui.

3. O'LCAM BIRLIKLARINI QO'LLASH QOIDALARI

SI asosiy o'lcham birliklaridan va SI hosila o'lcham birliklaridan O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat etilgan karrali va ulushli o'lcham birliklari o'nli ko'paytiruvchilar yordamida hosil qilinadi.

Karrali va ulushli o'lcham birliklarini hosil qilish uchun qo'llaniladigan o'nli ko'paytiruvchilar, shuningdek, ularning nomlari va belgilarini hosil qiluvchi old qo'shimchalar mazkur qoidalarga ilovada keltirilgan.

Massaning ulushli tizim birliklarini hosil qilish uchun massa birligi — kilogramm o'rniga massaning ulushli tizim birligi — gramm qo'llaniladi va old qo'shimcha "gramm" so'ziga qo'shiladi. Massaning ulushli birligi — gramm old qo'shimcha qo'shilmasdan qo'llaniladi.

Vaqt o'lchamlarining tizimdan tashqari birliklari: hafta, oy, yil, asr, ming yillik karrali va ulushli birliklarni hosil qilmaydi, ularning nomlari va belgilarida old qo'shimchalar qo'llanilmaydi.

Axborot miqdorining "bayt" karrali birliklarini hosil qilish uchun " 2^{10} ", " 2^{20} " va " 2^{30} " ikkilik ko'paytmalariga mos bo'lgan "Kilo", "Mega", "Giga" old qo'shimchalari qo'llaniladi (1 Kbayt = 1024 bayt, 1 Mbayt = 1024 Kbayt, 1 Gbayt = 1024 Mbayt).

Ikkilik sanoq tartibida axborot miqdorining karrali birliklari nomlari va belgilarini hosil qilish uchun qo'llaniladigan ko'paytma va old qo'shimchalar jadvalda keltirilgan.

1-jadval

T/R	Ikkilik ko'paytiruvchi	Qo'shimcha	
		nomi	belgisi
1.	2^{10}	kibi	Ki
2.	2^{20}	mebi	Mi
3.	2^{30}	gibi	Gi
4.	2^{40}	tebi	Ti
5.	2^{50}	pebi	Pi
6.	2^{60}	eksbi	Ei
7.	2^{70}	zebi	Zi
8.	2^{80}	yobi	Yi

4. O'LCAM BIRLIKLARI VA ULARNING BELGILARINI YOZISH QOIDALARI

O'zbekiston Respublikasida qo'llashga rasmiy ravishda ruxsat etilgan o'lcham birliklarini yozish faqat belgilangan tartibda tasdiqlangan nomlari yoki belgilariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'lcham birliklarining mazkur qoidalarda belgilangan nomlari yoki belgilariga biron-bir belgi yoki qo'shimchalar qo'shilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birlik belgilari to'g'ri shriftda yoziladi. Birlik belgilarida qisqartirish belgisi sifatida nuqta qo'yilmaydi.

O'lcham qiymatlarining yozilishida o'lcham birliklarining harflar yoki maxsus belgilar ("...", "...", "...") bilan ifodalangan belgilari qo'llaniladi.

Yassi burchak o'lcham birligining "gradus", "minut", "sekund" belgilari satr ustida yoziladi.

Sig'im hajmining birligi "litr"ni (harfli belgisi l "el") L belgisi bilan ifodalashga yo'l qo'yiladi.

SI karrali yoki ulushli birliklarining nomlari yoki belgilarini yozishda old qo'shimcha yoki uning belgisi birlik nomi yoki belgisi bilan qo'shib yoziladi.

Bunday birliklar keng tarqalgan holatlarda old qo'shimchani ko'paytmaning ikkinchi ko'paytiruvchisiga yoki maxrajga qo'shishga yo'l qo'yiladi.

Boshlang'ich birlikning nomiga va belgisiga bir vaqtda ikkita yoki undan ko'p old qo'shimcha qo'shilmaydi.

O'lcham birliklarining belgilari o'lchamlarning sonli qiymatlaridan keyin ular bilan bir qatorda (keyingi satrga ko'chirmasdan) joylashtiriladi. O'lcham birligining belgisi oldida turgan, o'zidan egri chiziqli kasrni ifodalaydigan sonli qiymat qavsga olinadi. O'lcham birligining sonli qiymati va belgisi o'rtasida bo'sh joy qoldiriladi.

Misol:

To'g'ri	Noto'g'ri
100 kW	100kW
80 %	80%
20 °S	20°S
(1/60) s ⁻¹	1/60/s ⁻¹

Satr ustida joylashtirilgan yassi burchak o'lcham birliklarining "gradus", "minut", "sekund" belgilari bundan mustasno bo'lib, ular oldida bo'sh joy qoldirilmaydi.

Misol:

To'g'ri	Noto'g'ri
20°	20 °

Sonli o'lcham qiymatida o'nli kasr mavjudligida o'lcham birligining belgisi oxirgi raqamdan keyin ko'rsatiladi. O'lcham birligining sonli qiymati va harfli belgisi o'rtasida bo'sh joy qoldiriladi.

Misol:

To'g'ri	Noto'g'ri
423,06 m	423 m 0,6
5,758°	5°758
5°45'28,8"	5°45'28",8

Chegaraviy og'ishlarga ega bo'lgan o'lcham qiymatlarining ko'rsatilishida o'lcham qiymati va uning chegaraviy og'ishlari qavs ichiga olinadi, o'lcham birliklarining belgilari esa qavsdan tashqarida joylanadi yoki o'lcham birliklarining belgilari sonli o'lcham qiymatidan keyin ham va uning chegaraviy og'ishidan keyin ham qo'yiladi.

Misol:

To'g'ri	Noto'g'ri
(100,0 ± 0,1) kg	100,0 ± 0,1 kg
50 g ± 1 g	50 ± 1 g

Formulalardagi o'lcham belgilariga berilgan tushuntirishlarda birlik belgilarini qo'llashga ruxsat etiladi.

Birlik belgilarini harfli shaklda taqdim etilgan, o'lchamlar o'rtasidagi bog'liqlikni yoki ularning sonli qiymatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydigan formulalar bilan bitta satrda joylashga yo'l qo'yilmaydi.

Misol:

To'g'ri	Noto'g'ri
$v = 3,6 \text{ s/t}$, bu yerda v — tezlik, km/h; s — yo'l, m; t — vaqt, s	$v = 3,6 \text{ s/t km/h}$, bu yerda s — yo'l, m; t — vaqt, s.

Ko'paytmaga kiruvchi birliklarning harfli belgilari o'rta chiziqda ko'paytirish belgilari sifatida nuqtalar bilan ajratiladi. Bu maqsadda "×" belgisidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Misol:

To'g'ri	Noto'g'ri
N·m	N×m
A·m ²	Am ²
Pa·s	Pas

Birliklar nisbatini harf bilan belgilashda bo'lish belgisi sifatida faqat bitta egri yoki gorizontal chiziqdan foydalaniladi. Birlik belgilaridan darajaga (musbat

va manfiy) ko‘tarilgan birlik belgilarining ko‘paytmasi ko‘rinishida foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Agar nisbatga kiruvchi birliklardan bittasi uchun manfiy daraja ko‘rinishidagi (masalan, s^{-1} , m^{-1} , K^{-1} , s^{-1}) belgi o‘rnatilgan bo‘lsa, egri yoki gorizontal chiziqdan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Misol:

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
$W \cdot m^{-2} \cdot K^{-1}$	$W/m^2/K$
W	W
$m^2 \cdot K$	m^2
	K

Egri chiziq qo‘llanganda surat va maxrajdagi birliklar belgisi satrga joylashtiriladi, maxrajdagi birlik belgilarining ko‘paytmasi qavsga olinadi.

Misol:

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
m/s	m/s
$W/(m \cdot K)$	$W/m \cdot K$

Ikki va undan ko‘p birlikdan tashkil topgan hosila birlik ko‘rsatilganda harfli belgilar va birlik nomlarini birga qo‘shib qo‘llashga, ya‘ni ayrim birliklar uchun belgilarni, boshqalari uchun esa — nomlarini ko‘rsatishga ruxsat etilmaydi.

Misol:

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
80 km/h	80 km/soat
bir soatda 80 kilometr	soatiga 80 km

O‘lchamning raqamli qiymatlari diapazoni bir turdagi o‘lcham birliklarida ifodalangan bo‘lsa, o‘lcham birligining belgisi, maxsus belgilar ko‘rinishidagi o‘lchamlar bundan mustasno (“...°”, “...’”, “...’’”), diapazonning oxirgi raqamli qiymatidan keyin ko‘rsatiladi.

Misol:

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1 dan 1000 g gacha	1 g dan 1000 g gacha
110 dan 380 V gacha	110 V dan 380 V gacha
45° dan 90° gacha	45 dan 90° gacha
1' dan 60' gacha	1 dan 60' gacha

Axborot miqdori birligining ikkilik qo'shimchalari katta harfda yoziladi. Axborot birligining xalqaro belgilarini "K", "M", "G" qo'shimchalari bilan ishlatishga yo'l qo'yiladi.

Mazkur qoidalar talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Karrali va ulushli o'lcham birliklarini hosil qilish uchun qo'llanadigan o'nli ko'paytiruvchilar, shuningdek, ularning nomlari va belgilarini hosil qiluvchi old qo'shimchalar

2-jadval

T/r	O'nlik ko'paytiruvchi (koeffitsiyentlar)	Qo'shimchalar	
		Nomi	belgisi
1.	10^{24}	Iota	Y
2.	10^{21}	Zetta	Z
3.	10^{18}	Eksa	E
4.	10^{15}	Peta	P
5.	10^{12}	Tera	T
6.	10^9	Giga	G
7.	10^6	Mega	M
8.	10^3	Kilo	k
9.	10^2	Gekto	h
10.	10^1	Deka	da
11.	10^{-1}	Detsi	d
12.	10^{-2}	Santi	c
13.	10^{-3}	Milli	m
14.	10^{-6}	Mikro	μ
15.	10^{-9}	Nano	n
16.	10^{-12}	Piko	p
17.	10^{-15}	Femto	f
18.	10^{-18}	Atto	a
19.	10^{-21}	Zepto	z
20.	10^{-24}	Iokto	y

Nazorat savollari

1. O'lcham va o'lcham birligi atamalariga ta'rif bering, hamda ularning farqini tushuntirib bering?
2. Kogerent hosila birligi deganda nimani tushunasiz?
3. Karrali va ulushli o'lcham birliklarini qo'llash qoidalariga misollar keltiring.

6 - AMALIY MASHG'ULOT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING STANDARTLASHTIRISH TO'G'RIDAGI QONUNINI TAHLIL QILISH (2 soat)

Reja:

1. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari.
2. Standartlashtirishga doir normativ xujjatlar.
3. Standartlar ustidan davlat nazorati.
4. Xulosa.

Tayanch so'zlar: standart, konsensus, standartlashtirish bo'yicha vakolatli organlar, tabiiy resurslar, tibbiy texnika ashyolari, zararli moddalar, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari, davlat inspektorlari.

Zamonaviy pedagogik texnologik elementlaridan, masalan interaktiv usulni qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. STANDARTLASHTIRISHNING ASOSIY MAQSADLARI

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari:

- mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan buyon matnda «mahsulot» deb yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;
- mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan;
- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;
- barcha turdagi resurslar tejalishiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;
- tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan;
- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan;
- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta'minlashdan;
- o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi.

Standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni: xalq xo'jaligi tarmoqlarida — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi);

qurilish, qurilish industriya sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda — O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;

tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida — O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, shu jumladan tibbiyot uchun mo'ljallangan buyumlar, tibbiy texnika buyumlari, dori vositalari sohasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar mavjudligini aniqlash masalalarida — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

mudofa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga mollik mahsulotlar sohasida — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.

«O'zstandart» agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi standartlashtirish ishlarini bajarishni o'z vakolatlari doirasida boshqa tashkilotlarga topshirishga haqlidir.

Standartlarni tasdiqlagan organlar standartlarga doir tarmoq axborot jamg'armalarini hosil qiladilar va yuritadilar hamda manfaatdor iste'molchilarni xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar, O'zbekiston Respublikasi standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlariga doir axborotlar bilan, shuningdek standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar, texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy axborot davlat klassifikatorlari, standartlashtirish qoidolari, normalari va tavsiflariga oid axborotlar bilan ta'minlaydilar.

Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar.

2. STANDARTLASHTIRISHGA DOIR NORMATIV HUJJATLAR

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- tashkilotning standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Davlat yagona uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalar va normalar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalar va normalarni respublika hududida qo'llash tartibini «O'zstandart» agentligi va davlat boshqaruvining boshqa organlari o'z vakolatlari doirasida belgilaydilar.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

Normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizasiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yiladi.

Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar hamda ularga kiritilgan o'zgartishlar «O'zstandart» agentligi organlarida haq olmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. «O'zstandart» agentligi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning davlat fondiga kiradi.

Mahsulot, atrof-muhit, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki xavfsizligini, texnikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg'alash birligini ta'minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati sub'ektlari rioya etishi uchun majburiydir.

Standartlarda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va yetkazib berish shartnomasiga kiritilgan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Import mahsulot, basharta u O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan texnik reglamentlarning yoki standartlarning majburiy talablar qismiga muvofiqligi tasdiqlanmagan bo'lsa, yetkazib berilishi va belgilangan maqsadda ishlatilishi mumkin emas.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar sertifikatlashtirishni amalga oshirishda rioya etiladigan talablarni, shuningdek ushbu talablarga muvofiqlikni nazorat qilish va sinash usullarini o'z ichiga olishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mahsulotning mazkur turini sertifikatlashtirish tizimida belgilangan qoida va tartiblarga muvofiq qo'llanilishi lozim.

3. STANDARTLAR USTIDAN DAVLAT NAZORATI

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari tomonidan standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirishga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini «O'zstandart» agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va ularning hududiy organlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek boshqa maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Idoraviy bo'ysunuvi va mulk shaklidan qat'i nazar, xo'jalik faoliyati sub'ektlarining, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning mahsuloti, shu jumladan sertifikatlashtirilgan mahsulot (ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida) davlat nazorati ob'ekti hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari davlat nazoratini amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitni yaratishlari shart.

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini:

- standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori;
- standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari;
- standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha davlat inspektorlari amalga oshiradilar.

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat inspektorlari davlat boshqaruv organlarining vakillari hisoblanadilar.

Davlat inspektori:

- xo'jalik faoliyati sub'ektining xizmat va ishlab chiqarish binolariga belgilangan tartibda kirish;
- xo'jalik faoliyati sub'ektidan davlat nazoratini o'tkazish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni olish;
- davlat nazoratini o'tkazishda xo'jalik faoliyati sub'ektining texnika vositalaridan foydalanish va mutaxassislarni jalb etish;
- standartlashtirish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq standartlarning majburiy talablariga muvofiqligini tekshirish uchun mahsulotlarning namunalari hamda nusxalarini tanlab olishni o'tkazish, bunda ishlatib yuborilgan nusxalarning qiymati va sinovlarni (tahlillarni,

o'lchovlarni) o'tkazish xarajatlari tekshirilayotgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarining ishlab chiqarish chiqimlariga kiritiladi;

- mahsulotni yaratish, ishlab chiqarishga tayyorlash, tayyorlash, realizatsiya qilish (yetkazib berish, sotish), undan foydalanish (uni ishlatish), mahsulotni saqlash, tashish va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida, standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish;
- xo'jalik faoliyati sub'ekti tekshiruvdan bo'yin tovlagan taqdirda mahsulotni realizatsiya qilishni man etish huquqiga ega.

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori, standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari bundan tashqari:

- standartlarni buzganlikda aybdor bo'lgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarining mansabdor shaxslariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan ma'muriy jazo chorasini qo'llashda;
- tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki realizatsiya qilishni (yetkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to'xtatib qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berishda;
- standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan import mahsulotni realizatsiya qilishni taqiqlashda mutlaq huquqqa egadir.

Davlat inspektorlarining tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki realizatsiya qilishni (yetkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to'xtatib qo'yish to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarmaganlik uchun xo'jalik faoliyati sub'ektlarining mansabdor shaxslari va yakka tartibdagi tadbirkorlar ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Davlat inspektorlari zimmlariga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, davlat yoki tijorat sirini oshkor qilgan taqdirlarida qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Ushbu qonun qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlat boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

4. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. Ushbu qonun qabul qilinishidan maqsad nima edi?
2. Respublikada standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni qaysi qo'mita va tashkilotlar amalga oshiradi?
3. Ushbu qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha milliy organ funksiyasini qaysi tashkilotga yuklatilgan?
4. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilangan?
5. Normativ hujjatlarning qanday toifalari bor va ularga qanday talablar qo'yiladi?

7 - AMALIY MASHG'ULOT

STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISH, TASDIQLASH VA TADBIQ ETISH TARTIB-QOIDALARI

Reja:

1. Standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va tadbiq etish tartib-qoidolari.
2. Standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish.
3. Standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.
4. Xulosa.

Tayanch so'zlar: standart loyihasi, texnik qo'mita, ishchi guruh, tayanch tashkilotlar, ishlab chiquvchi tashkilot.

Zamonaviy pedagogik texnologik elementlaridan, masalan interaktiv metodini qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISH, TASDIQLASH VA TADBIQ ETISH TARTIB-QOIDALARI

O'zDSt 1.1-92 "O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasining standartini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi" to'g'risidagi standartga binoan O'zbekiston Respublikasi standarti (bundan keyin - standart deb yuritiladi) standartlashtirish bo'yicha texnikaviy qo'mitalar (bundan keyin TQ), standartlashtirish bo'yicha tayanch tashkilotlar, vazirliklar, idoralar, uyushmalar,

konsernlar, qo'shma korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi.

Standartni ishlab chiqishga har xil tashkilot mutaxassislarining ishchi guruhlari ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi.

Standartning bir nechta tashkilot tomonidan ishlab chiqilishida yetakchi ishlab chiquvchi tashkilot (ijrochilar ro'yxatida birinchi o'rinda turadi) hamkorlikda ish bajaruvchi har bir tashkilot bilan ish ko'lamini va muddatlarini aniqlaydi.

Standart respublika hududida kimga qarashli ekanligi va mulk shaklidan qat'iy nazar, standart ishlab chiqilgan tashkilotlarni chiqaradigan va iste'mol qiladigan hamma korxona va tashkilotlar uchun majburiydir.

Standartga kiritiladigan o'zgarish asosiy standart uchun belgilangan tartibda majburiy kelishib olinishi, tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Standartlarning tuzilishi, mazmuni, bayon etilishi va rasmiylashtirilishi O'zDSt 1.6 ga muvofiq bajariladi.

Standartlarni ishlab chiqish tartibi.

Standartni ishlab chiqishda tashkiliy-usuliy birlikka erishish maqsadida hamda standartni ishlab chiqish bosqichlari bajarilishini nazorat qilish uchun 4 bosqich joriy etiladi.

1-bosqich - zaruriyat tug'ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

2-bosqich - standart loyihasini ishlab chiqish (birinchi tahriri) va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish;

3-bosqich - fikr - mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini (oxirgi tahririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish;

4-bosqich - standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini bir-biri bilan qo'shib olib borishga yo'l qo'yiladi.

2. STANDART LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH (BIRINCHI TAHRIRI) VA UNI FIKR-MULOHAZALAR OLISH UCHUN YUBORISH

Standart loyihasi TQ ish rejasiga, tasdiqlangan standartlashtirish jadvaliga, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasiga, manfaatdor tashkilotlar taklifi va ishlab chiquvchi korxonalarning tashabbusiga binoan ishlab chiqiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish xati ham tuziladi va lozim topilsa, standartni joriy qilish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasining loyihasi ishlab chiqiladi (keyinchalik - asosiy tadbirlar rejasining loyihasi deb yuritiladi).

Standart loyihasi tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasi loyihasi bilan birgalikda ko'paytiriladi va ro'yxat bo'yicha hamma manfaatdor tashkilotlarga fikr-mulohazalar olish uchun yuboriladi.

Standart loyihasi korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini tuzib, standartni ishlab chiquvchi tashkilotga qabul qilgan kundan boshlab 15 kun ichida, kechiktirmasdan yuboradilar.

Fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasini ishlab chiqish (so'nggi tahriri), kelishish va uni tasdiqlashga taqdim etish.

Korxona va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyihasi bo'yicha fikr-mulohazalar qayta ishlanib, ular asosida fikr-mulohazalar majmui tuziladi.

Yetakchi ishlab chiquvchi tashkilot tuzilgan fikr-mulohazalar majmuiga binoan standart loyihasining so'nggi tahririni ishlab chiqadi hamda tushuntirish xatini va asosiy tadbirlar rejasining loyihasini aniqlaydi.

Ishlab chiquvchi tashkilot bilan boshqa manfaatdor tashkilotlar orasida standart loyihasi yoki asosiy tadbirlar rejasi loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar bo'lsa, etakchi ishlab chiquvchi tashkilot kelishmovchiliklarni muhokama qilish uchun kengash o'tkazadi.

Kengashga ko'rib chiqilgan standart loyihasi bo'yicha va qaror qabul qilish vakolati berilgan asosiy manfaatdor tashkilotlarning va buyurtmachilar (asosiy iste'molchilar) ning vakillari taklif etiladi. Ushbu kengashda ko'rib chiqilayotgan masalalarning har taraflama muhokama qilinishi va bu masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash lozim bo'ladi.

Yetakchi ishlab chiquvchi tashkilot kengash qatnashchilariga munozarali masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar majmuidan ko'chirmalar yuboradi. Kengash taklifnomalarini uning qatnashchilariga kengash boshlanishiga kamida 10 kun qolganda oladigan qilib yuboriladi.


Kengash qarori uning qatnashchilari imzo chekkan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada yoki unga ilova qilingan alohida ro'yxatda kengash ishtirokchisining har birini familiyasini, ismi, otasining ismi va mansabi (tashkilotning nomini qo'shib) ko'rsatiladi.

Kengashda qabul qilingan qarorga binoan, standart loyihasining so'nggi tahriri tuziladi hamda tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasining loyihasi aniqlanadi. Bundan tashqari, agar standart loyihasida davlat nazorati, kasaba uyushmasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, sog'liqni saqlash vazirligi faoliyati doirasiga taalluqli talablar qo'yilgan bo'lsa, loyiha ushbu idoralar bilan ham kelishib olinishi kerak.

Chet elga chiqariladigan mahsulotlarning standartlari esa GOST 122-85 bo'yicha kelishib olinadi.

Standart loyihasi yuzasidan tashkilotlar o'rtasida davom etayotgan kelishmovchiliklar bo'yicha "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi o'zlariga yuklatilgan faoliyat turlari to'g'risida so'nggi qarorni qabul qiladi.

Standartga o'zgartish kiritilganda, agar u ilgari, kelishib olingan tashkilotlarning manfaatlariga monelik qilmasa, o'zgartish faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishiladi.



1-rasm. Standart loyihasini ishlab chiqish algoritmi.

Standartni bekor qilish yoki joriy etish vaqtini cho'zish bo'yicha faqat buyurtmachi (asosiy iste'molchi) bilan kelishiladi.

Standart loyihasi tasdiqlashga ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan **quyidagicha to'plamda beriladi:**

- ilova xati;
- standart loyihasining so'nggi tahririga tushuntirish xati;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasining 4 ta nusxasi (ulardan ikkitasi birinchi nusxa ko'rinishida bo'lishi shart);
- standart loyihasi kelishilganini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasi;
- standart loyihasi to'g'risida fikr-mulohazalar majmui;
- qolgan kelishmovchiliklar haqida ma'lumotnoma.

3. STANDARTNI TASDIQLASH VA DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH

O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" agentligi, "Davlat arxitektura va qurilish" qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Sog'liqni saqlash

vazirligi nomlari bo'yicha o'zlariga tegishli standartlarning loyihalari va hujjatlarini ko'pi bilan 15 kun mobaynida ko'rib chiqilishini, shuningdek davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" agentligi, "Davlat arxitektura va qurilish" qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi standart loyihalarini ko'rib chiqadi va uni tasdiqlash yoki kam-ko'stini to'ldirib qayta ishlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Xar bir tasdiqlangan standart uni tasdiqlagan tashkilotning qarori bilan tasdiqlanadi va joriy qilinadi.

Standart muddati cheklanmagan yoki muddati cheklangan tarzda tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi standartlarni davlat ro'yxatiga olishni "O'zstandart" agentligi amalga oshiradi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun standart 4 nusxada taqdim etiladi: asl nusxasi, ikkinchi nusxasi va ikkita ular nusxasi.

Standartni davlat ro'yxatidan o'tkazish, muqovalab topshirish lozim. Standart 5 kundan oshmagan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Standartning qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanishidan qat'iy nazar, standartga raqamli belgini "O'zstandart" agentligi beradi.

Belgi o'z navbatida:

Hujjatning ko'rsatkichidan – O'zDSt; ro'yxatning tartib raqamidan va tasdiqlangan yildan iborat bo'ladi.

Masalan, O'zDSt 5.96-93 "Texnik chigit, texnik sharoit", O'zDSt 816:2001 "Tozalangan paxta yog'i" va h.k.

Ro'yxatga oluvchi idora asl nusxa, ikkinchi nusxasi va ikkita ko'chirmaning birinchi betiga o'zining nomini ko'rsatadigan to'rtburchak muhrni bosadi, sana va davlat ro'yxatining nomerini yozib qo'yadi. Ikkinchi nusxa "O'zstandart" agentligida qoladi, asl nusxa va ko'chirmaning ikkinchi nusxasi esa ishlab chiquvchiga qaytariladi.

4. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. Nima sababdan standartlar o'zgartiriladi?
2. Standartlarni ishlab chiqish nechta bosqichdan iborat?
3. Standart loyihasi bo'yicha texnikaviy qo'mitaning funktsiya si nimalardan iborat?
4. Standartlarni belgilash tartibi qanday?

8 - AMALIY MASHG'ULOT

TASHKILOT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISH, KELISHISH, TASDIQLASH VA RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI (2 soat)

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Tashkilot standartlarini ishlab chiqish.
3. Tashkilot standartlarini kelishish.
4. Tashkilot standartini tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.
5. Xulosa.

Tayanch so'zlar: tashkilot standarti, asosiy qoidalar, ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish, belgilash, qo'llash.

Zamonaviy pedagogik texnologik elementlaridan, masalan interaktiv metodini qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakati va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

Tashkilot standartlari mahsulotga, ishlarga, jarayonlarga va/yoki xizmatga ishlab chiqiladi.

Tashkilotda quyidagilar standartlashtirish ob'ektlari bo'lishi mumkin:

- mahsulot (xizmatlar, ishlar va jarayonlar);
- sinovlar, o'lchashlar va/yoki tahlilni o'tkazish usuliyatlari;
- ushbu tashkilot tomonidan qaytadan yaratilayotgan va ishlab chiqarilayotgan mahsulot.

Tashkilot standartlari quyidagilarga ishlab chiqilishi mumkin:

- majburiy talablar belgilangan muvofiq xalqaro standartlar yoki O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari mavjud bo'lmagan, yoki O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari va/yoki davlatlararo standartlarning talablaridan oshadigan talablarni tashkilot standartida o'rnatish holida qaytadan yaratilayotgan va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga (xizmatga, ishlarga va jarayonlarga), sinov usullariga;
- O'z DSt 8.002 bo'yicha davlat metrologik tekshiruv va nazorati tadbiriq etiladigan sohadan tashqarida qo'llaniladigan o'lchashlarni va/yoki sinovlarni bajarish usuliyatlari.

Tashkilot standartlari quyidagilarga zid bo'lmasligi kerak:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga;

- texnik reglamentlarning, davlatlararo standartlarning, shuningdek texnik reglamentlar talablariga rioya qilishga ko‘maklashish uchun ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlarining talablariga;

O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro standartlarning qo‘llanilishini ta'minlovchi O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlariga, shuningdek O‘zbekiston, Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan standartlarga.

Tashkilot standartlarini ishlab chiqish, davlatlararo standartlarning, shuningdek tashkilot tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot tegishli bo‘lgan bir turdagi mahsulotlar guruhiga yoki ko‘rsatiladigan xizmatlarga taaluqli O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlarining talablarini hisobga olib amalga oshiriladi.

Tashkilot standartlarining tuzilishi, ifodalanishi va texnik iqtisodiy asoslanishi va ulardagi ko‘rsatkichlar, normalar, tavsiflar va talablarning fan va texnikaning zamonaviy rivojlanishiga muvofiqligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligiga, ishlab chiquvchi va tashkilot standartlarini tasdiqlagan tashkilot javobgardir.

Tashkilot standartlariga kiritiladigan o‘lchashlarni bajarish usuliyatlari va sinovlar usuliyatlari O‘z DSt 8.016 va /yoki/ O‘z DSt 20.501 da o‘rnatilgan tartibda tashkilotning metrologik xizmati tomonidan attestatsiyalanishi kerak.

2. TASHKILOT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISH

Tashkilot standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash tartibi ushbu standartning qoidalarini hisobga olib tashkilotlar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Tashkilot standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartib- taomillarini o‘rnatishda, standartlar loyihalarini muxokama qilishda tashkilotning keng doiradagi xodimlari erkin qatnashishi va boshqa tashkilotlar vakillari: yetkazib beriladigan mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmatlarning buyurtmachilari va (yoki) iste’molchilari erkin qatnashishi uchun sharoitlar yaratishni ko‘zda tutish maqsadga muvofiqdir.

Tashkilot standartlarini ishlab chiqish tashkilotning o‘zi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo‘yicha TQ, STT yoki shartnoma asosida boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkilot standartlarini ishlab chiqishda quyidagilar belgilanadigan rejani to‘zish tavsiya etiladi:

- standartlashtirish ob’ekti va qo‘llash sohasi;
- standart bo‘limlari va standart tomonidan o‘rnatiladigan asosiy ko‘rsatkichlarning nomlari;
- bajarish muddatlarini ko‘rsatish bilan standartni ishlab chiqish bosqichlari;
- tuzilmali bo‘linmalar va mansabdor shaxslar, shuningdek standart loyixasini kelishish kerak bo‘lgan tashkilotlar va (yoki) korxonalar ro‘yxati.

Tashkilot standartlarini ishlab chiqish uchun rejani tashkilot rahbari (rahbar muovini) tasdiqlaydi.

Tashkilot standartlarining to'zish, mazmuni, bayon etilishi, rasmiylashtirilishi, ularga o'zgartishlar kiritish va ularni bekor qilish - O'z DSt 1.6 va O'z DSt 1.5 bo'yicha.

Tashkilot standarti loyixasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standartni joriy qilish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejasining loyixasi ishlab chiqiladi.

3. TASHKILOT STANDARTLARINI KELISHISH

Qayta ishlab chiqilayotgan, qayta ko'rib chiqilayotgan tashkilot standartlari va ularga o'zgartishlar kelishilishi lozim.

Vakolatlangan organlar - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish davlat qo'mitasi, Mudofaa vazirligi va manfaatdor tashkilotlar layoqatlilikiga tegishli bo'lgan talablarni o'z ichiga olgan tashkilot standartlarining loyihalari tasdiqlanishidan avval ular bilan kelishilishi lozim.

Tashkilot standartining loyhasini barcha kelishuvchi tashkilotlarga bir vaqtda yuborilishi tavsiya etiladi.

4. TASHKILOT STANDARTINI TASDIQLASH VA RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI

Tashkilot standartlarini tashkilot rahbari (rahbar muovini), O'z DSt 1.6 ga muvofiq, kelishuv varog'ida (Axborot ma'lumotlari) "TASDIQLAYMAN" belgisi ostida buyruq (farmoyish) yoki muhrlangan shaxsiy imzo bilan tasdiqlaydi.

Tashkilot standartini tasdiqlashda, zarur bo'lganda, standartni qo'llashga tayyorlash bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar ham tasdiqlanadi.

Tashkilot standartlari va ularga o'zgartishlar, 11.11.2004 yil 1422 - ro'yxat raqami bilan A.V. da ro'yxatdan o'tgan standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar toifalarini "O'zstandart" agentligida tayyorlash va ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi qoidaga muvofiq "O'zstandart" agentligida yoki tashkilot joylashgan joyi bo'yicha uning hududiy organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Tashkilot standartlari va ularga o'zgartirishlarni, ularni tasdiqlash kunidan boshlab 1 oydan kechiktirmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim qilinadi.

Tashkilot standartlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga quyidagi butlikda taqdim etiladi:

- tashkilot standarti davlat tilida va zarur bo'lganda, boshqa tillarda to'rtta nusxada, ularning ikkitasi dastlabki bo'lishi kerak;
- ilova xati;
- uning kelishilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari (xatlar, bayonnomalar va b.);

- belgilangan formatda tashkilot standartining elektron versiyasi;
- O‘z DSt 1064 bo‘yicha mahsulotning katalog varag‘i.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun tashkilot standartlarini broshyuralangan ko‘rinishda taqdim qilinadi. Muqovada standartning belgilanishi va nomlanishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Tashkilot standartini ro‘yxatdan o‘tkazgandan keyin ikkita ekzemplari Normativ hujjatlarning davlat fondiga beriladi, normativ hujjatning asl nusxasi va nusxasining ikkinchi ekzemplari normativ hujjatning asl nusxasining egasiga qaytariladi.

Tashkilot standartiga standartni ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan belgilanish beriladi.

Tashkilot standartining belgilanishi umumiy holda quyidagi tarzda tuziladi:

Ts XXXXXXXXX-XXX:XXXX,

12 3 4

bu yerda:

1 - Ts tashkilot standartining xarfli indeksi;

2 - Korxona va tashkilotlarning umumdavlat tasniflagichi (KTUT) bo‘yicha tashkilotning sakkiz razryadli kodi;

3 - tashkilot standartining tartib raqami;

4 - standart tasdiqlangan yil.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar KTUT kodining o‘rniga tashkilotning ro‘yxatga olish raqamini ko‘rsatadilar.

Tashkilot standartining tasniflash kodi (SUT) O‘z DT 002 Standartlarning umumdavlat tasniflagichi bo‘yicha belgilanadi, shuningdek tashkilot standarti taaluqli bo‘lgan mahsulot (OKP) yoki xizmatning tasniflash kodi (OKU) O‘z DSt 1.6 talablariga muvofiq tashkilot standartining bibliografiya ma’lumotlarida keltiriladi.

Tashkilot standartining talablariga, ushbu standartni tasdiqlagan tashkilotda va uning tuzilmali bo‘linmalarida (korporatsiya yoki idoraga oid qarashli bo‘lgan holda) standartni amalga joriy qilish vaqtidan (sanasidan) boshlab rioya qilinishi lozim.

Agar mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarning (yetkazib beruvchi) ilova yoki ekspluatatsion hujjatlarida yoki shartnomada (kontraktda) ushbu standartlar ko‘rsatib o‘tilgan holat bo‘lsa, tashkilot standartlari mahsulot buyurtmachilari (iste’molchi) tomonidan qo‘llanilishi mumkin. Shartnomada (kontraktda) zarur bo‘lganda, tashkilot standartiga keyingi o‘zgartishlar kiritish xaqida ma’lumotlar olish to‘g‘risidagi nizom nazarda tutiladi.

Mahsulot iste’molchisi, GOST 24297 bo‘yicha kirishdagi nazoratni o‘tkazish uchun sotib olinayotgan mahsulotga tashkilot standartidan foydalanishi mumkin.

5. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan malumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil

qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollar

1. Tashkilot standartini obektlarini sanang?
2. Tashkilot standartini ishlab chiqish tartibini tushuntiring?
3. Tashkilot standartini kelishish va tasdiqlash tartibini izohlang?
4. Tashkilot standartini ro'yxatdan o'tkazish va qo'llash tartibi qanday?

9 – AMALIY MASHG'ULOT

RESPUBLIKADA XALQARO, DAVLATLARARO, MINTAQAVIY STANDARTLARNI VA XORIJIY MAMLAKATLARINING STANDARTLARINI QABUL QILISH VA QO'LLASH TARTIBI

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Xalqaro standartlarni qabul qilish mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarni qabul qilish.
3. Xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish.
5. Standartlarni kelishish va qo'llash tartibi.

Tayanch so'zlar: xalqaro standart, mintaqaviy yoki davlatlararo standart, xorijiy mamlakatning standarti, standartlarni kelishish va qo'llash.

1. UMUMIY QOIDALAR

Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlar standartlarini (keyingi o'rinlarda Standartlar deb ataladi) O'zbekiston Respublikasida qabul qilish va qo'llash tartibini belgilaydi.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Xalqaro standart — standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot doirasida qabul qilingan standart;

Mintaqaviy yoki davlatlararo standart — standartlashtirish sohasida mintaqaviy tashkilot doirasida qabul qilingan standart;

Xorijiy mamlakatning standarti — xorijiy davlatning standartlashtirish bo'yicha vakolatli organi tomonidan qabul qilingan standart;

Manfaatdor tomonlar — standartlarni qabul qilish va (yoki) ularni qo'llashdan manfaatdor bo'lgan mahsulotlarning (xizmatlarning) tegishli turlarini ishlab chiqaruvchi yoki iste'mol qiluvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar.

Standartlarni qabul qilish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi hukumatining topshiriqlarini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan standartlarni qabul qilish bo'yicha rejalar, dasturlar va tadbirlar;
- "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Respublika standartlashtirish yillik dasturi;
- standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarining ish rejalari;
- manfaatdor tomonlarning "O'zstandart" agentligiga buyurtma nomalari (murojaatlari).

Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish ushbu nizomning ilovasidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Standartlarni davlat tiliga tarjima qilish manfaatdor taraf tomonidan ta'minlanadi.

2. XALQARO STANDARTLARNI QABUL QILISH

Xalqaro standartlar O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari shaklida, davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida qabul qilinadi.

Respublikada xalqaro standartlarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari shaklida quyidagicha amalga oshiriladi:

IDT qisqartirma bilan belgilangan, xalqaro standartlar bilan aynan o'xshash;

MOD qisqartirma bilan belgilangan xalqaro standartga nisbatan modifikatsiyalangan;

NEQ qisqartirma bilan belgilangan xalqaro standartlarga nisbatan ekvivalent bo'lmagan.

Xalqaro standartlarni O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari sifatida qabul qilishga tayyorgarlik bo'yicha ish standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari, ular bo'lmagan taqdirda — "O'zstandart" agentligi huzuridagi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institute (keyingi o'rinlarda Institut deb ataladi) tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan xalqaro standartda davlat standarti sifatida qabul qilinmagan standartlarga havolalar mavjud bo'lsa, ularni bir vaqtda qabul qilish ishlari olib borilishi zarur.

Havola qilinadigan xalqaro standartlarni bir vaqtda qabul qilish ishlari olib borilayotganida, birinchi o'rinda, qabul qilinayotgan xalqaro standart bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va uning talablari bajarilishini ta'minlaydigan havola qilinadigan xalqaro standartlarning ahamiyati hisobga olinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi hollarda xalqaro standartlar bilan aynan o'xshash hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi davlat standarti texnik tarkibi, tuzilishi va mazmuni jihatidan aynan o'xshash bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi davlat standarti texnik tarkibi jihatidan aynan o'xshash, biroq, unga tahririy o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Xalqaro standartga aynan o'xshash bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikatsiya raqami titul varoqda aynan o'xshash xalqaro standartning raqami ko'rsatilgan holda saqlab qolinadi.

Masalan: O'zDSt ISO 5524:2017 (ISO 5524:1991, IDT).

O'zbekiston Respublikasi davlat standarti quyidagi shartlar bilan xalqaro standartga nisbatan modifikatsiyalangan hisoblanadi:

identifikatsiyalangan va tushuntirish berilgan texnik og'ishlarni o'z ichiga olgan;

identifikatsiyalangan va tushuntirish berilgan hamda har ikkala standart tuzilmasini oddiy taqqoslash imkonini bo'lsagina o'zgartirish kiritishga ruxsat beriladigan xalqaro standartning (xalqaro hujjatning) tuzilmasini aks ettiradi;

xalqaro standartlarga havolalarni almashtirishi mumkin bo'lgan normativi havolalar shaklida O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari mavjud bo'lmasa — har bir havola o'rniga havola qilinadigan xalqaro standart mazmunini (uning bo'limlari, bo'linmalari, bandlarini, kichik bandlari, ilovalarini) muqobil almashtirishi mumkin bo'lgan qoida keltiriladi;

qo'llaniladigan xalqaro standart matnida aynan o'xshash yoki modifikatsiyalangan davlat standartlari sifatida qabul qilingan boshqa xalqaro standartlarga havolalar bo'lsa — o'zgartirilgan standart loyihasini tayyorlashda xalqaro standartlarga havolalar o'rniga ular bilan uyg'unlashtirilgan davlat standartlariga havolalardan foydalanadi.

Modifikatsiyalangan standart matnida xalqaro standartga havola o'rniga bir xil standartlashtirish obyektiga (mahsulot, jarayon yoki xizmat) tatbiq etiladigan, biroq havola qilinadigan xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilmagan davlat standartiga havola qilishga ruxsat etiladi.

Xalqaro standartga nisbatan modifikatsiyalangan O'zbekiston Respublikasining davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikatsiya raqami titul varoqda aynan o'xshash xalqaro standartning raqami ko'rsatilgan holda saqlab qolinadi.

Masalan: O'zDSt 9227:2015 (ISO 9227:2012, MOD)

O'zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi shartlarda xalqaro standartga nisbatan noekvivalent hisoblanadi:

identifikatsiyalanmagan va ularni kiritish sabablari tushuntirilmagan texnik og'ishlarni o'z ichiga olgan;

identifikatsiyalanmagan va tushuntirilmagan, tuzilmasida xalqaro standart bilan oddiy taqqoslashni ta'minlamaydigan o'zgarishlarga ega;

xalqaro standart talablarining katta bo'lmagan (miqdori va/yoki ahamiyati jihatidan) qismini o'z ichiga olgan.

Xalqaro standartga nisbatan noekvivalent O'zbekiston Respublikasining davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikatsiya raqami tartib raqamiga qo'yilmaydi. Noekvivalent xalqaro standartning raqami titul varoqqa yozib qo'yiladi. Masalan: O'z DSt 3722:2014 (ISO 3290-1:2008, NEQ).

3. MINTAQAVIY YOKI DAVLATLARARO STANDARTLARNI QABUL QILISH

Respublikada mintaqaviy standartlarni qabul qilish standartning identifikatsiya raqamini davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida saqlangan holda bevosita qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zo – mamlakatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengashi doirasida qabul qilinadigan standartlar Davlatlararo kengashning standartlashtirish bo'yicha ishlarni olib borish qoidalariga muvofiq qabul qilinadi.

Agar qabul qilinadigan hududiy yoki davlatlararo standartlarda respublikada qabul qilinmagan boshqa xalqaro, mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarga havolalar bo'lsa, ularni bir vaqtda qabul qilish bo'yicha ishlar olib borilishi kerak.

Xalqaro, mintaqaviy yoki davlatlararo standartlarni bir vaqtning o'zida qabul qilish bo'yicha ish olib borishda, birinchi navbatda qabul qilinayotgan mintaqaviy yoki davlatlararo standart bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va ularning talablari bajarilishini ta'minlaydigan havola qilingan standartlarni qabul qilish muhimligini hisobga olish kerak.

4. XORIJIY MAMLAKATLARNING STANDARTLARINI QABUL QILISH

Respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish standartning identifikatsiya raqamini davlat tilida hamda standartning asli yozilgan tillardan birida to'g'ridan to'g'ri qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha vakolatli organlaridan olingan ushbu mamlakatlarning standartlarini qo'llash to'g'risidagi rozilik respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Qabul qilinayotgan xorijiy mamlakatlar standartida respublikada qabul qilinmagan boshqa standartlarga havolalar mavjud bo'lsa, ularning bir vaqtda qabul qilinishi bo'yicha ishlar olib borilishi kerak.

Havola qilingan standartlarni bir vaqtning o'zida qabul qilish bo'yicha ish olib borishda, birinchi navbatda qabul qilinayotgan xorijiy mamlakatning standarti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va ularning talablari bajarilishini ta'minlaydigan havola qilingan standartlarni qabul qilish muhimligini hisobga olish kerak.

5. STANDARTLARNI KELISHISH VA QO'LLASH TARTIBI

Standartlarni qabul qilish bo'yicha "O'zstandart" Agentligiga ariza tushganidan so'ng, "O'zstandart" Agentligi besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda xorijiy mamlakatlarning standartlarini qo'llash to'g'risida roziligini olish uchun ushbu mamlakatlarning vakolatli organlariga so'rov yuboradi.

Qabul qilinayotgan standartlarni manfaatdor tomonlar bilan kelishish standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari, ular bo'lmagan taqdirda – institut tomonidan amalga oshiriladi.

Qabul qilinayotgan standart manfaatdor tomonlar tomonidan o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqiladi va ushbu standartni respublikada qabul qilishning maqsadga muvofiqligi (maqsadga muvofiq emasligi) bo'yicha takliflar kiritiladi.

Manfaatdor tomonlar tomonidan o'n besh kun mobaynida takliflar kiritilmasa, ushbu standart kelishilgan hisoblanadi.

Kelishish natijalariga ko'ra standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari (ular bo'lmagan taqdirda - institut) besh kun muddatda "O'zstandart" agentligiga ushbu standartni respublikada qabul qilish maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi xulosani taqdim etadi.

Standartlarni O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida "O'zstandart" agentligi tomonidan besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda qaror qabul qilinadi.

Standartlarni O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda "O'zstandart" agentligi manfaatdor tomonlarga asoslangan rad javobini yuboradi.

Standartlar ularni amalga kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch oydan kechikmay kuchga kiradi.

Amaldagi davlat standarti o'rniga standart qabul qilingan taqdirda o'n ikki oydan ko'p bo'lmagan o'tish davri nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan standartlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativi hujjatlarning Davlat fondi tarkibiga kiritiladi.

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Manfaatdor tomon	Standartlarni qabul qilish uchun buyurtmanomani berish	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	“O‘zstandart” agentligi	Xorijiy mamlakat standartlarini qo‘llash to‘g‘risida roziligini olish uchun ushbu mamlakatning vakolatli organlariga so‘rovni yuborish	5 kun davomida
3-bosqich	“O‘zstandart” agentligi	Standartni qabul qilish buyurtmanomasini texnik qo‘mitalariga yoki institutga yuborish	5 kun davomida
4-bosqich	Manfaatdor tomon, standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar, institut	Standartni qabul qilishga (ishlab chiqarish, tarjima qilish, rasmiylashtirish) tayyorlash	Shartnomada kelishilgan muddatlarda
5-bosqich	Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar, instituti	Qabul qilinadigan Standartlarni manfaatdor tomonlar bilan kelishish	15 kun davomida
6-bosqich	Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar, institut	“O‘zstandart” agentligiga standartni respublikada qabul qilish maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi xulosani kiritish	5 kun davomida
7-bosqich	“O‘zstandart” agentligi	Standartni Respublika hududida qo‘llash maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish	5 kun davomida
8-bosqich	“O‘zstandart” agentligi	Standartni qo‘llash haqidagi qaror qabul qilinganda ularni amalga kiritish	uch oydan kechikmay
9-bosqich	“O‘zstandart” agentligi, instituti	Respublika hududida qabul qilingan standart to‘g‘risidagi ma’lumotni rasmiy saytlarda e’lon qilish	5 kun davomida

1 - rasm. Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish sxemasi.

“O‘zstandart” agentligi, qabul qilingan standartlar reyestrini yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan standartlar to‘g‘risidagi ma’lumot “O‘zstandart” agentligi va institutning rasmiy saytlarida qo‘llash haqidagi qaror qabul qilingandan so‘ng 5 kundan kech bo‘lmagan muddatda e’lon qilinadi.

Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari ularni qo‘llash doirasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qo‘llaniladi.

Nazorat savollari

1. Respublikada xalqaro standartlarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari shakllarini sanang.
2. Qaysi hollarda O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi hollarda xalqaro standartlar bilan aynan o‘xshash hisoblanadi?
3. Xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish tartibi.
4. Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilishda qanday sxemalarni bilasiz?

10 – AMALIY MASHG‘ULOT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING—MAHSULOT VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH TO‘G‘RISIDAGI QONUNINI TAHLIL QILISH (2 soat)

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar.
3. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.
4. Nizolarni qarab chiqish, sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.
5. Xulosa

Tayanch so‘zlar: sertifikat, sertifikatlashtirish, ixtiyoriy va majburiy sertifikatlashtirish, muvofiqlik sertifikati.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv usulini qo‘llab dars o‘tiladi.

Darsda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proyektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.
Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni shu jumladan ishlab chiqarish jarayonlarini, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash sohasida xodimlar sifatida ishtirok etishga talabgor mutaxassislarni (matnda bundan keyin «mahsulotlar» deb yuritiladi) sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

Mazkur Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatiladi:

«sertifikatlashtirish milliy tizimi» — davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

«mahsulotlarni sertifikatlashtirish» (matnda bundan keyin «sertifikatlashtirish» deb yuritiladi) — mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

«muvofiqlik sertifikati» — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

«muvofiqlik belgisi» — muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

«mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi» — ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taaluqli sertifikatlashtirish tizimi;

«sifat bo'yicha ekspert-auditor» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakaga ega bo'lgan mutaxassis;

«sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organi» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan sertifikatlashtirish organlarining topshirig'iga ko'ra inspeksiya nazoratini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

«sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati» — sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy takroriy baholash tartib-taomili.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari

Sertifikatlashtirish:

- odamlarning hayoti, sog‘lig‘i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavfli bo‘lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;
- mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta‘minlash;
- mamlakat korxonalari, qo‘shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;
- iste‘molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;
- mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta‘kidlagan sifat ko‘rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo‘ladi.

Basharti, xalqaro shartnoma yoki bitimda sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitimning qoidalari qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda «O‘zstandart» agentligi deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

«O‘zstandart» agentligi mazkur Qonunga muvofiq:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o‘tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to‘g‘risida rasmiy axborotlar e‘lon qilib boradi;
- sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni hukumat muhokamasiga taqdim etadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo‘shilish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek sertifikatlashtirish natijalarini o‘zaro e‘tirof etish to‘g‘risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;
- majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro‘yxatini belgilaydi va uni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig‘iga kiritadi;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning, attestasiyadan o‘tkazilgan sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarning davlat reestrini yuritadi;
- majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik belgilarining amal qilishini to‘xtatib turadi hamda ularni bekor qiladi.

«O‘zstandart» agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini moliyaviy ta‘minlash manbai — O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti

mablag'i, shuningdek «O'zstandart» agentligi ko'rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditasiya qilingan organlar:

- mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta'minlaydilar;
- sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar;
- milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar;
- sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Tegishli sertifikatlashtirish tizimi belgilagan tartibda akkreditasiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) muayyan mahsulotlarning sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshiradilar hamda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun bayonnomalar beradilar.

«O'zstandart» agentligi o'z vazifalarining bir qismini mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) o'tkazishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari

Mahsulotlar, shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar sertifikatlashtirish ob'ektidir.

«O'zstandart» agentligi, akkreditasiya qilingan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, muvofiqlikni baholash faoliyatida ishtirok etadigan xodimlar, shuningdek mahsulotlari sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub'ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub'ektlari — yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari «O'zstandart» agentligi belgilagan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

2. SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATIGA DOIR UMUMIY TALABLAR

Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi

Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangani taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikati beradi, tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'ladi.

Sertifikatlashtirish tizimida foydalaniladigan muvofiqlik sertifikatlarining, namunalari, milliy muvofiqlik belgisining shakllari va hajmlari «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditasiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reestridan o'tkazilishi shart.

Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilmagan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditasiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari haqiqiy emas.

Muvofiqlik sertifikatidan, muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini arizachi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditasiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan akkreditasiya to'g'risidagi guvohnoma asosida sertifikatlashtirish faoliyatini hamda sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahsulotlar sertifikatlashtirilayotganda arizachiga sertifikatni yoki muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi muvofiqlik sertifikatini bergan akkreditasiya qilingan tegishli sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan bitim asosida beriladi.

3. MAHSULOTLARNI MAJBURIY VA IXTIYORIY SERTIFIKATLASHTIRISH

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish «O'zstandart» agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditasiya qilgan holda) yuklatiladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda, «O'zstandart» agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazoratini o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditasiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

- sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;
- sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;
- agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizasiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizasiya qilish man etiladi.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish vaqtidagi majburiyatlari

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizasiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

- majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;
- sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdirdagina realizasiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;
- sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yohud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, realizasiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;
- majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliqsiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;
- sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;
- ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (xaridor, buyurtmachi) e'tiboriga yetkazilishini ta'minlashlari shart.

Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, «O'zstandart» agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning «O‘zstandart» agentligi tomonidan e’tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bojxona yuk deklaratsiyasi bilan birgalikda arizachi (mahsulot yetkazib beruvchi) tomonidan bojxona organlariga taqdim etiladi hamda ushbu hujjatlar mahsulotni tegishli bojxona rejimiga joylashtirish uchun asos bo‘ladi.

Olib kirilayotgan mahsulotning xavfsizligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmagan taqdirda, bojxona organlari uni sertifikatlashtirishdan o‘tkazish to‘g‘risidagi masala hal etilguniga yoki chet el sertifikati milliy sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga muvofiq e’tirof etilmaguniga qadar bunday mahsulotni tegishli bojxona rejimiga joylashtirishga yo‘l qo‘ymaydi, bundan vaqtincha saqlash va bojxona ombori bojxona rejimlari mustasno.

Sertifikatlashtirilishi shart bo‘lgan mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta’minoti

Quyidagi ishlar:

- sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollarini, uni o‘tkazish qoidalarini va tavsiyalarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta’minlash;
- xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o‘tkazish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;
- majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish ishlari davlat tomonidan moliyalashtirilishi kerak.

Majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati

Majburiy sertifikatlashtirish talablariga tayyorlovchilar (tadbirkorlar, sotuvchilar, ijrochilar) tomonidan rioya etilishi ustidan davlat nazoratini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda «O‘zstandart» agentligining davlat inspektorlari amalga oshiradi.

Nazorat yo‘sinidagi tekshiruv

Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki sertifikatlashtirish bo‘yicha inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish

Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni «O'zstandart» agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditasiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari

Sertifikatlashtirish qoidalari va tartibini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlarini akkreditasiya qilingan organlar «O'zstandart» agentligi bilan kelishgan holda belgilaydilar.

4. NIZOLARNI QARAB CHIQISH. SERTIFIKATLASHTIRISH TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Mazkur Qonunni qo'llash bilan bog'liq nizolarni qarab chiqish

Mazkur Qonunni qo'llash bilan bog'liq nizolar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda qarab chiqiladi.

Shikoyatlarni qarab chiqish

Sertifikatlashtirish natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda manfaatdor tomon «O'zstandart» agentligining shikoyatlarni qarab chiqish kengashiga murojaat etishga haqlidir.

Shikoyatlarni qarab chiqish kengashi to'g'risidagi nizomni «O'zstandart» agentligi ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

«O'zstandart» agentligining shikoyatlarni qarab chiqish kengashi sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) qarorlari ustidan berilgan shikoyat arizalarini qarab chiqadi.

Shikoyat arizalari ikki hafta ichida qarab chiqiladi.

«O'zstandart» agentligining, shikoyatlarni qarab chiqish kengashining qarorlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish mumkin.

Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) javobgarligi

Sertifikatlashtirish organi:

- muvofiqlik sertifikatini asossiz va qonunga xilof tarzda berganlik uchun;
- arizachiga nisbatan qonunga xilof xatti-harakatlar qilganlik uchun;
- arizachining tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgar bo'ladi.

Akkreditasiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) sertifikatlashtirish organiga sinovlarning natijalari haqida noto'g'ri ma'lumot berganlik uchun javobgar bo'ladi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) mazkur moddada aytib o‘tilgan xatti-harakatlar natijasida arizachiga yetkazilgan zararning o‘rmini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘la hajmda qoplashlari shart.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun javobgarligi

Tayyorlovchilar (tadbirkorlar) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan sertifikatlashtirilmagan mahsulotni realizasiya qilganlik uchun tayyorlovchining (tadbirkorning) mansabdor shaxslari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor — tayyorlovchilar ma‘muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganligi tayyorlovchilarni (tadbirkorlarni) majburiy sertifikatlashtirishni o‘tkazishdan ozod qilmaydi.

4. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega bo‘lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. Sertifikatlashtirish faoliyatining maqsadi nima?
2. “O‘zstandart” agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi vakolatlarini sanang.
3. Sertifikatlashtirishni qanday turlarini bilasiz?
4. Sertifikatlashtirish qoidalari ustidan nazorat tartibi va javobgarlikning xuquqiy asoslarini izohlang.

11 - AMALIY MASHG‘ULOT

SERTIFIKATLASHTIRISHNI O‘TKAZISH TARTIBI (2 soat)

Reja:

1. Asosiy qoidalar.
2. Sertifikatlashtirishni o‘tkazish tartibi.
3. Xulosa.

Tayanch so‘zlar: sinov, sertifikat, sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish tizimi, majburiy sertifikatlashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish, muvofiqlik sertifikati, inspeksion nazorat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va xokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan taminlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. ASOSIY QOIDALAR

Sertifikatlashtirish mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash shakllaridan biri sifatida butun dunyoda tan olingan. Sertifikatlashtirish uchun sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlariga yagona talablarni belgilagan me'yoriy hujjatlar bor bo'lishi shart.

Atamalar va ta'riflarning birliligi qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunish va sertifikatlashtirish proseduralarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro standart ISO/MEK 2:1996 "Standartlashtirish va yondosh faoliyat turlari. Umumiy lug'at" asosida yaratilgan O'z DSt 5.5:1999 "O'z SMT. Asosiy atamalar va ta'riflar" va sifat menejmenti tizimlari bo'yicha O'z DSt ISO 9000:2002 amalda qo'llanilmoqda.

Sertifikatlashtirish va akkreditlash bo'yicha ishlarni o'tkazishda foydalaniladigan ba'zi atamalar va ularning xos ta'riflari quyida keltirilgan.

Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o'tkazish uchun proseduralar va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Akkreditlash – Prosedura bo'lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi.

Akkreditlash bo'yicha idora – Akkreditlash tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o'tkazuvchi idora.

Inspeksiya tekshiruvi – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini takroriy baholash prosedurasini.

Sertifikatlashtirish tizimi – Muvofiqlikni sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun proseduralar va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Sertifikatlashtirish – prosedura bo'lib, buning vositasida uchinchi tomon mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning topshiriqdagi talablarga muvofiqligini yozma shaklda tasdiqlaydi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora – Sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi idora.

Izoh – sertifikatlashtirish bo'yicha idora muvofiqlikka sinash va tekshirishni o'zi o'tkazishi yoki uning topshirig'i bo'yicha boshqa idoralar tomonidan o'tkaziladigan bunday faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin.

Sinash laboratoriyasi – sinashlarni o'tkazadigan laboratoriya.

Izoh – "Sinash" laboratoriyasi atamasi yuridik yoki texnik idora yoki ikkalasini ifodalovchi ma'no sifatida foydalanilishi mumkin.

Sifat – O‘z tafsilotlari majmuining talablarga muvofiqlik darajasi.

Iste’molchilarning qoniqqanliligi – iste’molchilarning o‘z talablarining bajarilganlik darajasidan mamnun bo‘lganlik hissiyoti.

Sifat menejmenti tizimi – Sifatga nisbatan tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun menejment tizimi.

Sifat sohasidagi siyosat – yuqori rahbariyat tomonidan ifodalangan sifat sohasida tashkilotning umumiy maqsad va faoliyat yo‘nalishi.

Tashkiliy tuzilma – Mas’ullik, vakolatlik va o‘zaro munosabatlarning xodimlar o‘rtasida taqsimlanishi.

Manfaatdor tomon – tashkilotning faoliyatidan yoki yutuqlaridan manfaatdor shaxs yoki guruh.

Jarayon – Kirish va chiqishlarni qayta o‘zgartiruvchi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir etuvchi faoliyat turlarining majmui.

Prosedura – Faoliyatni yoki jarayonni amalga oshirishning o‘rnatilgan usuli.

Kuzatuvchanlik – Kuzatilayotganning tarixi, qo‘llanilishi yoki joylashgan o‘rmini kuzatish imkoni.

Muvofiqlik – Talabni bajarish.

Nomuvofiqlik – Talabni bajarmaslik.

Sifat bo‘yicha rahbariyat – Tashkilot sifat menejmenti tizimini belgilovchi hujjat.

Sinash – O‘rnatilgan proseduraga muvofiq bir yoki bir nechta tafsilotlar (xarakteristikalar) ni aniqlash.

Tahlil – Ko‘rilayotgan ob’ektning yaroqliligi, adekvatligi (aynan bir xilligi), natijaviyligini aniqlash yoki belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Audit – Audit guvohnomasini olish va auditning kelishilgan mezonlarini bajarish darajasini aniqlash maqsadida ularni beg‘araz baholash muntazam, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni.

Audit dasturi – Muayyan vaqt davriga rejalashtirilgan va muayyan maqsadga erishishga yo‘nalitirilgan bir yoki bir nechta auditlar majmui.

Kompetentlik (vakolatlilik) o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llana olish qobiliyati.

O‘zbekistonda sertifikatlashtirish, eng avvalo, iste’mol mollariga nisbatan qo‘llaniladi va ularning xavfsizligi va ekologikligini tasdiqlaydi. Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulot muhim hujjat hisoblangan ro‘yxatga kiritiladi.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi (O‘z SMST) ni yaratishdan maqsad muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun prosedura va boshqarish qoidalarini o‘rnatishdan iborat.

Sertifikatlashtirish tizmining asosiy vazifalari quyidagilar:

- sertifikatlashtirishda qo‘llaniladigan hujjatlarning yagona tizimini o‘rnatish;
- yagona atamalar va ta’riflarni o‘rnatish;
- bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari va tartiblarini o‘rnatish;

- sertifikatlashtirish uchun sinovlarni (sertifikatlashtirish sinovlarini) o'tkazish qoidalarini o'rnatish;
- sertifikatlashtirish ishtirokchilarining davlat boshqaruv idoralari bilan o'zaro hamkorlik tartibini aniqlash.

O'z SMT O'zbekiston Respublikasining qonun va me'yoriy hujjatlariga muvofiq ish ko'radi. O'z SMT da faoliyatning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- sifat va ishlab chiqarishlar tizimlarini sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, xizmatlar, sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksion tekshiruv;
- majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat.

O'z SMT tizimining qoidalarini tan olish sharti bilan sertifikatlashtirishni so'rovchi boshqa davlatlar va tashkilotlar uchun ochiq hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish mahsulot, jarayonlar va xizmatlarning talablarga muvofiqligini tasdiqlashni ta'minlaydi, jumladan:

- davlatlararo standartlarning talablariga;
- O'zbekiston Respublikasi standartlarining va boshqa rasmiy nashr etilgan, mahsulotga talablarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlarning talablariga;
- Xalqaro va xorijiy milliy standartlarning O'zbekiston standartlashtirish Milliy idorasi qo'shilgan sertifikatlashtirish tizimlari doirasidagi talablarga muvofiqligini ta'minlaydi.

O'z SMT mahsulotning majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirilishini o'tkazishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro'yxatga kiritilgan, O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan, import bo'yicha kiritiladigan va eksportga chiqariladigan mahsulotlar majburiy sertifikatlashtiriladi.

Me'yoriy hujjatlarda fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mulkiga xavfsizlikni ta'minlash, atrof muhit muhofazasi, o'zaro almashinuvchanlik va mos keluvchanlik talablari o'rnatilgan mahsulotlar, shuningdek fuqarolarning hayoti va sog'ligi uchun xavfsizlikni ta'minlovchi vositalar ro'yxatga kiritiladi.

2. SERTIFIKATLASHTIRISHNI O'TKAZISH TARTIBI

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun umumiy qoidalar o'rnatiladi. Bunday qoidalar majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishni tashkillashtirish va o'tkazishda qo'llaniladi. Bu qoidalar mamlakatimizda va xorijda tayyorlangan barcha sertifikatlashtirish ob'ektlariga nisbatan tadbiq etiladi.

O'z SMT da mamlakatimiz va xorijiy mahsulotni sertifikatlashtirishni bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar, bular yo'q bo'lganda esa – sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora o'tkazadi.

Sertifikatlarni berish, shu jumladan ishlab chiqarishni tekshirish, sinashlar va inspeksiya tekshiruvi bo'yicha so'rovlarni ko'rib chiqish, hujjatlarni ro'yxatga

olish va zarur materiallarni tarjima qilish xarajatlarini so'rovchi o'rnatilgan tartibda to'laydi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibida sertifikatlashtirish amallarining majmuini tashkil etuvchi harakatlarning navbati o'rnatiladi. Bu tartib va bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish tarzi sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning hujjatlarida uni akkreditlashda o'rnatiladi. Idorada sertifikatlashtiriladigan mahsulotga me'yoriy hujjatlar va sinash metodlari, shuningdek sinashlarni o'tkazish uchun laboratoriyalar mavjud bo'ladi.

Gigienik va veterenariya ekspertizasi, karantin tekshiruvi yoki ekologik sertifikatlashtirish zarur bo'lganda, agar bular so'ralgan mahsulotning me'yoriy hujjatida o'rnatilgan bo'lsa, o'tkaziladi. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish zaruriyatini sertifikatlashtirish bo'yicha idora so'ralgan mahsulotga MH da higienik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablarning mavjudligiga qarab aniqlaydi. Bu tekshiruvlar muvofiqlikni sertifikatlashtirish bilan baravar o'tkazilishi mumkin va tekshiruvchi idoralar tekshiruvlar tugallangach, so'rovchiga mos hujjatlarni taqdim etadi, sertifikat berish to'g'risida qaror qabul qilishgacha bu hujjatlarning nusxalari sertifikatlashtirish bo'yicha idoraga beriladi.

So'rovchi higienik sertifikatni olish uchun sanitariya-epidemiologik stansiyasi SES ga so'rovnoma berganda, bu SES veterinariya hulosasini olishni, agar MH talablariga ko'ra zarur bo'lsa, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarni olish ishlarini ham tashkillashtirishi lozim.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora higienik sertifikatni, veterinariya hulosasini, fitosanitariya yoki ekologik sertifikatlarini olish uchun mos tashkilotlar bilan hamkorlik xizmatlarini ko'rsatishga huquqlidir. Bunda sertifikatlashtirish bo'yicha idora namunalarni tanlab olish va ularni mos davlat idoralariga taqsimlash va so'rovchilarga bunday xizmatlar uchun tariflar to'g'risida xabar berish mas'ulligini o'ziga oladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora so'rovchilarga, bularning talablari bo'yicha, quyidagilar to'g'risida axborot beradi:

- majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulot turlarining ro'yxati;
- bir turli mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalri;
- sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar preyskuranti yoki tarifi;
- tanishish uchun akkreditlash attestati.

Mahsulotni sertifikatlashtirish quyidagi asosiy ishlarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirishga so'rovnoma berish va uni ko'rib chiqish;
- so'ralgan mahsulotga me'yoriy hujjatni va so'rovnomaga qo'shib berilgan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;
- so'rovnoma bo'yicha qaror qabul qilish;
- sinovlar dasturini tayyorlash va tasdiqlash;
- namunalarni identifikatsiya qilish, ajratib olish va laboratoriyaga berish;
- namunalarni akkreditlash laboratoriyalarida sinash;
- mahsulotni ishlab chiqarish holatini baholash;
- natijalarni tahlil qilish va muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilish;

- muvofiqlik sertifikatini berish va muvofiqlikni tasdiqlash belgisini qo‘llanish huquqini berish;
- mahsulotni muvofiqlikni tasdiqlash belgisi bilan tamg‘alash yoki sertifikatlashtirilgan mahsulotni sotishda unga so‘rovchi tomonidan muvofiqlik sertifikatini qo‘shib berish;
- sertifikatlashtirish Davlat reestrda ro‘yxatga olish yo‘li bilan sertifikatlashtirish natijalari to‘g‘risida axborot berish.

Seriyalab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun sertifikatlashtirishning ba’zi sxemalari bo‘yicha sertifikat berilgandan keyin sertifikatlashtirilgan mahsulotni davriy inspeksion tekshiruvdan o‘tkazish ko‘zda tutiladi.

Sertifikatlashtirish prosedurasiga xorijiy yoki xalqaro idoralar bergan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish, shuningdek berilgan appelyasiyalarni ko‘rib chiqish, sertifikatlashtirishga so‘rovnomani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish, mahsulotga me‘yoriy hujjatni tahlil qilish, sinovlar dasturini ishlab chiqish, namunalarni identifikatsiya qilish va ajratib olish, sertifikatlashtirish sinovlarini o‘tkazish, ishlab chiqarish holatini baholash, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish ham kiradi.

Sertifikatlashtirish bo‘yicha faoliyatni xalqaro talablarga mos keltirish munosabati bilan “Muvofiqlikni tasdiqlash” tushunchasi kiritilgan. Bu tushunchaga mahsulotni sertifikatlashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2004 №318 Qaroriga muvofiq 01.10.2004 yildan kiritilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan muvofiqlikni deklaratsiyalash faoliyati kiradi.

3. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega bo‘lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollar

1. Sertifikatlashtirish bo‘yicha bazaviy tushunchalarni izohlang.
2. Sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari faoliyatini tushuntiring.
3. Sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlarini tushuntiring.

12 - AMALIY MASHG'ULOT

SERTIFIKATLASHTIRISH SXEMALARI

(2 soat)

Reja:

1. Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.
2. Sertifikatlashtirish sxemasi.
3. Xulosa.

Tayanch soʻzlar: sertifikat, sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish tizimi, majburiy sertifikatlashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish, muvofiqlik, muvofiqlik bayonoti.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qoʻllab dars oʻtiladi.

Darsda texnik vosita va koʻrgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan taʼminlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun toʻla sharoit yaratiladi.

Sertifikatlashtirish sxemalari

Sertifikatlashtirish deganda mahsulot (buyum, mol) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida oʻtkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, mol) ning sifati haqida isteʼmolchini ishonitiradigan tegishli hujjat – sertifikat beriladi.

Sertifikatlashtirishda ishlatiladigan zarurat amaldan biri «sertifikatlashtirish tizimi» boʻlib, u quyidagicha taʼriflanadi: sertifikatlashtirish tizimi – muvofiqlikni sertifikatlashtirish faoliyatini oʻtkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega boʻlgan tizimdir.

«Sertifikatlashtirish tizimi» atamasidan tashqari sertifikatlashtirish sxemasi kiritilib, uni quyidagicha taʼriflanadi: muvofiqlikning sertifikatlashtirilishini oʻtkazishdagi uchinchi tomon faoliyatining tarkibi va tartibi.

Sertifikatlashtirish tizimlarida qatnashuvchi uchta tushuncha toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtamiz: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi aʼzosi.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish deganda sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq guvohnoma talablariga berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat koʻrsatadigan va tizimni boshqarishda qatnashadigan sertifikatlashtirish idorasi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish ikki xil boʻladi: majburiy va ixtiyoriy. Mahsulotni u yoki bu sertifikatlashga oidligi, uni tashqi muhitga, inson salomatligiga taʼsiri asosiy

mezon hisoblanadi. Shuning uchun tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar, albatta majburiy sertifikatlashtirishga oid bo'ladi, qolgan mahsulotlarning esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriydir.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon, xizmatning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ISO tarkibidagi qo'mita tomonidan tayyorlangan hujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta sxemasi berilgan bo'lib, respublikamizda ham aynan shu 9 ta sxema tadbqiq etilgan:

Hozirgi zamon adabiyotida har bir sertifikatlashtirish sxemasining afzalligi va kamchiliklari tahlil etilgan. Bularning ichida eng mukammal va murakkabi beshinchi sxemadir. Bu sxema to'lik bo'lganligi uchun uni asos qilib olib, hozirgi zamon xalqaro sertifikatlashtirish tizimini yaratilmoqda.

Sertifikatlashtirish tizimlarini boshqaruvchi idora muayyan turdagi mahsulot sifatining nazoratini tashkil etish, standartlarga rioya qilishni majburiy talab etishini, iste'molchi va savdo talablarini e'tiborga olib, mamlakatdagi amalda bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida o'z ishini tashkil etadi.

Sertifikatlashtirish idorasi novlarni o'tkazish, korxonadagi va savdo shahobchasidagi mahsulotning sifatini nazorat qilish hamda nazoratni tashkil qilish va shunga o'xshashlarni bajarib uchinchi tomon vazifasini bajaradi.

1-jadval

Sertifikatlashtirish sxemasi

No	Sxema tartibi	Sertifikatlashtirishni o'tkazish mazmuni
1	I	Birinchi sxema bilan faqat mahsulot namunasi, ularning turlarini mavjud standartlar, texnik shartlar va hokazo talablariga muvofiqligini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkaziladi va uning natijasida mahsulot turiga tegishli sertifikat beriladi. Bu xildagi sertifikatlashtirishda sinovga taqdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanadi, xolos. Bu sxema o'zining soddaligi va ko'p harajat talab qilmasligi tufayli milliy va xalqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarqalgan.
2	II	Bu sxemada mahsulot namunasi tegishli standart, NX va x.k. orqali sertifikatsiyalanib, uning sifati savdo shahobchalaridan vaqti-vaqti bilan olinadigan namunalar asosida nazorat qilib boriladi. Bu usul taqdim etilgan namunalar sifatini baxolash bilan seriyali chiqayotgan mahsulotning sifatini ham baholash imkonini beradi. Bu usulning ijobiy tarafi, taqdim etilgan namuna asosida butun seriya chiqarilgan mahsulot sifati sertifikatlanadi. Uning kamchiligi

		iste'molchiga standart talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlar kirib kelishidir. Bu esa bir necha qiyinchilik va noaniqliklarni keltiradi.
3	III	Bu sxemada mahsulot namunasi tegishli standart, NX bo'yicha muvofiqligi aniqlanib, shu bilan birga qayta-qayta mahsulot sifati iste'molchiga yubormasdan turib omborxonada tekshiruvdan o'tkazib turiladi. Bu sxemadan ko'rinib turibdiki, Tovar savdo shaxobchasiga tushmasdan turib sinov nazorati o'tkaziladi. Standartga nomuvofiqligi aniqlansa, iste'molchiga jo'natish to'xtatiladi.
4	IV	Bu sxemada mahsulot turlarini xuddi 1-3 sxemalardagidek sinovdan o'tkazishga asoslangan bo'lib, shu bilan birga savdo shaxobchasidagi hamda ishlab chiqarishdan olingan namunalarning tekshirish nazorati vaqti-vaqti bilan o'tkazish orqali mahsulotning sifati aniqlangan xolda sertifikatlanadi. Bu xolda mahsulot korxona tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning ma'lum harajatlar sarf bo'lgandan keyin standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanadi. Bu esa ushbu sxemaning kamchiliklaridan hisoblanadi. Shuning uchun bu sxema rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalmagan.
5	V	Beshinchi sxema bo'yicha mahsulot yoki xizmat sertifikatsiyalanayotganda butun bir texnologik jarayon sinovdan o'tkaziladi, hamda ishlab chiqarish bo'yicha sifat ko'rsatkichi aniqlanib, xulosa qabul qilinadi. Ko'rinib turibdiki, korxonadagi mahsulot sifatini ta'minlashda, sifat tizimini baholanishida uning mezonini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ushbu usul sanoati rivojlangan mamlakatlarda, hamda xalqaro standartlashtirish tizimlarida eng ko'p tarqalgan sxemadir. Birinchi-to'rtinchi sxemalarga qaraganda bu sxema eng murakkab va nisbatan qimmatroq, hisoblanib, uning afzalligi iste'molchi uchun maxsulot sifat darajasini yuqori ekanligiga ishonch hosil qiladi, bu esa ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va iste'molchi uchun eng muhim mezondir.
6	VI	Bu sxemada faqat korxonadagi mahsulotning sifatini ta'minlash bilan tizimni baholanishini o'tkazishga mo'ljallangan. Bu usul ayrim vaqtda korxona tayyorlovchini attestatlash deb ham yuritiladi. Bu xil sertifikatlashtirishda faqat korxonaning belgilangan darajadagi mahsulot chiqarish qobiliyati baholanadi.
7	VII	Bu sxemada sertifikatlashtirish uchun har bir partiyadan (to'dadan) namuna olib sinov o'tkaziladi va uning natijasi bo'yicha mahsulotni (to'dani) iste'molchiga yuborish lozimligi aniqlanadi.
8	VIII	Bu sxema oldingi sxemalardan farqli o'laroq, ishlab chiqilgan mahsulotning hammasi (barcha qismlari) sinovdan o'tkaziladi. Bu sxemada ishlab chiqaruvchi uchun katta va qattiqroq talab qo'yiladi, katta mas'uliyattalab qiladi. Bu sxema asosan

		qimmatbaho metallardan va qotishmalardan tayyorlanadigan buyumlar, harbiy texnikalar va boshqa mahsulotlarni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi.
9	IX	Bu sxema mahsulotlarni deklaratsiya muvofiqligi sertifikatini bo'lib, mahsulot haqidagi deklaratsiya hujjatlari bilan birgalikda sertifikatlashtirish tushuniladi.

3. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollar

1. Sertifikatlashtirishning tarixini bilasizmi?
2. Sertifikat nima?
3. Respublikamizda sertifikatlashtirishning eng yuqori rivojlanish davri qaysi vaqtlarga to'g'ri keladi?
4. Sertifikatlashtirishda nechta tomon ishtirok etadi?
5. Respublikamizda nechta sertifikatlashtirish sxemasidan foydalaniladi? Boshqa davlatlardach?

13 – AMALIY MASHG'ULOT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING — TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISHGI QONUNINI TAHLIL QILISH (2 soat)

Reja:

1. Umumiy qoidalar.
2. Davlat organlarining va boshqa organlar hamda tashkilotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari.
3. Texnik reglamentlar.
4. Xulosa.

Tayanch so'zlar: texnik jihatdan tartibga solish, texnik reglament, umumiy texnik reglament, maxsus texnik reglament, savdodagi texnik to'siqlar.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv usulini qo'llab dars o'tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Qonun 2009 yil, 23 aprelda (O'RQ-213-son) qabul qilingan bo'lib, 4 ta bob, 28 ta moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

texnik jihatdan tartibga solish — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash va bajarish;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi — mahsulotning, uni loyihalash, ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), montaj qilish, sozlash, saqlash, tashish, realizasiya qilish va utilizasiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning holati bo'lib, bunda insonning hayotiga, sog'lig'iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmaydi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar — texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar;

texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

umumiy texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

maxsus texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

savdodagi texnik to'siqlar — mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ

hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'siqlar.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;
- atrof muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;
- savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarni chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi;
- texnik reglamentlarni qo'llashning bir xilligi;
- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi;
- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi axborotning ochiqqligi.

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- **texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari** — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari.

2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDAGI VAKOLATLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;
- texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;
- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlaydi;
- umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi:

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;
- umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tuzadi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni o'z vakolati doirasida ekspertizadan o'tkazadi;
- o'z vakolati doirasida: xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;
- mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, mahsulotning namunalarini olish, sinovlari va o'lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ro'yxatini tasdiqlaydi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan o'z vakolati doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va dori vositalarini

ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi shaharsozlik faoliyatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy resurslardan foydalanishda hamda atrof muhitni ifloslanish va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

Ushbu moddaning birinchi uchinchi qismlarida ko'rsatilgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari o'z vakolati doirasida:

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari va umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash yuzasidan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga takliflar kiritadi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi hamda ularni ekspertizadan o'tkazadi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tuzadi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazadi;
- umumiy texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari yuzasidan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga takliflar kiritadi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlarini tuzadi;
- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirishda ishtirok etadi;
- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalarni ekspertizadan o'tkazish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar hamda ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari huzurida tuziladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari umumiy va maxsus texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga o'zgartirish va qo'shimchalarni ishlab chiqish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari huzurida tuziladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlarining faoliyati O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan hamda o'z vakolatlari doirasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan shakllantiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi umumiy va maxsus texnik reglamentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o'zlari tasdiqlagan maxsus texnik reglamentlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondiga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirish va yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3. TEXNIK REGLAMENTLAR

Texnik reglamentlarning turlari

O'zbekiston Respublikasida texnik reglamentlarning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- umumiy texnik reglamentlar;
- maxsus texnik reglamentlar.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablar

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablar quyidagilar bo'yicha belgilanishi mumkin:

- biologik xavfsizlik;
- mexanik xavfsizlik;
- kimyoviy xavfsizlik;
- yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik;
- yong'in xavfsizligi;
- elektr xavfsizligi;
- mashina va uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi;
- elektromagnit mosligi;
- qurilish ishlari xavfsizligi;
- binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- veterinariya xavfsizligi;
- sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi;
- portlash xavfsizligi;
- axborot xavfsizligi;
- o'lchovlarning va sinovlar usullarining bir xilligini ta'minlash.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir boshqa talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Texnik reglamentlarni qabul qilish tartibi

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi olinganidan keyin umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda yuboradi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlar ekspertizadan o‘tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo‘nalishi bo‘yicha topshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o‘z faoliyatining yo‘nalishlari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi asosida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi.

Tasdiqlangan umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran kamida olti oy o‘tgach amalga kiritiladi.

Umumiy va maxsus texnik reglamentlarni e‘lon qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ma‘lumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega bo‘lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi

Nazorat savollari

1. Texnik jihatdan tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
2. Texnik reglament nima va necha turga bo‘linadi?
3. Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunning asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. Texnik reglamentlarda mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligini ta‘minlashga doir qanday talablar o‘rnatilgan?
5. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimining strukturasi tushuntiring.

14 – AMALIY MASHG‘ULOT

MUVOFIQLIKNI BAHOLASH

(2 soat)

Reja:

1. Asosiy tushunchalar.
2. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish.
3. Akkreditasiya.
4. Xulosa.

Tayanch soʻzlar: akkreditasiya, inspeksiya nazorati, inspeksiya organi, muvofiqlikni baholash, deklaratsiya.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qoʻllab dars oʻtiladi.

Darsda texnik vosita va koʻrgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan taʼminlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun toʻla sharoit yaratiladi.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Muvofiqlikni baholash sohasida quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

akkreditasiya — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditasiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

akkreditasiya sohasi — muvofiqlikni baholash organining akkreditasiya chogʻida Milliy akkreditasiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

inspeksiya nazorati — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

inspeksiya organi — yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning va inspeksiya nazoratini oʻtkazish uchun belgilangan tartibda akkreditasiya qilingan yuridik shaxs;

milliy akkreditasiya tizimi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditasiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat koʻrsatuvchi tizim;

muvofiqlikni baholash — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash boʻyicha faoliyat;

muvofiqlikni baholash organlari — yuridik shaxs boʻlgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditasiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

muvofiqlik toʻgʻrisidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlikni tasdiqlash — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditasiya organi yoki muvofiqlikni

baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

xodimlar — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari

Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;
- atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;
- mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;
- muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash;
- ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish;
- savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish.

Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari

Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlikni baholashning yagona qoidalari va tartib-taomillarini qo'llash;
- muvofiqlikni baholash haqidagi axborotning ishonchliligi va ochiqqligi;
- akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlarining xizmatlaridan foydalanishga to'siqlar qo'yishga va ular o'rtasidagi raqobatni cheklashga yo'l qo'ymaslik;
- davlat sirlarining, tijorat sirining va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning saqlanishi;
- akkreditatsiya bo'yicha faoliyatni sertifikatlashtirishga, muvofiqlikni deklaratsiyalashga, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning amalga oshirishga, mahsulot sinoviga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalarini berishga, ekologik ekspertiza o'tkazishga doir faoliyat bilan qo'shib olib borilishga yo'l qo'ymaslik.

Muvofiqlikni baholash ob'ektlari

Muvofiqlikni baholash ob'ektlari quyidagilardan iborat:

- mahsulot;
- ishlab chiqarish jarayonlari;
- xizmatlar;

- menejment tizimlari;
- akkreditasiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar;
- muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislar;
- muvofiqlikni baholash organlari inspeksiya nazoratidan o'tkazilishi chog'ida ushbu organlarning o'zi.

Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish

Muvofiqlikni baholash:

- akkreditasiya qilish;
- sertifikatlashtirish;
- muvofiqlikni deklaratsiyalash;
- inspeksiya nazorati;
- yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya;
- mahsulot sinovi;
- sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza yo'li bilan amalga oshiriladi.

Akkreditasiyani amalga oshirish

Akkreditasiya akkreditasiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Akkreditasiya akkreditasiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarning tahlili va ekspertizasini, olingan dalillarni tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan baholashni o'z ichiga oladi.

Muvofiqlikni deklaratsiyalash

Muvofiqlikni deklaratsiyalash — mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi tomonidan tasdiqlash.

Muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi.

Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullarida mahsulot sinovini o'tkazish zarur ekanligi belgilangan bo'lsa, bunday sinov akkreditasiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi bilan tuzilgan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Inspeksiya nazoratini amalga oshirish

Inspeksiya nazorati Milliy akkreditasiya organi, muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra muvofiqlik sertifikatini yoki akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomani tasdiqlash, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoxud sertifikatni yoki guvohnomani bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinishi mumkin.

Sertifikatlashtirishni, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovini, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalarini yoki ekologik ekspertizani amalga oshirish

Sertifikatlashtirish, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2. MUVOFIQLIKNI BAHOLASH SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- muvofiqlikni baholash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
- O'zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo'lgan muvofiqlikni baholash ob'ektlari ro'yxatini tasdiqlaydi;
- Milliy akkreditasiya organi to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarining O'zbekiston Respublikasida tan olinishi tartibini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining,

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

- muvofiqlikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
- muvofiqlikni baholash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- O'zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo'lgan muvofiqlikni baholash ob'ektlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga doir takliflar ishlab chiqadi;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish zarurligi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;
- muvofiqlikni baholash sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlarining huquqlari

Muvofiqlikni baholash organlari:

- akkreditatsiyaning belgilangan sohasida sertifikatlashtirishni amalga oshirish;
- muvofiqlik sertifikatlari berish;
- o'zi bergan muvofiqlik sertifikatlarining yoki muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazishning amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatib turish yoxud muvofiqlik sertifikatlarini yoki muvofiqlik haqidagi deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazishni bekor qilish;
- akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovini o'tkazish, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash;
- akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarni, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash to'g'risidagi bayonnomalarni berish;
- milliy akkreditasiya tizimi belgisini qo'llash huquqiga ega.

Muvofiqlikni baholash organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlarining majburiyatlari

Muvofiqlikni baholash organlari:

- normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni bajarishi;
- manfaatdor shaxsga sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash, inspeksiya nazorati, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovlari, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qoidalari va tartib-taomili to'g'risida axborot taqdim etishi;
- muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirishi;
- o'zi bergan muvofiqlik sertifikatlarining, mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarning, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash to'g'risidagi bayonnomalarning, shuningdek ro'yxatdan o'tkazilgan muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarning hisobini yuritishi;
- o'zi bergan muvofiqlik sertifikatlari va ro'yxatdan o'tkazilgan muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalar, ularga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to'xtatib turish, shuningdek ularni bekor qilish to'g'risida Milliy sertifikatlashtirish organini xabardor qilishi;
- mahsulot sinovlari, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlashning belgilangan qoidalari hamda tartib-taomillariga rioya etishi;
- mahsulot sinovlari, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash natijalarining to'g'riligini ta'minlashi;
- akkreditasiya bilan bog'liq xarajatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lashi shart.

Muvofiqlikni baholash organlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

3. AKKREDITASIYA

Milliy akkreditasiya organi

Milliy akkreditasiya organi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligidir.

Milliy akkreditasiya organi:

- muvofiqlikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;
- milliy akkreditasiya tizimi tashkil etilishini, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlaydi;
- muvofiqlikni baholash organlarini akkreditasiya qilishni amalga oshiradi va ularga akkreditasiya to'g'risida guvohnoma beradi;
- muvofiqlikni baholash organlari ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;

- belgilangan tartibda akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turadi, tugatadi va ushbu guvohnomani bekor qiladi;
- xalqaro akkreditasiya organlari va xorijiy davlatlarning milliy akkreditasiya organlari bilan akkreditasiya masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi;
- Muvofiqlikni baholash organlarining davlat reestrini yuritadi.

Milliy akkreditasiya organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Akkreditasiya shartlari

Quyidagilarning mavjudligi akkreditasiya shartlaridir:

- akkreditasiya qilinish uchun ariza;
- akkreditasiya qilish so'ralgan sohadagi ishlarni bajarish uchun akkreditasiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- akkreditasiya bilan bog'liq xarajatlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi sifatida akkreditasiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar muvofiqlikni baholash ob'ektlarining ishlab chiqaruvchilari, sotuvchilari, ijro qiluvchilari va iste'molchilariga nisbatan tashkiliy hamda moddiy jihatdan tobe bo'lmasligi kerak.

Qonun hujjatlarida akkreditasiyaning boshqa shartlari ham belgilanishi mumkin.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnoma

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnoma muvofiqlikni baholash organi akkreditasiyaning belgilangan sohasidagi ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning shakli Milliy akkreditasiya organi tomonidan tasdiqlanadi.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnoma besh yil muddatga beriladi.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomadan boshqa shaxsning foydalanishi taqiqlanadi.

Akkreditasiya sohasini o'zgartirish

Akkreditasiya sohasini o'zgartirish to'g'risidagi qaror muvofiqlikni baholash organi akkreditasiya sohasini kengaytirishni yoki qisqartirishni so'rab ariza bergan taqdirda, Milliy akkreditasiya organi tomonidan qabul qilinadi.

Muvofiqlikni baholash organining akkreditasiya sohasini kengaytirish u bilan kelishilgan muddatlarda akkreditasiya qoidalari va tartib-taomillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Akkreditasiya sohasini qisqartirish bo'yicha qaror muvofiqlikni baholash organi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etmagan taqdirda, Milliy akkreditasiya organi tomonidan inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra qabul qilinishi mumkin.

Akkreditasiya sohasini o'zgartirish to'g'risidagi qaror ustidan Milliy akkreditasiya organi to'g'risidagi nizomda belgilanadigan tartibda shikoyat qilinishi yoxud sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish

Inspeksiya nazorati davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan taqdirda, akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilishi mumkin.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish Milliy akkreditasiya organi yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi Milliy akkreditasiya organi tomonidan o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud tomonidan esa, o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turilishi mumkin.

Milliy akkreditasiya organining akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma shaklda yetkaziladi. Sudning akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditasiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqida qaror qabul qilgan Milliy akkreditasiya organi yoki sud mazkur holatlar bartaraf etilganligi haqidagi tasdiqni olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini qayta tiklash haqida qaror qabul qilishi shart.

Milliy akkreditasiya organining akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditasiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko'rgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilganligi va qayta tiklanganligi haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish

Akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

- muvofiqlikni baholash organi akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatishni so'rab ariza bilan murojaat qilganda;
- yuridik shaxs bo'lgan muvofiqlikni baholash organi tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi mustasno;
- muvofiqlikni baholash organi akkreditasiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni Milliy akkreditasiya organi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmaganda;

- muvofiqlikni baholash organi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni muntazam ravishda buzganda yoki bir marta qo‘pol tarzda buzganda;
- Milliy akkreditasiya organining akkreditasiya to‘g‘risida guvohnoma berish haqidagi qarori noqonuniy ekanligi aniqlanganda;
- akkreditasiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilish muddati o‘tganda.

Muvofiqlikni baholash organi Milliy akkreditasiya organining yoki sudning akkreditasiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarorini olgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida akkreditasiya to‘g‘risidagi guvohnoma Milliy akkreditasiya organiga qaytarilishi va yo‘q qilib yuborilishi lozim. Milliy akkreditasiya organining akkreditasiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Akkreditasiya to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditasiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko‘rgan zarar miqdorida javobgar bo‘ladi.

4. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega bo‘lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. “Akkreditasiya” deganda nimani tushunasiz?
2. Muvofiqlikni baholashni asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Muvofiqlikni baholashni davlat tomonidan tartibga solinishini izohlang.
4. Akkreditasiya to‘g‘risidagi guvohnoma qaysi holatlarda to‘xtatib turiladi?

15-AMALIY MASHG‘ULOT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TOVARLARGA SHTRIXLI KODLASHNI JORIY QILISH. SHTRIX KODLASH (2 soat)

Reja:

1. Shtrix kodlash va uning xususiyatlari va qo‘llanilishi.
2. EAN o‘zi nima, kodining tuzilishi.
3. EAN shtrix kodining xuquqiy asoslari.
4. EAN – 13 kodining nazorat raqamlarini xisoblash.

5. Xulosa.

Tayanch soʻzlar: shtrix kod, shtrix kodlash, EAN – 13, EAN – 8, original maket, nazorat soni.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qoʻllab dars oʻtiladi.

Darsda texnik vosita va koʻrgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan taʼminlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun toʻla sharoit yaratiladi.

1. SHTRIX KODLASH, UNING XUSUSIYATLARI VA QOʻLLANILISHI

Shtrix kod – raqamlar, harflar, belgilar toʻgʻrisida kompyuterga tez va aniq informasiya kiritish uchun har xil qalinlikdagi ketma-ket joylashgan shtrixlar va oraliqlar koʻrinishidagi kodlash tizimi boʻlib, u optik tarzda koʻndalang skanerlash yoʻli bilan oʻqiladi.

Shtrix kodlash – maʼlumotlarni avtomatik tarzda yigʻish va identifikatsiya qilish texnologiyasi va u maʼlumotlarni maʼlum bir qoida asosida oʻrnatilgan forma, kattalik, rangda qaytarish qobiliyati, elementlar kombinatsiyasi formalashtirilgan shaklda yozishga asoslangan.

Shtrix kodlar – maʼlumotni tezlikda kiritish usuli. Hattoki oddiy yorugʻlik-nero (svetovogo nera) yordamida shtrix kodlar bir xil informatsiyani qoʻlda kiritishga ketadigan vaqtdan bir necha bor kam vaqtda skanerashtiriladi. Zamonaviy skanerlar maʼlumot kiritish jarayonini bundan ham tezlashtirish qobiliyatiga egadir.


Shtrix kodlashtirishning xatolarining sonini kamaytirishdan tashqari boshqa afzallik tomonlari bor: maʼlumotni tez va kam xarajat bilan yigʻish, aloqaning effektivligi, maʼlumotni izlab topish va saqlash. Bu maʼlumotni koʻproq ishlab chiqarish va aniqligini oshirishda, operatsiyalar grafigi va yetkazib berishni yaxshilaydi, bundan tashqari ishlab chiqarish vaqt sarfini kuch, odam, resurslari, materiallar va pullarni qisqartiradi va tejaydi.

2. SHTRIX KODNING TUZILISHI


Rasmda EAN – 13 isteʼmolchi tovarning shtrix kod simvolikasi keltirilgan (1-rasm).

Maʼlumotni kodlashtirish uchun simvollar, shtrixlar va oraliqlarning maʼlum bir joylashish kengligi ishlatilgan.

Rasmi sonning har bir qismi yoki maʼlumotning har bir turi kodlashtirilishi shtrix kod shaklida yozilishi mumkin (Masalan, buyurtma soni yoki tovar partiyasining soni).



1-rasm. EAN – 13 simvoli



2-rasm. EAN – 8 simvoli



3-rasm. UPC kodlari

Shtrix kodlashni skanerlashtirish kod tagida yozilgan sonni komp'yuterga kiritish bilan bir o'rinda turadi va bu juda muhim. Klaviatura yoki shtrix kodni o'qish bo'yicha qanday bir ma'lumot kiritilmasin, ularning ko'rsatkichi o'zgarmay qolaveradi.

Shtrix kod simvolidagi informasiyani o'qish uchun skanerning nuri shtrix kodga qaratiladi. Dekoder yordamida shtrix kodda kodlashtirilgan ma'lumotni olamiz. Shtrixlar va oraliq ko'rinishida kodlashtirilgan raqamli ma'lumot shtrix kod tagida yoziladi. Bu belgilar bizga tushunarli, chunki ularni odam tomonidan o'qilsa bo'ladi.

Shtrix kodlar aniq tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, shtrix kodni o'qishda aniqlangan xatoliklar 1000 dan 1 % kam. Testlar shuni ko'rsatadiki, shtrix kod ko'rinishidagi kodlashtirilgan informasiyaning aniqligi 10000000 belgiga bitta xatolikni tashkil qiladi.

3. SHTRIX KODLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Shtrix kodlashning huquqiy asoslari bo'lib, 1999 yilda O'zbekiston Respublikasida shtrix kodlashni kiritish bo'yicha ikkita qaror qabul qilingan:

1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi farmoyishi 21 aprel 1999 yil № 188 «O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan mahsulotlarni shtrix kodlash va sertifikatsiyaga tayyorlash to'g'risidagi choralar», tovarlarni sertifikatsiyaga tayyorlash va mahsulotlarni shtrix kodlash bo'yicha kompleks tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

Tadbirlar rejasi quyidagilarni belgilagan.

- Ekspertga ishlab chiqilgan tovarlarni shtrix kodlash bo'yicha ishlarni tugatish;

- O'zbekiston Respublikasi xududida shtrix kodlash tizimini ishlatilishini ta'minlash uchun kerak bo'lgan me'yoriy xujjatlar, metodik qo'llanmalar komplektini ishlab chiqish;

- O'zstandart agentligi xuzuridagi SMSITI ning markazida shtrix kodlar original – maketlarini ishlab chiqish bo'yicha markazni tashkil etish va uni kerakli uskunalar bilan butlash;

- «O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan mahsulot, tovarlarni majburiy shtrix kodlash to'g'risidagi» o'rnatilgan tartibda kelishilgan formoyish loyixasini tayyorlash va vazirlar mahkamasiga kiritish;

“O'zstandart” agentligi buyrug'iga asosan SMSITI da shtrix kodlash markazi tashkil etildi va uning nizomi tasdiqlandi. SMSITI da 1999 yil aprel oyidan boshlab shtrix kodlash markazi o'z faoliyatini boshlagan va u kerakli uskuna va programmalar bilan taminlangan. Shtrix kodlash tizimi faoliyat ko'rsatishi uchun o'rnatilgan muddatlarda kerakli me'yoriy xujjatlar ishlab chiqilgan.

2) O'zbekiston mahsulotlari ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot ishlab chiqaruvchini xalqaro tovar raqamlashtirish tizimida identifikatsiya qilish, iste'molchi huquqini himoya qilish, tovarlarni ishlab

chiqarishni avtomatik hisobga olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 1 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan tovarlarga shtrix kodlashni kiritish» to‘g‘risidagi 438 sonli farmoyishi qabul qilingan.

Farmoyishda quyidagilar ko‘zda tutilgan:

O‘zbekiston Respublikasining tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi qoshida tovarlar va mahsulotlarni identifikasiya qilish markazi «EAN O‘zbekiston» yaratish va bu bilan mahsulotni shtrix kodlashtiriladigan tadbirkorlik faoliyati ko‘rsatadigan sub’ektlarini registratsiya qilish va xalqaro talablarga muvofiq identifikasiya tizimidan foydalanuvchilar faoliyatini metodik boshqarish va O‘zdavstandart tomonidan shtrix kodlar maketini yaratish.

Shtrix kodlashni kiritish bo‘yicha “O‘zstandart” agentligi vazifasi. O‘zbekiston Respublikasidagi tovarlarni shtrix kodlash to‘g‘risidagi farmoyishlarga asosan “O‘zstandart” agentligi zimmasiga quyidagilar yuklangan:

-O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni shtrix kodlash tizimini kiritish bo‘yicha yagona siyosat olib borish;

-O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlarni davlat shtrix kodlar reestriga kiritish;

-O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shtrix kodlash tizimini qo‘llash tartibini belgilab beruvchi me‘yoriy xujjatlar va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqarish;

-Xo‘jalik sub’ektlarni shtrix kodlar original maketlari bilan ta‘minlash.

4. EAN – 13 KODINING NAZORAT RAQAMLARINI XISOBLASH

1. Juft qatordagi turgan sonlarni qo‘shib 3 ga ko‘paytiriladi (33*3)

Raqamlar tartibi	13	12	11	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
Qiymati	4	0	1	8	9	9	3	4	0	4	7	8	7
Juft		0	+	8	+	9	+	4	+	4	+	8	=33
Toq	4	+	1	+	9	+	3	+	0	+	7		=24

2. Toq qatordagi sonlar qo‘shiladi :

3. Toq va juft qatordagi sonlar yig‘indisi qo‘shiladi. $(33*3)+24=123$

4. $130 -123=7$

5. Olingan natija nazorat soniga to‘g‘ri keladi.

5. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega bo‘lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollar

1. Shtrix kod va shtrix kodlashga izoh bering?
2. Qanday shtrix kodlar joriy qilingan?
3. O‘zbekiston Respublikasida qanday shtrix kod joriy qilingan?
4. Shtrix kodlashning qonuniy asoslari.
5. Shtrixli kodlash deganda nimalarni tushunasiz?
6. Qanday maqsulotlarga nisbatan shtrixli kod qo‘llanishi kerak?

16 - AMALIY MASHG‘ULOT

OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING SIFATI VA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH (2 soat)

Reja:

1. Asosiy tushunchalar.
2. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi.
3. Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini nazorat qilish va tekshirish.
4. Oziq-ovqatlarni qadoqlash, o‘rash va tamg‘alash.
5. Xulosa.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari — bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;

gigiyena sertifikati — oziq-ovqat mahsuloti, texnologiya, uskuna va boshqa jarayonlar amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;

ovqatga qo‘shiladigan biologik faol qo‘shimchalar — oziq-ovqat homashyosini qayta ishlash yo‘li bilan yoki sun‘iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste’mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo‘shishga mo‘ljallangan tabiiy yohud tabiiyga aynan o‘xshaydigan biologik faol moddalarning konsentratlari;

oziq-ovqatlar — oziq-ovqat xomashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste’mol qilinadigan mahsulotlar;

oziq-ovqat mahsuloti — oziq-ovqat xomashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;

oziq-ovqat mahsuloti muomalasi — oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizasiya qilish bilan bog‘liq faoliyat;

oziq-ovqat mahsulotini realizasiya qilish — oziq-ovqat mahsulotini ma’lum shartlar bilan sotish, yetkazib berish va topshirishning boshqa shakllari;

oziq-ovqat mahsulotining sifati — oziq-ovqat mahsulotining iste’mol xossalari belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsizligini ta’minlaydigan mezonlar majmui;

oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi — oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi;

oziq-ovqat xomashyosi — oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o‘simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek minerallar ob’ektlari, suv;

oziq-ovqatlarni hamda oziq-ovqat xomashyosini taqqoslash — oziq-ovqatlar hamda oziq-ovqat xomashyosi aniq turdagi va nomdagi mahsulotga doir normativ va (yoki) texnika hujjatda belgilab qo‘yilgan muhim mezonlarga mos kelishini aniqlash;

oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) — bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizasiya qilish chog‘ida xavfsizlik normalari va qoidalar talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo‘lib turadi, bu muddat tamom bo‘lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo‘lib qolishi mumkin;

oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish — oziq-ovqat xomashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab o‘zgartirish yoki ularni almashtirib qo‘yish;

oziq-ovqat qo‘shimchalari — oziq-ovqatlarga belgilangan xossalarni baxsh etish va (yoki) ularni saqlab qolish maqsadida ataylab qo‘shiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar;

toksikologiya-gigiena ekspertizasi — oziq-ovqat mahsuloti ustida amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo‘lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo‘ljallangan bo‘ladi;

qadoqlash materiallari, yordamchi materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar — oziq-ovqat mahsulotini muomala jarayonida tashqi ta’sirlardan himoyalash maqsadida ishlatiladigan vositalar.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ushbu Qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalar qo‘llaniladi.

2. OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING SIFATI VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bosh davlat veterinariya boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa organlar (bundan keyin matnda davlat nazorati organlari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat tomonidan normalash;
- oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo'ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- oziq-ovqat mahsulotini sertifikatlash;
- davlat nazorati va tekshiruvi;
- oziq-ovqat mahsulotining sifatini va xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini rejalashtirish.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat tomonidan normalash oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga, uni ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish shart-sharoitlariga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladigan sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalarini, qoidalarini va gigiyena normativlarini, davlat standartlarini, texnik shartlarni (bundan keyin matnda normalar va qoidalar deb yuritiladi) belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Oziq-ovqat mahsulotini hamda uni tayyorlashga mo'ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Oziq-ovqat mahsuloti hamda uni tayyorlashga mo'ljallangan va foydalanganda oziq-ovqatga tegib turadigan uskunalarda oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar talablariga mosligi baholanganidan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin ishlab chiqarilishi, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi, realizatsiya qilinishi va ishlatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va uning hududiga olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga ruxsat berilgan oziq-

ovqat mahsulotini va uskunalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish gigiyena sertifikati berilayotganda davlat sanitariya nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- oziq-ovqat mahsulotining har xil turlarini bir xil nomda davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- ayni bir turdagi oziq-ovqat mahsulotini bir xil yoki har xil nomlar bilan qayta-qayta ro'yxatdan o'tkazish;
- tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan oziq-ovqatlarni, ovqatga qo'shiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari, yembop qo'shimchalar va biologik faol qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish.

Oziq-ovqat mahsulotini, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo'ljallangan texnologiyalar, uskunalar, buyumlar va vositalarni sertifikatlash

Oziq-ovqat mahsuloti, uni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va u bilan savdo qilishga mo'ljallangan texnologiyalar, uskunalar, buyumlar va vositalar ularning normalar va qoidalarga mosligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlanishi lozim.

Majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar ro'yxati hamda sertifikatlashdan o'tkazish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

3. OZIQ-OVQAT MAHSULOTINING SIFATI VA XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH VA TEKSHIRISH

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi davlat nazorati organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida nazorat qilinadi va tekshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizasiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan normalar va qoidalarga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini ta'minlaydilar. Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshirish tartibi oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalarga, normativ hamda texnologiya hujjatlari talablariga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar bajaradigan ishlar va xizmatlarning xususiyatlarini va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanadi hamda tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishiladi.

Ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalarining talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda ishlarni amalga oshirishni va xizmatlar ko'rsatishni aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yishlari shart.

Jamoat birlashmalari qonun hujjatlariga muvofiq oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlashga doir normalar va qoidalar bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga haqli.

Oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarishni, oziq-ovqat mollari bilan savdo qilishni, umumiy ovqatlanish tizimini rivojlantirishning respublika va mintaqaviy maqsadli dasturlarini ishlab chiqish chog'ida oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash tadbirlari nazarda tutilmog'i kerak.

Yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish

Yuridik va jismoniy shaxslar yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish yoki uni takomillashtirish chog'ida, shuningdek ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish chog'ida oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligini, yaroqlilik muddatini, sifat ko'rsatkichlarini va nazorat qilish usullarini asoslab berishlari shart.

Oziq-ovqat mahsulotining sifat ko'rsatkichlari, uning xavfsizligiga qo'yiladigan talablar majburiy bo'lib, ushbu mahsulotning normativ hujjatlariga kiritiladi.

Sifati va xavfsizligi muayyan vaqt o'tganidan keyin o'zgarishi hamda odamlarning hayoti va salomatligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotiga yaroqlilik muddati belgilanadi.

Yangi oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishga, yangi texnologiya jarayonlarini, uskunalarni joriy etishga ular toksikologiya-gigiyena ekspertizasidan, hayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xomashyosi esa veterinariya ekspertizasidan o'tkazilganidan hamda mahsulot belgilangan normalar va qoidalarga mosligi haqida davlat sanitariya nazorati organining gigiyena sertifikati yoki xulosasi yoxud veterinariya nazorati organining xulosasi olinganidan va oziq-ovqat mahsuloti davlat reyestriga kiritilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotini yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalar talablariga muvofiq ishlab chiqaradilar.

Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan oziq-ovqat xomashyosidan, oziq-ovqat qo'shimchalaridan, qadoqlash va yordamchi materiallardan va ulardan ishlangan buyumlardan, uskunalaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan oziq-ovqat qo'shimchalari, yembop qo'shimchalar va biologik faol qo'shimchalarni ishlatish taqiqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotining sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga mos bo'lishi ushbu Qonun 7-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan mahsulotlarning sifati esa sertifikat bilan ham tasdiqlanishi kerak.

Hayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xomashyosini yetishtirish chog'ida yem-xashaklar, yem qo'shimchalari, hayvonlarni parvarishlashda ishlatiladigan veterinariya dori vositalari va preparatlarini qo'llanishga ular davlat veterinariya nazorati organlari tomonidan davlat sanitariya nazorati organlari bilan kelishgan holda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

O'simliklardan olinadigan oziq-ovqat xomashyosini yetishtirish chog'ida zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlarning qo'llanishiga ular toksikologiya-gigiyena ekspertizasidan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

4. OZIQ-OVQATLARNI QADOQLASH, O'RASH VA TAMG'ALASH

Oziq-ovqatlar ishlab chiqaruvchi yuridik va jismoniy shaxslar ularni qadoqlangan, o'ralgan (barcha muomala bosqichlarida sifati va oziqlik qimmati

saqlanib qolishini ta'minlaydigan) va qonun hujjatlariga muvofiq tamg'alangan holda chiqarishlari shart.

Qadoqlangan va o'ralgan oziq-ovqatlar, ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar, oziq-ovqat qo'shimchalari yoriqlarga (suqma varaqalarga) ega bo'lishi, ularda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- oziq-ovqatning nomi;
- oziq-ovqatning nimaga mo'ljallanganligi (bolalarga maxsus mo'ljallangan mahsulotlar va parhez taomlar uchun);
- tayyorlovchining nomi;
- tovar belgisi (belgiga ega tashkilotlar uchun);
- oziq-ovqat tarkibiga kirgan narsalar, shu jumladan oziq-ovqat qo'shimchalarining nomi;
- oziqlik qimmati, navi;
- saqlash shart-sharoitlari;
- tayyorlangan sanasi, yaroqlilik muddati;
- tayyorlash usuli (masalliqlar hamda maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);
- og'irligi;
- foydalanish usuli (biologik faol qo'shimchalar: oziq-ovqat qo'shimchalari, maxsus bolalarbop va parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun);
- muvofiqlik belgisi (mahsulotning muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini beradigan litsenziyasi bor korxonalar uchun);
- normativ yoki texnika hujjatlarning nomerlari.

Oziq-ovqatlarni saqlash va tashish

Oziq-ovqatlarni saqlaydigan va tashiydigan yuridik va jismoniy shaxslar normalar va qoidalarga rioya etishlari, oziq-ovqat sifati saqlanishini va xavfsizligini ta'minlashlari shart.

Oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilish

Majburiy sertifikatlanadigan oziq-ovqat mahsuloti yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini tasdiqlaydigan moslik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi bo'lgan taqdirda realizatsiya qilinadi.

Oziq-ovqat mahsulotini chakana sotish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsuloti bilan savdo qilishga mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shu maqsadlar uchun ajratilgan joylarda yo'l qo'yiladi.

Quyidagi hollarda oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi:

- mahsulot sifati belgilangan normalar va qoidalar talablariga muvofiq bo'lmasa, majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar uchun esa moslik sertifikati bo'lmasa;
- saqlash va realizatsiya qilish uchun tegishli sharoit bo'lmasa;
- yaroqlilik muddati tugagan bo'lsa;
- mahsulot qalbakilashtirilgan bo'lsa;

➤ mahsulotlarni taqqoslash mumkin bo'lmasa.

O'zbekiston Respublikasi hududiga oziq-ovqat mahsulotini olib kirish

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti ushbu Qonunda ko'rsatilgan normalar va qoidalar talablariga muvofiq bo'lishi shart.

Chetdan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotini yetkazib beruvchi uni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ishlab chiqaruvchining va eksport qiluvchi mamlakat maxsus vakil qilgan organning ushbu mahsulot xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarini, tegishli ekspertiza o'tkazish zarur bo'lganida esa oziq-ovqat mahsulotining namunalarini taqdim etadi.

Chetdan olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti, texnologiyalar va uskunalar qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsuloti sifati va xavfsizligining normalar va qoidalariga mosligi davlat nazorati organlari tomonidan bojxona organlari bilan birgalikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotini olib qo'yish

Odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti tegishli davlat nazorati organlarining qaroriga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo'yilishi kerak.

Normalar va qoidalariga mos kelmaydigan oziq-ovqat mahsulotidan foydalanish va uni yo'q qilib tashlash

Yaroqlilik muddati o'tgan, sifatsizligi belgi berib turgan, taqqoslash va ishlab chiqaruvchisini aniqlash mumkin bo'lmagan, shuningdek davlat sanitariya va (yoki) veterinariya nazorati organlari tomonidan gigiyena va (yoki) veterinariya ekspertizasi va sertifikatlash sinovlari natijalari bo'yicha ovqatga ishlatish uchun yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdan olib tashlanadi, u belgilangan maqsadda ishlatilmasligi hamda qayta ishlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotini qayta ishlash yoki yo'q qilib tashlash usullari va shartlari uchun egasi tomonidan tegishli davlat nazorati organlari bilan kelishib olinadi.

Oziq-ovqat mahsulotidan foydalanish (uni qayta ishlash) yoki yo'q qilib tashlash uning egasi tomonidan yoki mahsulot egasi shu ishlarni bajarishni shartnoma bo'yicha topshiradigan tashkilotlar tomonidan komissiya ishtirokida amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga davlat hokimiyati mahalliy organlarining, davlat nazorati organlarining, soliq organlarining va jamoatchilikning vakillari kiradi.

Oziq-ovqat mahsuloti hayvonlarga yem sifatida ishlatilgunicha yoki yo'q qilib tashlagunicha alohida joyda (rezervuarda), alohida hisobda, miqdori, ishlatish (qayta ishlash) yoki yo'q qilib tashlash usullari va shartlari aniq ko'rsatilgan holda saqlanishi kerak. Bunday mahsulotning but saqlanishi uchun uning egasi javobgar bo'ladi.

Oziq-ovqat mahsulotini ekspertiza qilish, yo‘q qilib tashlash usullari va shartlarini belgilash, qayta ishlash, saqlash, tashish va yo‘q qilib tashlash bilan bog‘liq xarajatlarni uning egasi to‘laydi.

Oziq-ovqat mahsulotining egasi davlat sanitariya va (yoki) veterinariya nazorati organlariga mahsulotdan foydalanilganligi yoki u yo‘q qilib tashlanganligi haqida dalolatnoma taqdim etadi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

5. XULOSA

O‘qituvchi talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, o‘quv mashg‘uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega bo‘lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. “Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi” deganda nimani tushunasiz.
2. Yangi oziq-ovqat mahsulotini yaratish va ishlab chiqarish tartibini tushuntiring.
3. Oziq-ovqatlarni qadoqlash, o‘rash va tamg‘alashga talablarni izohlang.
4. O‘zbekiston Respublikasi hududiga oziq-ovqat mahsulotini olib kirish tartibini tushuntiring.

17-AMALIY MASHG‘ULOT

STANDARTLASHTIRISH BO‘YICHA XALQARO TASHKILOT (ISO) (2 soat)

Reja:

1. ISO tarixi.
2. ISO nashrlari.
3. ISO faoliyati
4. Xulosa.

Tayanch so‘zlar: ISO, standart, konsensus, standartni ishlab chiqish, milliy standartlashtirish organi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qo‘llab dars o‘tiladi.

Darsda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proyektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan ta'minlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun to'la sharoit yaratiladi.

1. ISO TARIXI

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) 1946-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning standartlarini muvofiqlashtirish bo'yicha BMT Qo'mitasining majlisida yaratilgan. Shu yilning o'zida Bosh assambleyaning majlisida ISO ning Ustavi qabul qilindi. Bu Ustav tashkilotning statusi (huquqiy mavqei) ni, tuzilmasini, asosiy idoralar vazifalari va ish usullarini belgiladi.

14 oktyabr 1946 – yilda bo'lib o'tgan ISO Bosh assambleyasi qabul qilgan qaroriga ko'ra, bu tashkilot Ustav va protseduralarining Qoidalari 15 ta standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlar tomonidan ratifikatsiya qilingan (tasdiqlangan) dan keyin o'z faoliyatini rasmiy ravishda boshlaydi, deb ko'rsatilgan. 15 – ratifikatsiya 23 fevral 1947 – yilda Daniyadan keldi – bu sana ISO ning tashkil etilish kuni deb hisoblanadi. ISO ning Ustavida yozilishicha, “Tashkilotning vazifasi xalqaro mol almashinish va o'zaro yordamini yengillashtirish, shuningdek intellektual, ilmiy, texnik va iqtisodiy faoliyat doirasida hamkorlikni kengaytirish uchun butun dunyoda standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat”

2. ISO NASHRLARI


Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot bir qator turli materiallarni nashr etadi. Eng avval, bu tashkilot harfli indeks va raqamli belgi (masalan ISO 5827) ga ega bo'lgan xalqaro standartlarni chop etadi. Qator hollarda texnik dokladlar chop etiladi. Bu dokladlarda ma'lum mavzu bo'yicha standartlashtirish ishlarining borishi to'g'risida xabar beriladi yoki odatda standartlarga qo'shiladigan axborot va ma'lumotlar keltiriladi.

Har yilning fevral oyida xalqaro standartlar katalogi (ISO Catalogue) nashrdan chiqadi. Bu katalogda xalqaro standartlar qo'llanish doiralari va mavzu guruhlari bo'yicha joylashtiriladi. ISO standartlaridan tashqari MEK bilan birgalikda xalqaro standartlashtirish doirasida eng dolzarb mavzular bo'yicha “qo'llanma” (Guides) chop etiladi. ISO bibliografik ko'rsatkichlarni nashr etadi. Bu ko'rsatkichlarda ISO standartlari va standartlarning loyihalari, shuningdek yagona doiraga tegishli boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari ro'yxati beriladi. Ma'lum doiraga oid ISO standartlarining to'liq matni mavzu to'plamlarida (Hand-books) chop etiladi. Bu nashrlardan tashqari, o'tgan yil uchun (har yili) ISO ishlari to'g'risida hisobot va ISO ning texnik dasturi (yilda ikki marta) chop etiladi. Bu dasturda xalqaro standartlar loyihalarining sarlavhasi va ularni ishlab chiqish bosqichlari ko'rsatiladi. 1985-yilda amaldagi xalqaro standartlar Predmetli ko'rsatkichi chop etiladi. Bu ko'rsatkich muhim (KWIC)

soʻzlar boʻyicha tuzilgan. Har yili ISO ning tuzilmasi toʻgʻrisida, aʼzo-qoʻmitalar toʻgʻrisida va har bir texnik qoʻmitaning faoliyati sohasi (ISO Memento) toʻgʻrisida axborotni oʻz ichiga olgan maʼlumotnoma chiqadi. ISO ishlari toʻgʻrisidagi axborot har oylik axborot byulletenida (ISO Bulletin) aks ettiriladi.

3. ISO FAOLIYATI


ISO tashkilotining rasmiy sayti <https://www.iso.org> xisoblanadi. Xalqaro tashkilotning rasmiy saytida taʼkidlanganidek “buyuk ishlar qachonki jahon hamjamiyati konsensusga erishgandagina amalga oshadi”. Ushbu tashkilotning Markaziy sekretariati Jeneva (Shveysariya) da joylashgan. ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasi quyidagicha (1-rasm.).



1-rasm. ISO ning boshqaruv tuzilmasi

ISO – notijorat, nodavlat tashkiloti boʻlib, uning aʼzolari milliy standartlashtirish organlari hisoblanadi, hozirda uning 162 davlat aʼzosi.

2-rasmda ISO ga aʼzo davlatlarning global koʻrinishi berilgan.



2-rasm. ISO ga a'zo davlatlar

Bosh assambleya tashkilotning bosh organi hisoblanadi. Har yillik majlisda a'zo davlatlar va tashkilotning yuqori rahbar shaxslari qatnashadi. ISO ning standartlarini ishlab chiqishda 160 dan ortiq davlat mutaxassislari va 45000 dan ortiq ekspertlar qatnashadi.

1-jadval

ISO ga a'zo davlatlarning ro'yxati:
To'liq xuquqli a'zo davlatlar (120 ta davlat):

Afghanistan	ANSA	Member body	5	1
Algeria	IANOR	Member body	66	3
Argentina	IRAM	Member body	372	4
Armenia	SARM	Member body	61	3
Australia	SA	Member body	376	5
Austria	ASI	Member body	539	3
Azerbaijan	AZSTAND	Member body	11	4
Bahrain	BSMD	Member body	17	2
Bangladesh	BSTI	Member body	26	2
Barbados	BNSI	Member body	39	4
Belarus	BELST	Member body	168	4
Belgium	NBN	Member body	582	3
Benin	ANM	Member body	2	1
Bosnia and Herzegovina	BAS	Member body	93	4
Botswana	BOBS	Member body	34	3
Brazil	ABNT	Member body	252	5
Bulgaria	BDS	Member body	345	4
Burkina Faso	ABNORM	Member body	3	1
Cameroon	ANOR	Member body	35	4
Canada	SCC	Member body	370	4
Chile	INN	Member body	165	4
China	SAC	Member body	732	5
Colombia	ICONTEC	Member body	162	3
Congo, The Democratic	OCC	Member body	32	2

Republic of the				
Costa Rica	INTECO	Member body	39	3
Croatia	HZN	Member body	176	3
Cuba	NC	Member body	202	4
Cyprus	CYS	Member body	104	2
Czech Republic	UNMZ	Member body	678	4
Côte d'Ivoire	CODINORM	Member body	54	3
Denmark	DS	Member body	335	4
Dominican Republic	INDOCAL	Member body	7	3
Ecuador	INEN	Member body	49	3
Egypt	EOS	Member body	303	4
El Salvador	OSN	Member body	12	3
Estonia	EVS	Member body	98	2
Ethiopia	ESA	Member body	65	3
Fiji	DNTMS	Member body	10	3
Finland	SFS	Member body	588	5
France	AFNOR	Member body	743	5
Gabon	AGANOR	Member body	15	3
Germany	DIN	Member body	735	5
Ghana	GSA	Member body	34	3
Greece	NQIS ELOT	Member body	202	4
Hungary	MSZT	Member body	490	4
Iceland	IST	Member body	149	3
India	BIS	Member body	651	4
Indonesia	BSN	Member body	250	4
Iran, Islamic Republic of	ISIRI	Member body	564	4
Iraq	COSQC	Member body	42	4
Ireland	NSAI	Member body	328	4
Israel	SII	Member body	252	4
Italy	UNI	Member body	692	4
Jamaica	BSJ	Member body	40	3
Japan	JISC	Member body	717	5
Jordan	JSMO	Member body	42	3
Kazakhstan	KAZMEMST	Member body	96	4
Kenya	KEBS	Member body	225	4
Korea, Democratic People's Republic of	CSK	Member body	95	2
Korea, Republic of	KATS	Member body	730	5
Kuwait	KOWSMD	Member body	14	2
Latvia	LVS	Member body	9	4
Lebanon	LIBNOR	Member body	33	3
Lithuania	LST	Member body	66	4
Luxembourg	ILNAS	Member body	98	3
Malawi	MBS	Member body	10	2
Malaysia	DSM	Member body	281	5
Mali	AMANORM	Member body	18	4
Malta	MCCAA	Member body	44	4
Mauritius	MSB	Member body	71	3
Mexico	DGN	Member body	130	4
Mongolia	MASM	Member body	251	4
Morocco	IMANOR	Member body	100	3
Namibia	NSI	Member body	19	4
Nepal	NBSM	Member body	5	3
Netherlands	NEN	Member body	614	4

New Zealand	NZSO	Member body	180	4
Nigeria	SON	Member body	63	3
Norway	SN	Member body	330	3
Oman	DGSM	Member body	24	3
Pakistan	PSQCA	Member body	190	3
Panama	COPANIT	Member body	57	3
Peru	INACAL	Member body	43	4
Philippines	BPS	Member body	133	3
Poland	PKN	Member body	644	4
Portugal	IPQ	Member body	425	4
Qatar	QS	Member body	39	3
Romania	ASRO	Member body	689	4
Russian Federation	GOST R	Member body	651	5
Rwanda	RSB	Member body	26	2
Saint Lucia	SLBS	Member body	6	3
Saudi Arabia	SASO	Member body	216	4
Senegal	ASN	Member body	11	3
Serbia	ISS	Member body	483	4
Singapore	SPRING SG	Member body	165	3
Slovakia	SOSMT	Member body	477	3
Slovenia	SIST	Member body	101	4
South Africa	SABS	Member body	435	5
Spain	UNE	Member body	645	4
Sri Lanka	SLSI	Member body	196	3
Sudan	SSMO	Member body	15	3
Sweden	SIS	Member body	557	5
Switzerland	SNV	Member body	565	5
Syrian Arab Republic	SASMO	Member body	0	0
Tanzania, United Republic of	TBS	Member body	155	4
Thailand	TISI	Member body	305	4
The Former Yugoslav Republic of Macedonia	ISRM	Member body	12	2
Trinidad and Tobago	TTBS	Member body	63	3
Tunisia	INNORPI	Member body	167	4
Turkey	TSE	Member body	380	4
Uganda	UNBS	Member body	45	2
Ukraine	DSTU	Member body	339	4
United Arab Emirates	ESMA	Member body	44	3
United Kingdom	BSI	Member body	742	5
United States	ANSI	Member body	595	5
Uruguay	UNIT	Member body	53	3
Uzbekistan	UZSTANDARD	Member body	8	2
Viet Nam	STAMEQ	Member body	87	4
Yemen	YSMO	Member body	12	1
Zimbabwe	SAZ	Member body	54	3

Hozirgi vaqtda ISO ning 311 texnik qo‘mitalari faoliyat yuritadi. Masalan, ISO/IEC JTC 1 axborot texnologiyalari sohasida, ISO/TC 34 oziq-ovqat bo‘yicha, ISO/TC 38 to‘qimachilik, ISO/TC 43 akustika, ISO/TC 162 eshik va derazalar, ISO/TC 181 o‘yinchoqlar xavfsizligi, ISO/TC 229 nanotexnologiya va boshqa.

ISO o'zining standartlarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyil (prinsip) larga tayanadi:

- ❖ ISO standartlari bozor talablariga javob beradi.
- ❖ ISO standartlari global ekspertlar fikriga tayanadi.
- ❖ ISO standartlari barcha manfaatdor taraflarning ishtirokida ishlab chiqiladi.
- ❖ ISO standartlarida konsensusga erishiladi.

Hozirgi vaqtgacha ISO ning 21976 dan ortiq standartlari chop qilingan.



ISO Markaziy Kotibiyatining aloqalari
Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot
ISO markaziy kotibiyati
Chemin de Blandonnet 8
CP 401 - 1214 Vernier, Jeneva, Shveytsariya

Elektron pochta manzili: central@iso.org
Tel. : +41 22 749 01 11
Faks: +41 22 733 34 30

4. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollar

1. ISO tashkilotining tarixini bilasizmi?
2. ISO tashkilotining tashkiliy tuzilmasini tushuntiring.
3. Xalqaro standartlarni ishlab chiqishdagi asosiy tamoyillarni sanang.
4. Konsensus nima?

18-AMALIY MASHG'ULOT

XALQARO ISO 9000 SERIYASIDAGI STANDARTLAR BO'YICHA ISHLARNI TASHKIL ETISH (2 Soat)

Reja:

1. Xalqaro ISO 9000 seriyasidagi standartlar.
2. Sifat menejmenti tizimini joriy etish etaplari.

3. Sifatni boshqarishning 7 tamoyili.
4. Xulosa.

Tayanch soʻzlar: sifat tizimlari, ISO 9000, sifatni taʼminlash, sifat toʻgaraklari.

Zamonaviy pedagogik texnologiya elementlaridan, masalan interaktiv metodini qoʻllab dars oʻtiladi.

Darsda texnik vosita va koʻrgazmali qurollardan keng foydalaniladi (kodoskop, proyektor, plakat va hokazo).

Talabalar tarqatma materiallar bilan taʼminlanadilar.

Talabalar mustaqil fikrlashi uchun toʻla sharoit yaratiladi.

1. XALQARO ISO 9000 SERIYASIDAGI STANDARTLAR

Oxirgi paytlarda 9000 seriyadagi ISO xalqaro standartlari toʻgʻrisida koʻp eshitayapmiz. Xoʻsh, bu standartlar qanday standartlar va nima uchun qoʻllaniladi? Bu seriyadagi standartlar sifat tizimlarini korxonalarda tatbiq etishga moʻljallangan xalqaro modellar boʻlib hisoblanadi.

Chet davlatlarda sifat tizimi boʻlmagan korxona yoki firma bilan ishlab boʻlmaydi. Chunki birinchidan hech qanday kafolat yoʻq, ikkinchidan esa siz shartnoma tuzganingizda ham, siz bilan ishlovchi boshqa subyektlar bundan boxabar boʻlganlarida ularning sizga nisbatan ishonchlari kamayishi mumkin. Shu sababdan sifat tizimlariga nihoyatda jiddiy ahamiyat berishimiz kerak.

9000 seriyadagi ISO standartlarining 2000-yil versiyasi uchta standartdan iborat:

- ❖ ISO 9000 – Sifat menejmenti tizimi. asosiy qoidalar va lugʻat.
- ❖ ISO 9001 – Sifat menejmenti tizimi – talablar.
- ❖ ISO 9004- Sifat menejmenti tizimi. Faoliyatni yaxshilash boʻyicha tavsiyalar.
- ❖ ISO 10011 “Sifat tizimlarini tekshirishda rahbarlik koʻrsatmalari”;
- ❖ ISO 10012 “Oʻlchash vositalarining sifatini taʼminlaydigan talablar”.


Bular bilan bir qatorda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti uch tilda atamalar lugʻati yaratgan boʻlib, mahsulot sifatini taʼminlash sohasida ularning taʼriflarini ham ishlab chiqqan. Bulardan tashqari ISO/MEK (Xalqaro elektrotexnika komissiyasi) tomonidan ham bir qancha meʼyoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

2002 yili mazkur standartlarning yangi versiyalari qabul qilindi. Bunga koʻra standartlarda sezilarli darajada ham tarkibiy, ham mazmunan oʻzgarishlar kiritildi. Standartlarning soni ham 2 taga kamaydi. Agar oldingi standart (ISO 9001) bandlar 20 ta boʻlgan boʻlsa, endilikda ular 8 taga keltirildi.

Eng asosiysi, bu standartlar ustuvor sifatida sifatni doimiy tarzda yaxshilab borish siyosatini qoʻllaydi va isteʼmolchining talabi bajarilgan boʻlishini talab qiladi.

2. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH ETAPLARI

Hozirda O'zbekistonda ISO 9000 seriyasidagi standartlar qo'llanilishi boshlangan. 1-rasmda ISO 9001 afzalligining strukturaviy elementlari keltirilgan.



1–rasm. ISO 9001 afzalligining strukturaviy elementlari


1-jadval

3. SIFATNI BOSHQARISHNING 7 TAMOYILI (ISO 9001:2015 ga muvofiq)

№	Tamoyillar	Mazmuni
1	Iste'molchiga moslashib ishlash	Tashkilot o'zining buyurtmachilariga bog'liq va shuning uchun ham buyurtmachining kundalik va kelgusidagi ehtiyojlarini tushunishi, ularning talablarini bajarishi va bajarganda ham ular kutganidan ham a'lo darajada bajarishga harakat qilishi zarur.
2	Rahbariyatning liderligi	Rahbarlar tashkilot faoliyatining yo'nalishlari va maqsadlari birligini belgilab beradilar. Ular shunday muhit yaratadilarki, unda odamlar tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun to'la jalb etiladilar.
3	Odamlarni jalb qilish	Barcha darajadagi xizmatchilar – bu tashkilotning mohiyati demak va ularni to'la jalb eta olish ularning qobiliyatlaridan tashkilot manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini beradi.
4	Jarayonli yondashuv	Tegishli resurslar va faoliyat jarayon sifatida boshqarilganda kutilayotgan natijaga ancha samarali erishiladi. Jarayonli yondashuv tashkilotning o'z faoliyati va o'zaro aloqalarini belgilash va tushunish qobiliyatiga ko'maklashadi
5	Yaxshilab borish	Doimiy yaxshilab borish tashkilotning o'zgarmas maqsadi hisoblanadi. Doimiy yaxshilash mahsulotlarning xossalari va tavsiflarini oshirish yoki ishlab chiqarish va yetkazib berish uchun foydalaniladigan jarayonlarning samaradorligi va unumdorligini oshirish uchun qilinadigan harakatlarga

		taalluqlidir.
№	Tamoyillar	Mazmuni
6	Faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yondashuv	Qarorlar samaradorligi ma'lumotlar va axborotlarni mantiqiy va intuitiv tahlil qilishga asoslanadi.
7	Mahsulot (mol) yetkazib beruvchilar bilan o'zaro foydali munosabatlar	Tashkilot va uning mahsulot (mol) yetkazib beruvchilari o'rtasidagi o'zaro foydali munosabatlar har ikki tashkilotning boyliklar yaratish bo'yicha qobiliyatlarini oshiradi.

O'zbekistonda hozirgi kunda 3000 dan ortiq korxonalarda ISO 9000 seriyasi standartlarini qabul qilgan va shu standart talablari asosida ish olib boradi.



2-rasm. ISO 9000 seriyali standartlar oilasi tuzilmasiga binoan O'zbekiston davlat standartlari

4. XULOSA

O'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlar, o'quv mashg'uloti vaqtida zamonaviy pedagogik interfaol texnologiyalar shaklida tahlil qilish asosida ushbu mavzu bo'yicha zarur bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun xulosalarni bayon qiladi.

Nazorat savollari

1. ISO 9000 seriyadagi standartlari haqida nima bilasiz?
2. ISO 9001 standartlarining afzaliklarini izohlab bering?
3. Sifatni boshqarishning 7 tamoyilini tahlil qiling.

Davlat kodlari	GSI Milliy tashkilotlari	Jahon xududlari
000-019	GSI US	AQSh
020-029	In-store numbers	Ichki raqamlari
030-039	GSI US	AQSh
040-049	In-store numbers	Ichki raqamlari
050-059	Coupons	Kuponlar
060-139	GSI US	AQSh
200-299	In-store numbers	Ichki raqamlari
300-379	GSI France	Fransiya
380	GSI Bulgaria	Bolgariya
383	GSI Slovenia	Sloveniya
385	GSI Croatia	Xorvatiya
387	GSI Bosnia-Herzegovina	Bosniya-Gersegovina
400-440	GSI Germany	Germaniya
450-459	GSI Japan	Yaponiya
490-499		
460-469	GSI Russia	Rossiya
470	GSI Kyrgyz Republic	Kirgiziston Respublikasi
471	GSI Taiwan	Tayvan
474	GSI Estonia	Estoniya
475	GSI Latvia	Latviya
476	GSI Azerbaijan	Ozarbayjon
477	GSI Lithuania	Litva
478	GSI Uzbekistan	O'zbekiston
479	GSI Sri Lanka	Shri-Lanka
480	GSI Philippines	Filippin
481	GSI Belarus	Belarussiya
482	GSI Ukraine	Ukraina
484	GSI Moldova	Moldova
485	GSI Armenia	Armaniston
486	GSI Georgia	Gruziya
487	GSI Kazakhstan	Qozog'iston
489	GSI Hong Kong	Gonkong
500-509	GSI UK	Buyuk Britaniya
520	GSI Greece	Gresiya
528	GSI Lebanon	Livan
529	GSI Cyprus	Kipr
530	GSI Albania	Albaniya
531	G-SI Macedonia	Makedoniya

Davlat kodlari	GSI Milliy tashkilotlari	Jahon xududlari
535	GSI Malta	Mal'ta
539	GSI Ireland	Irlandiya
540-549	GSI Belgium, Luxembourg	Bel'giya, Lyuksemburg
560	GSI Portugal	Portugaliya
569	GSI Iceland	Islandiya
570-579	GSI Denmark	Daniya
590	GSI Poland	Pol'sha
594	GSI Romania	Ruminiya
599	GSI Hungary	Vengriya
600-601	GSI South Africa	Janubiy Afrika
603	GSI Ghana	Gana
608	GSI Bahrain	Baxrayn
609	GSI Mauritius	Mavrikiy
611	GSI Morocco	Marokko
613	GSI Algeria	Aljir
616	GSI Kenya	Keniya
618	GSI Ivory Coast	Kot-d'Ivuar
619	GSI Tunisia	Tunis
621	GSI Syria	Siriya
622	GSI Egypt	Misr
624	GSI Libya	Liviya
625	GSI Jordan	Iordaniya
626	GSI Iran	Eron
627	GSI Kuwait	Quvayt
628	GSI Saudi Arabia	Saudiya Arabistoni
629	GSI Emirates	O.A.E.
640-649	GSI Finland	Finlyandiya
690-695	GSI China	Xitoy
700-709	GSI Norway	Norvegiya
729	GSI Israel	Isroil
730-739	GSI Sweden	Shvesiya
740	GSI Guatemala	Gvatemala
741	GSI El Salvador	Salvador
742	GSI Honduras	Gonduras
743	GSI Nicaragua	Nikaragua
744	GSI Costa Rica	Kosta-Rika
745	GSI Panama	Panama
746	GSI Dominican Republic	Dominik Respublikasi

Davlat kodlari	GSI Milliy tashkilotlari	Jahon xududlari
750	GSI Mexico	Meksika
759	GSI Venezuela	Venesuela
760-769	GSI Switzerland	Shveysariya
770	GSI Colombia	Kolumbiya
773	GSI Uruguay	Urugvay
775	GSI Peru	Peru
777	GSI Bolivia	Boliviya
779	GSI Argentina	Argentina
780	GSI Chile	Chili
784	GSI Paraguay	Paragvay
786	GSI Ecuador	Ekvador
789-790	GSI Brazil	Braziliya
800-839	GSI Italy	Italiya
840-849	GSI Spain	Ispaniya
850	GSI Cuba	Kuba
858	GSI Slovakia	Slovakiya
859	GSI Czech	Chexiya
860	GSI Serbia & Montenegro	Serbiya va Chernogoriya
865	GSI Mongolia	Mongoliya
867	GSI North Korea	Shimoliy Koreiya
869	GSI Turkey	Turkiya
870-879	GSI Netherlands	Niderland
880	GSI South Korea	Janubiy Koreya
884	GSI Cambodia	Kambodji
885	GSI Thailand	Tailand
888	GSI Singapore	Singapur
890	GSI India	Xindston
893	GSI Vietnam	Vietnam
899	GSI Indonesia	Indoneziya
900-919	GSI Austria	Avstriya
930-939	GSI Australia	Avstraliya
940-949	GSI New Zealand	Yangi Zelandiya
955	GSI	Bosh Ofis
955	GSI Malaysia	Malayziya
958	GSI Macau	Makao
977	Serial publications (ISSN)	Davriy nashr, press
978 - 979	Bookland (ISBN)	Kitoblar
980	Refund receipts	Qaytarish kvitansiya
981-982	Common Currency Coupons	Valyuta kuponlari
990-999	Coupons	Kuponlar

Izoh: “GS 1” Halqaro Assosiyasi maxsulot, xizmatlar, korxonalar, transport vositalari va hokazolarning haqidagi ma'lumotlardan foydalanishda identifikasiyalash va yetkazish, shtrixkodlashtirish va maxsulotni nomerlash hamda avtomatik identifikasillash uchun GS 1(EAN • UCC) standartlar tizimi bilan butun dunyoda bir qancha tarmoqlar bo'yicha boshqaradi. GS 1 (EAN • UCC) timzimini joriy qilishda “GS 1” Halqaro assotsasiyasining xududiy yoki milliy guruhdagi a'zo tashkilotlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi hududida bunday tashkilot “GS 1 Uzbekistan” Assosiyasi bo'lib hisoblanadi. Ushbu tashkilot 1998 yildan “GS 1” Halqaro assotsasiyasi (EAN International, Belgiya) va “ERS global” (AQSh) Halqaro tashkilotlariga a'zodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдувалиев А.А. и др. Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции. Учебное пособие. - Ташкент:ТошГТУ, 2002. - 287 с.
2. Axmedov B.M., Ismatullayev P.R., Turayev Sh.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish asoslari: 5521600 – «Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish» va 5524300 – «Mahsulot sifati menejmenti (mahsulot turlari bo'yicha)» yo'nalishlari bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma. O'z R OO'MTV; - Toshkent, ToshDTU. 2007. -233 b.
3. Ахмедов Б.М., Истматуллаев П.Р., Турабджанов С.М., Юсупов Э.Д., Тураев Ш.А. Основы системы менеджмента качества. Ташкент, ИПТД «Узбекистан», - 2009. –208 с.
4. Ахмедов Б.М., Аббасов А.А. Система менеджмента качества – основа конкурентоспособности. «Asr-Matbuot». 2004. 96 с.
5. Ismatullayev P.R., Kodirova Sh.A. Metrologiya asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, Tafakkur, 2012. -304 b.
6. Круглов М.Г. Менеджмент качества как он есть / М.Г. Круглов, Г.М. Шишков. - М.: Эксмо, 2007. - 544 с;
7. Списнадель В.Н. Системы качества. Учебное пособие. М: Бизнес-пресса, 2000. -328 с.
8. Крылова Г.Д. Основы стандартизации, метрологии и сертификации. Учебник для студентов ВУЗ. - М.: Издательство стандартов, -1998. -497 с.
10. O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish va Akkreditatsiyalash milliy tizimining asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlari.
11. «Все о качестве» sifat tizimlarini qo'llash bo'yicha kitoblar to'plami (15 ta har xil mazmundagi).
12. «Standart» ilmiy-texnika jurnali, «O'zstandart» Agentligi.
13. «Стандарт и качества» ilmiy-texnika jurnali, Rossiya Federatsiyasi.
14. «Стандарт и качества» ilmiy-texnika jurnali, Rossiya Federatsiyasi.
15. «Методы менеджмента качества» ilmiy-texnika jurnali, Rossiya Federatsiyasi.
16. CFA Institute. Standards of Practice Handbook, Eleventh Edition 2014. CFA Institute (June 17, 2014), 290 pages.
17. International vocabulary of metrology BIPM, IEC, IFCC, ISO, IUPAC, IUPAP, OIML Second Edition, ISO, Geneva, 1993.
18. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy sayti.
19. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
20. <http://www.standart.uz> – “O'zstandart” agenligi
21. <http://www.smsiti.uz> - Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti
22. <http://www.easc.org.by> – Межгосударственный Совет по стандартизации, метрологии и сертификации Содружества Независимых Государств.

23. <http://www.ziyonet.uz> – Ta’lim portali
24. <http://www.window.edu.ru> – Butun Rossiya ta’lim portali
25. <http://www.kpms.ru>
26. <http://www.quality.eup.ru>
27. URL: <http://www.metrob.ru/HTML/Stati/vzglad.html>.

MUNDARIJA

1 – amaliy mashg‘ulot.	O‘zbekiston Respublikasining “metrologiya” to‘g‘risidagi qonuni va undagi tushunchalar tahlili	3
2 – amaliy mashg‘ulot.	Gazni hisobga olish asboblari tekshiruvdan o‘tkazish tartibini tahlil qilish	6
3 – amaliy mashg‘ulot.	Maishiy iste’molchilarning elektr energiyasini hisobga olish asboblari qiyoslashdan o‘tkazish tartibini o‘rganish	11
4 – amaliy mashg‘ulot.	O‘zbekiston Respublikasida qo‘llashga ruxsat berilgan xalqaro birliklar tizimi (SI) ning nomi va belgilanishi qoidalari	17
5 – amaliy mashg‘ulot.	O‘lcham birliklarini yozish va qo‘llash qoidalari	26
6 – amaliy mashg‘ulot.	O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish” to‘g‘risidagi qonunini tahlil qilish	33
7 – amaliy mashg‘ulot.	Standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va tatbiq etish tartib-qoidalari	38
8 – amaliy mashg‘ulot.	Tashkilot standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi	43
9 – amaliy mashg‘ulot.	Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo‘llash tartibi ...	47
10 – amaliy mashg‘ulot.	O‘zbekiston Respublikasining — “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish” to‘g‘risidagi qonunini tahlil qilish	53
11 – amaliy mashg‘ulot.	Sertifikatlashtirishni o‘tkazish tartibi	61
12 – amaliy mashg‘ulot.	Sertifikatlashtirish sxemalari	67
13 – amaliy mashg‘ulot.	O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish qonunini tahlil qilish	70
14 – amaliy mashg‘ulot.	Muvofiqlikni baholash	77
15 – amaliy mashg‘ulot.	O‘zbekiston Respublikasidagi tovarlarga shtrixli kodlashni joriy qilish. Shtrix kodlash ...	86
16 – amaliy mashg‘ulot.	Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta’minlash	91
17 – amaliy mashg‘ulot.	Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot (ISO)	98
18 – amaliy mashg‘ulot.	Xalqaro ISO 9000 seriyasidagi standartlar bo‘yicha ishlarni tashkil etish	104
	Foydalanilgan adabiyotlar	110